

Panjiyev Qurbonniyoz Berdievich

O'ZBEK XALQ MUSIQA IJODI

O'quv qo'llanma

UZBEKSKOE NARODNOE MUZYKAL'NOE TVORCHESTVO

Uchebnoe posobie

UZBEK PEOPLE'S MUSIC CREATIVITY

Tutorial

Toshkent - 2020

Mas’ul muharrir: O.A.Ibroximov - O’zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi San’atshunoslik instituti yetakchi ilmiy xodimi, O’zbekiston Respublikasi OAK Prizidiumi a’zosi, “Mehnat shuhrati” ordeni sohibi, san’atshunoslik fanlari doktori.

Taqrizchilar:

D.Karimova – TDPU, “Musiqiy ta’lim” kafedrasida professor;

S.Azizboev – O’zbekiston davlat konservatoriyasi professori.

Mazkur qo’llanma Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.

MUNDARIJA

SO'Z

BOSHI.....	6
I-Bob. O'ZBEK XALQ QO'SHIQCHILIK IJODIYO TI	
TASNIFI.....	9
1.O'zbek xalq musiqa ijodi.....	9
2.O'zbek xalq qo'shiqchili ijodi tasnifi.....	13
3.Oilaviy marosim aytimlari.....	15
4.Mavsumiy marosim qo'shiqlari.....	26
5.Diniy aytimlar.....	31
6.Mehnat qo'shiqlari.....	32
7.Turli mavzuli qo'shiqlar.....	38
8.Doston ijrochiligi.....	49
9.Xalfachilik san'ati.....	56
10.Folklor-etnografik ansambllar.....	60
11.O'zbek milliy raqslari.....	63
II-Bob.O'ZBEK XALQ MUSIQASINING MAHALLIY	
USLUBLARI.....	69
1.Maxalliy uslublar va ularning mohiyati.....	69
2.O'zbek xalq musiqasi mahalliy uslublarining o'ziga xos xususiyatlari.....	74
3.Farg'ona-Toshkent mahalliy uslubi.....	78
4.Xorazm mahalliy uslubi.....	84
5.Buxoro-Samarqand mahalliy uslubi.....	89
6.Surxondaryo-Qashqadaryo mahalliy uslubi.....	93
III-Bob.O'ZBEK XALQ QO'SHIQCHILIGI IJODIYOTINING	
MUSIQIY-SHE'RIY VA UMUMNAZARIY MASALLALARI..	100
1.Oilaviy marosim qo'shiqlarining umumnazariy masalalari.....	100
2.Mavsumiy qo'shiqlarining umumnazariy masalalari.....	107
3.Mehnat qo'shiqlarining umumnazariy masalalari.....	114
4.Turli mavzuli qo'shiqlarning umumnazariy masalalari.....	118
IV.FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	123
MUSIQA ASARLARNING NOTA NAMUNALARI.....	135

Содержание

1 ГЛАВА Классификация узбекское народное музыкальное творчество.....	9
1. Узбекское народное музыкальное творчество.....	9
2. Классификация узбекского фольклорного искусства....	13
3. Попевки семейных церемоний.....	15
4. Песни сезонных церемоний.....	26
5. Религиозные попевки.....	31
6. Трудовые песни.....	32
7. Песни на разные темы.....	38
8. Исполнение Дастана.....	49
9. Народное искусство.....	56
10. Фольклорно-этнографические ансамбли.....	60
11. Узбекские народные танцы.....	63
II-ГЛАВА.Локальные методы узбекской народной музыки..	69
1. Локальные методы и их сущность.....	69
2. Сущность локальных методов узбекской народной музыки.....	74
3. Локальные методы Фергана-Ташкент.....	78
4. Локальные методы Харезма.....	84
5. Локальные методы Бухара-Самарканд.....	89
6. Локальные методы Сурхандарье-Кашкадарье.....	93
III-Глава. Музыкально-поэтические основы узбекского народного песенного искусства.....	100
1. Теория песней семейных церемоний.....	100
2. Теория песней сезонных церемоний.....	107
3. Теория трудовых песней.....	114
4. Теория песней на разные темы.....	118
IV. ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА.....	123
ЭКЗЕМПЛЯРЫ НОТ МУЗЫКАЛЬНЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ.....	135

CONTENT

1 CHAPTER. Uzbek folk music art	9
1. Uzbek folk musical art	9
2. Classification of Uzbek folklore art.....	13
3. Chanting of family ceremonies.....	18
4. Songs of seasonal ceremonies.....	26
5. Religious songs.....	31
6. Labor Songs.....	32
7. Songs on different themes.....	38
8. The Execution of Dastan.....	49
9. National art.....	56
10. Folklore and Ethnographic Ensembles.....	60
11. Uzbek national dances.....	63
2 CHAPTER Local methods of Uzbek folk music.....	69
1. Local methods and their essence.....	69
2. The essence of local methods of Uzbek folk music.....	74
3. Local methods Fergana-Tashkent.....	78
4. Local methods of Kharezm	84
5. Local methods of Bukhara-Samarkand	89
6. Local methods Surkhandarya-Kashkadarya	93
III Chapter. Musical and poetic foundations of Uzbek folk singing art.....	100
1. The Theory of Songs of Family Ceremonies	100
2. The theory of the songs of seasonal ceremonies	107
3. The theory of labor songs	114
4. Theory of songs on different topics	118
IV. USED LITERATURE	123
COPIES OF NOTES OF MUSICAL WORKS	135

SO'Z BOSHI

Mazkur qo'llanmada o'zbek xalq qo'shiqchilik ijodiyoti namunalari bir qadar tizimlashtirilgan bo'lib, ularning ichki tuzilish qonuniyatlari, xalq ma'naviy hayotida tutgan o'rnini ma'lum darajada o'rganilgan va tadbiq etilgan. Musiqashunos olimlar tomonidan mamlakatimiz xududi bo'ylab 1965-2010 yillar davomida uyushtirilgan musiqiy-folxlor ekspeditsiyalari natijalari, mahalliy aholi orasida amaliy "iste'mol"da bo'lgan qo'shiq va kuy namunalarini magnit tasmalariga yozib olinganli, ularning etnologiyasi va etnografiyasiga oid muhim ma'lumotlar ham o'rin olgan. SHuningdek, musiqiy folxlor ekspeditsiyasi jarayonida juda ko'plab, turli janrlardagi aytimlar mahalliy aholi bilan jonli muloqot jarayonida jamlanib, ularning tarixi, ijro vaziyati va ichki tuzilishiga doir holatlar aniqlangan. Pirovard natijada o'zbek xalq musiqasiga oid shu kungacha musiqashunoslik ilmida to'plangan ilmiy ma'lumotlar bilan bir qatorda noma'lum bo'lgan ayrim yangi janrlar ham o'rin olganligini ko'rish mumkin. Respublikadagi musiqa va qo'shiqchilik ijodiyotining o'zbek xalq musiqasidagi umumiy qonuniyatlariga muvofiq jihatlari bilan birga yana o'ziga xos, alohida ajralib turuvchi xususiyatlari ko'rsatib o'tilgan.

Mazkur o'quv qo'llanma Oliy ta'lim muassasalarining pedagogika sohasi bakalavriat bosqichi "Musiqa ta'limi" yo'nalishi talabalariga bag'ishlangan.

Mavzukur qo'llanmaning **birinchi bobi** mazmunida Respublika mahalliy qo'shiqlarini tasniflash masalasi muhohasa qilinadi. Bunda o'zbek musiqashunosligida (F.Karomatli) keng e'tirof qilingan tasniflash tamoyillari asosida musiqiy folxlor ekspeditsiyasi jarayonida to'plangan qo'shiq namunalari bir qadar tizimlashtirildi. SHulardan a'lohida e'tiborli va ilmiy tadqiqot uchun "yangilik" deya e'tirof etilganlari nota yozuviga ko'chirildi hamda yaratilish va ijro etilish shart-sharoitlari imkon doirasida yoritildi.

Ikkinchi bobda o'zbek xalq musiqasining mahalliy uslublari hamda uning o'ziga xos xususiyatlari musiqiy-she'riy asoslari tahlil qilingan. Ularning turlari, shakli, tuzilishi, kuy-ohang, parda tuzuklari, xususiyatlari va o'zaro bog'lanish qonuniyatlari bayon etilgan. Mazkur bobni yoritishda Fayzulla Muzaffarovich Karomatlining ko'p yillar davomida olib borgan tadqiqotlari, shuningdek, Farg'ona davlat universiteti professori Sultonali Mannopov, O'zDK professori R.Yunusovning o'quv qo'llanmalari asos bo'lib xizmat qildi.

Uchinchi bobda ilmiy tasnif etilgan oilaviy marosim, mehnat, mavsumiy va turli mavzuli qo'shiqlarning musiqiy-she'riy asoslari tahlil qilingan. Ularning tuzilish xususiyatlari va o'zaro bog'lanish qonuniyatlari xususida so'z yuritilgan.

ANNOTATSIYA

V etom rukovodstve byli sistematzirovaniy obraztsy narodnogo peniya Uzbekistana, i ix roly v duxovnoy jizni naroda izuchena i realizovana na praktike.

Музыкальные ученые зафиксировали результаты музыкальных и фольклорных экспедиций по всей стране в течение 1965-2010 годов, зафиксированные на магнитные ленты песни и песни в практическом «потреблении» среди местного населения и важную информацию об их этнографии.

Кроме того, во время музыкальной фольклорной экспедиции в процессе живого общения с местным населением было собрано большое количество разных жанров, выявлены их история, результаты и внутренняя структура.

Наконец, можно увидеть, что некоторые из новейших жанров узбекской народной музыки, а также научная информация, собранная в музыкальных науках, до сих пор неизвестны.

Музыкальное и песенное творчество Республики в соответствии с общими правилами узбекской народной музыки имеет более конкретную, отличительную особенность.

Этот учебник посвящен студентам бакалавриата «Музыкальное образование» по педагогике высших учебных заведений.

В содержании первого абзаца этого путеводителя рассматривается классификация местных песен в стране. Образцы песен, собранных во время музыкальной фольклорной экспедиции, были систематизированы в основу общепризнанных принципов классификации в узбекской музыке (Ф.Кароматли). Они были отмечены «новизной» за их замечательные и научные исследования, и условия их создания и исполнения были разработаны как можно больше.

Во второй главе были проанализированы музыкальные и поэтические основы узбекской народной музыки, проанализированы их особенности. Их типы, формы, структуры, мелодии, кривые, особенности и взаимосвязанные законы. В освещении этой главы основными учебниками были многие годы исследования Фаузиллы Музаффаровича Кароматли, а также профессора Ферганского государственного университета Маннопова и профессора УзАК Р. Юнусова.

В третьей главе рассматриваются классическая музыка, поэзия, музыкальные и поэтические основы песен, песен и сезонных песен. Обсуждаются их структурные особенности и их взаимодействие.

ANNOTATION

Samples of Uzbek national singing were systematized in this manual, and their role in the spiritual life of the people was studied and implemented in practice.

Musical scientists recorded the results of musical and folklore expeditions throughout the country during 1965-2010, recorded on the magnetic tapes of song and singing in practical "consumption" among the local population and important information about their ethnography.

In addition, during the musical folklore expedition, a large number of different genres were collected during the live dialogue with the local population, their history, results and internal structure were revealed. Finally, one can see that some of the newest genres of Uzbek folk music, as well as scientific information collected in the music sciences, are still unknown.

The musical and singing of the Republic's creativity in accordance with the general rules of Uzbek folk music has a more specific, distinctive feature. This textbook is dedicated to undergraduate students of "Musical Education" in pedagogy of higher educational institutions.

In the content of the first paragraph of this guidebook, the classification of local songs in the country is considered. Samples of songs collected during the musical folklore expedition were systematized into the basis of the generally recognized principles of classification in Uzbek music (F.Karomatli). They were marked "novelty" for their remarkable and scientific research, and the conditions for their creation and execution were developed as much as possible.

In the second chapter, the musical and poetic foundations of Uzbek folk music were analyzed, and their features analyzed. Their types, shapes, structures, melodies, curves, features and interrelated laws. In the coverage of this chapter, the main textbooks were the many years of research by Fayzulla Muzaffarovich Karomatli, as well as the professor of the Ferghana State University Mannopova and the professor of UzAC R. Yunusov.

The third chapter deals with classical music, poetry, musical and poetic foundations of songs, songs and seasonal songs. Their structural features and their interaction are discussed.

I-BOB. O'ZBEK XALQ QO'SHIQCHILIK IJODIYO'TI TASNIFI

O'zbek xalq musiqa ijodi tarixi

Yangi asr bo'sag'asida Mustaqil davlat maqomiga erishgan O'zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatida o'z o'rnini, nufuzli mavqega ega bo'ldi. Zero mamlakatimizda boshlangan demokratik yo'nalishdagi tub islohotlar ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, shu jumladan, ma'naviy hayotimizda ham yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Olib borilayotgan odilona siyosat natijasida ko'p asrlik milliy qadriyatlarimiz qad rostladi. "Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq", - deb yozadi O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov, - ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash Davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi"¹.

O'zbekiston Respublikasida Prezident SHavkat Mirziyoevning bevosita tashabbusi va rahbarligida qabul qilingan hamda izchil amalga oshirilayotgan 2017-2021 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalish bo'yicha harakatlar strategiyasi taraqqiyotning yangi bosqichini boshlab berdi. Bu jarayonning amaliy natijalari, belgi va xususiyatlari bugungi kunda xayotimizning barcha jabhalarida, eng muhimi, halqimizning ongu tafakkuri, intilish va harakatlarida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. SHu ma'noda, Harakatlar strategiyasi O'zbekistonni tez sur'atlar bilan o'zgarayotgan zamon talablari asosida jadal rivojlantirishning ilmiy-nazariy, amaliy-konstruktiv asoslarini belgilab beradigan, taraqqiyotning yangi davri uchun mo'ljallangan muhim dasturilamal, desak, ayni haqiqat bo'ladi. Harakatlar strategiyasining to'rtinchi yo'nalishida Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishining to'rtinchi va beshinchi bo'limlarida ta'lim va fan sohasini rivojlantirish: uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish, bolalarni bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, ularni musiqa va san'atga jalb qilish maqsadida bolalar musiqa va san'at maktablarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish va ulardan oqilona foydalanish masalalariga jiddiy e'tibor qaratish belgilab berilgan²ligi o'zbek xalq musiqa ijodini yanada rivojlantirish, bu borada samarali ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishni taqazo etmoqda.

¹ Каримов И.А. Миллий истиклол мафкураси – халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. Тошкент, Ўзбекистон. 2000 й. 32 б.

² "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида" Ўзбекистон Республикаси Президенти Фармони. 1-илова: "2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси". Халқ сўзи газетаси. 2017 йил 8 февраль сони ва Интернет ресурс: www.lex.uz.

O'zbek xalq musiqa merosini o'rganishni, nazarimizda, eng avvalo har bir mahalliy uslubning viloyat, tuman hududlarida qaror topgan qo'shiqchilik an'analari o'rganishdan boshlash asnosida juda ko'plab tadqiqotlar natijasida qo'lga kiritilgan qimmatli ma'lumotlarni bayon etish maqsadga muvofiqdir. Zero, shu tarzda jamlangan ma'lumotlar asosida Respublika o'zbek xalq musiqasining umumiy manzarasini ham tasavvur etish imkoni paydo bo'ladi. Bunda viloyatlar va tumanlarning geografik joylashgan o'rni, aholisi mehnat faoliyati, ijtimoiy hayoti, hayot tarzi va ularning bir-biriga o'zaro yaqinligi muhim o'rin egallaydi.

O'zbekiston Respublikasining barcha xududlari bo'ylab qariyb bir asrdan buyon musiqiy folklor ekspeditsiyasi uyushtirilishi natijasida aholidan juda qimmatli ma'lumotlar qo'lga kiritilishiga muvoffaq bo'lindi. Ekspeditsiya jarayonida mahalliy aholidan og'zaki nutq orqali olingan ma'lumotlar mavjud manbalarga qiyosan tahlil etildi. Ijrochilar haqidagi ma'lumotlar (tug'ilgan yili, joyi, millati, urug'i, ijro etilayotgan qo'shiqni kimdan va qachon, qaysi holatda eshitgan, oldin qanday aytilgan) ham to'plandi.

Davlatimiz tomonidan belgilangan aniq maqsadli amaliy tadbirlar Vatanimizning barcha xududlari madaniy hayotida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Xususan, 1998 yili Termiz shahrida ajdodlarimizning qahramonlik eposi - "Alpomish" dostoni yaratilganligining 1000 yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlandi, shuningdek, 2001 yil viloyatning Boysun tumani YuNESKO xalqaro tashkiloti tomonidan "Insoniyatning og'zaki va nomoddiy boyliklari durdonasi" sifatida e'tirof etildi. Endilikda Vatanimizda 2002-2005 yillarda va hatto shu kunlarda o'tkazib kelinayotgan "Boysun bahori" ochiq xalqaro folklor musiqa festivali o'tkazildi. Festival doirasida Boysun tumani xalq og'zaki ijodiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy anjumanlar tashkil etilib, mavzu doirasida O'zbekistonlik va xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlari bir qator eshitildi. Mustaqillikka erishilgan ilk dastlabki yillardan boshlab, Samarqandda "SHarq taronalari" xalqaro musiqa festivalining dovrug'i butun dunyoda tarqalib ulgurdi. Endilikda dunyo xalqlari "SHarq taronalari" xalqaro musiqa festivalini nafaqat ommaviy axborot vositalari orqali ko'rish, bilish, balki, uni o'z ko'zlari bilan ko'rib, eshitishni orzu qiladiganlar salmog'i anchagina. O'zbekiston mustaqil taraqqiyot yillarida tarixan qisqa davrni bosib o'tgan bo'lsa-da, xalqimiz o'tmishi juda uzoq asrlarga borib taqaladi. Buni ajdodlarimizning madaniy merosi misolida ham yaqqol ko'rish mumkin. SHu bois keyingi yillarda mamlakatimizda ana shu bebaho boylikni chuqur o'rganish, tadqiq etish va asrab-avaylashga davlatimiz tomonidan katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, istiqlol sharofati bilan SHashmaqom, Katta ashula, Boysun madaniy muhiti, Askiya, Navro'z insoniyatning nomoddiy madaniy merosi sifatida YuNESKOning Rerezentativ ro'yxatidan joy oldi.

O'zbekiston aholisi qadimgi davrlarda azaldan ko'chmanchi tarzda hayot kechirib kelgan (2.49; 2.84; 2.92; 2.108). Bu holat ularning musiqiy merosiga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. XX asrda sho'rolar tuzumi yuritgan "paxta yakka hokimligi" siyosati milliy qadriyatlari bilan sug'orilgan ko'pgina urf-odatlarni "diniy sarqit" deb qaralganligi natijasida ba'zi marosimlar o'zgargan holda davom etdi, ba'zilarini aholining hayot faoliyatida qo'llash esa umuman ta'qiqlandi. Istiqloq sharofati tufayli hozirda xalqning azaliy urf-odatlari, ko'p asrlik qadriyatlari, badiiy an'analari jadallik bilan qayta tiklandi va u o'zbek xalqining musiqiy merosiga bezak bo'lib xizmat qilmoqda.

Respublikamiz xududlarida rasm bo'lgan mahalliy aholi qo'shiqchilik ijodiyoti hozirga qadar musiqashunoslik nuqtai-nazaridan olimlar tomonidan juda ko'plab maxsus o'rganilgan. Respublika viloyatlarining turfa musiqa an'analari qo'shni mahalliy an'analarning bir-biri bilan umumlashtirilgan holda tavsif etib kelinganligini ko'rish mumkin (2.43; 2.49). "Holbuki, hozirgi davrda har bir milliy musiqani atroflicha o'rganish va bunda eng avvalo mahalliy badiiy an'analarni tadqiq etish masalasi kun tartibiga qo'yilgan. Zero, xuddi ana shunday tadqiqotlar pirovardida milliy musiqa qonuniyatlari haqida tasavurlar uzil-kesil shakllanadi" (4.10. 3-b.). SHu bois endilikda mamlakatimizning barcha xududlarini birma-bir kezib chiqib, aholidan qo'shiqchilik ijodiyotiga doir aytim³ namunalarini yozib olinib, ilmiy o'rganish masalasi davom etmoqda. Bunga misol tariqasida "Respublika musiqa an'analari" F.Karomatli, I.Rajabov, T.G'ofurbekov, O.Azimova, Il. Akbarov, O.Ibrohimov, "Farg'ona-Toshkent musiqa an'alari" R.Abdullaev, S.Bekmatov, Xorazm musiqa an'analari O.Matyoqubov, B.Matyoqubov, "Jizzax viloyati o'zbek xalq qo'shiqchili ijodiyoti" N.Toshtemirov, "Surxondaryo viloyati o'zbek xalq qo'shiqchilik ijodiyoti" Q.Panjiev, "Buxoro musiqa an'analari" G'.Xudoev, Qoraqalpoq musiqa an'analari X.Qurbonov kabi bir qator musiqashunos olimlar tomonidan o'rganilganligini ko'rish mumkin. SHuningdek, butun bir Respublika qo'shiqchilik ijodiyoti xususida uzil-kesil ilmiy tasavvur qilish borasida har bir viloyat kesimida doimiy ravishda ilmiy tadqiqot ishlarini bajarib borish talab qilindi. Qolaversa, ko'p asrlik boy madaniyatga ega o'zbek qo'shiqchilik an'analarni ilmiy yoritib berish asnosida ajdodlarimizning ma'naviy olami va ijodiy salohiyatini ham teran anglashga imkon yaratadi. Kelgusida esa bu kabi ilmiy izlanishlar o'zbek xalq qo'shiqchilik ijodiyoti yuzasidan nisbatan to'liq ilmiy manzara hosil qilishga hamda uni yaxlit milliy madaniy voqelik sifatida e'tiroflashga asos bo'lishi mumkin.

³ "Айтим" сўзи "қўшиқ"нинг маънодоши сифатида қўлланди. Тадқиқот мазмунида "қўшиқ" сўзи муסיқашуносликда қабул қилинган икки хил маъно (1-сўз ва куйнинг бирлашувидан ҳосил бўлган айтим намуналари, 2-банд шаклли айтим жанри)да келади (2.40; 2.98).

O'zbek xalq qo'shiqchiligi ijodiyotida yuzaga kelgan oilaviy marosim, mehnat, mavsum va turli mavzulardagi aytim namunalari tadqiqot ob'ekti sifatida e'tirof etiladi. Mazkur namunalar joylarda mahalliy aholidan yozib olingan musiqiy fol'klor aytimlari asosida tahlil qilingan. SHuningdek, har bir viloyat va tumanlarda faoliyat ko'rsatib kelayotgan fol'klor-etnografik ansamblarning ham "sahnaviy chiqishlari"da namoyon bo'layotgan "ikkilamchi fol'klor" tarzidagi namunalariga ham e'tibor qaratildi (2.40; 3.10). Ushbularni tadqiq etish jarayonida "qo'shiq" va "aytim" atamalari o'zaro ma'nodosh va poydevor asos tushunchalar sifatida keng qo'llaniladi (2.43).

O'zbek xalq musiqa ijodi yuzasidan tadqiq etilayotgan ushbu qo'llanmaning metodologik asoslari sifatida mavzu yuzasidan jamlangan barcha manbalar milliy Mustaqillik mafkurasi asosida baholandi, xalq qo'shiqchilik namunalari zamonaviy musiqashunoslikda shakllangan tizimli yondoshuv asosida tadqiq qilindi. Bunda o'zbek musiqashunoslari (F.Karomatli, I.Rajabov, T.G'ofurbekov, O.Azimova, II. Akbarov, R.Abdullaev, O.Ibrohimov, N.Toshtemirov, R.Yunusov, D.Mullajonov, Q.Panjiev va boshqa), hamda Mustaqil davlatlar hamdo'stligi olimlari (A.Alekseev, V.Gusev, I.Zemtsovskiy, T.Popova, A.Muxambetova, K.Dyushaliev, A.Nizomov, SH.Gulliev)ning xalq musiqa ijodiga doir tadqiqotlarida erishilgan ilmiy natijalari mazkur o'quv qo'llanmaning tayanch asoslarini tashkil etadi.

Mazkur o'quv qo'llanmada asosan xalq og'zaki ijodi orqali hozirgi kungacha "etib" kelgan qo'shiq namunalari o'rganilgan va tahlil etilgan. Tabiiyki, mazkur namunalardan tarixiy kelib chiqish ildizlari va tadrijiy rivojlanish bosqichlari ham katta ilmiy qiziqish uyg'otadi. Xususan, aytimlar orasida turli davrlarga mansub (toteizm, animizm, zardushtiylik kabi e'tiqod va boshqa marosimlar bilan bog'liq) xilma-xil qo'shiqlar uchraydi. Ularning tarixini aniqlashda mahalliy aholi keksa avlod vakillaridan olingan ma'lumotlar ham qimmatli hisoblanadi. Zero, mahalliy aholi tomonidan kuylanayotgan qo'shiqlar necha asrlardan buyon uzluksiz ravishda ajdoddan avlodga ma'naviy meros sifatida o'tib kelmoqda. SHu bilan birga fol'klorshunos, adabiyotshunos, tarixshunos va arxeolog olimlarning ayrim tadqiqotlari ham muhim ma'lumotlar manbai sifatida xizmat qildi.

O'zbek xalq musiqa ijodini o'rganishdagi dastlabki urinishlarni hurmatli olim, professor F.M.Karomatli tomonidan 1955-1956, 1958, 1961 yillari mazkur viloyatga uyushtirilgan musiqiy-fol'klor safarlari natijasida ko'rish mumkin. Jumladan, yig'ilgan cholg'u kuy va qo'shiq namunlari asosida «Uzbekskaya dombrovaya muzyka» va "O'zbek xalqining musiqa merosi" turkum nashrlari yuzaga keldi (2.52; 2,54; 2,55; 5,5; 6,7), viloyat musiqasi esa o'zbek milliy musiqasi tarkibini tashkil etgan to'rtta asosiy mahalliy uslub sifatida tavsif etildi (2,49). 2003 yil O'zR FA San'atshunoslik

instituti olimlari tomonidan o'lkamiz xalq san'atini majmualari o'rganish maqsadida qator ilmiy safarlar uyushtirildi. Tadqiqotlar davomida tumanning madaniy hayoti bilan bir qatorda musiqa an'analari ham bir qadar o'rganilib, uning dastlabki natijalari o'zbek, rus va ingliz tillarida ilmiy jamoatchilik hukmiga havola etildi. Biroq, bularning barchasi o'zbek xalq qo'shiqchilik ijodiyotini, uning boy musiqiy an'alarini o'rganish yo'lidagi ilk qadamlar.

Yuqorida zikr etilgan ilmiy tadqiqotlarda o'rganilayotgan qo'shiqlarning kuy, ohang asosi e'tibordan chetda qolgan, demakki, ohang va she'r munosabatlari bir qator keng yoritilganligini ko'rish mumkin. SHu bois mamalakatimiz hududlarining shahar va qishloqlarida istiqomat qilayotgan aholi ijodiyotida mavjud qo'shiqlar birma-bir ko'zdan kechirilib, ularning o'ziga xos jihatlari, kuy-ohang va she'riy tuzilmalari ilmiy o'rganish, bir-biriga solishtirilgan holda invariant aslini aniqlashga harakat qilish hamda shu asnodam o'zbek xalq qo'shiqchilik ijodiyoti va uning rivojlansh bosqichlari xususida uzil-kesil xulosalar qilib borish soha mutaxassislarini oldida katta vazifalarni yuklaydi.

O'zbek xalq qo'shiqchilik ijodi tasnifi

Musiqashunos olimlar o'zbek xalq musiqa ijodi namunalarini ijtimoiy hayotda tutgan o'rni va bajarayotgan vazifalariga ko'ra quyidagi ikki asosiy guruhga tasnif etadilar:

a) Ijro etilishi ma'lum sharoit va vaziyatlar bilan shartlangan kuy-qo'shiqlar (oilaviy, mavsumiy, mehnat);

b) Istalgan "vaziyat" yoki erkin mavzuli kuy-qo'shiqlar (qo'shiq, terma, lapar, yalla) (2.43; 2.49; 2.51; 2.54).

Bunda birinchi guruh mazmunini mehnat jarayoniga bog'liq aytimlar, oilaviy marosim, mavsumiy marosim va mehnat qo'shiqlari tashkil etsa, ikkinchi guruh tarkibi o'z ichiga qo'shiq, terma, lapar, yalla, ashula kabi aytimlarni oladi.

SHunday qilib, o'zbek xalq qo'shiqchilik ijodiyoti mahsulini ilmiy jihatdan tizimlashtirish masalasida musiqashunos olimlarimiz tomonidan ishlab chiqilgan ushbu tasnifot poydevor asos sifatida e'tirof etiladi. SHunga muvofiq tadqiq qilinayotgan qo'shiqlar ikki yirik bo'limga ajratilib, ulardan biri "ma'lum vaziyat bilan shartlangan qo'shiqlar (yoki qisqaroq qilib "ma'lum vaziyat aytimlari"), ikkinchisi esa "turli mavzuli qo'shiqlar" kabi iboralarda tasnif etiladi.

Tasnifimizdan joy olgan har bir aytim namunasida jamiyat taraqqiyotining ma'lum bosqichiga xos ijtimoiy hayot, urf – odat, an'ana,

ma'naviy qarash va qadriyatlar o'ta badiiy aks etgan. Demak-ki, xalq qo'shiqlarida muayyan muhit in'ikosini, turlicha vaziyat va sharoitlarga bevosita yoki bilvosita bog'liqligini ko'ramiz. Bu kabi holatlarni atroflicha anglash maqsadida tasnifimizda qayd etilgan har ikkala bo'limni alohida-alohida tasnif etish maqsadga muvofiqdir. Xalq qo'shiqlari ko'pqatlamli, purma'no, serjilo, ohangrabodir. Ma'lum vaziyat aytimlarini quyidagi guruhlarga ajartish mumkin:

1.Oilaviy marosim aytimlari (“Alla”, “Yor-yor”, “O'lan”, “Kelin salom”, “To'ylar muborak”, “Beshik to'yi”, “Muchal to'yi”, “To'ydir bugun yor-yor”, “To'y bugun”, “Muchal to'ying muborak”, “Beshik to'ying muborak”, “Omonliq – esonlik”, “Isiriq”, “Xush kelibsiz bolajon”, “Beshik bog'i”, “Elimda to'ylar bo'lsin”, “Kelin nidosi”, “O'ynang momo, o'ynang”, “Yo'qlov”, “Yig'i”, “Sadr”, “Ayriliq”, “Motam”).

2.Mehnat qo'shiqlari (“CHirey-chirey”, “To'ray-to'ray”, “Xo'sh-xo'sh”), “Arpa bug'doy pishibdi”, “Yozi”, “Oblo baraka”, “Oq sholi ko'k sholi”, “Xo'p mayda”, “Mayda-mayda”, “Guppi”, “Toba toshim”, “SHox moylar”, “Don septi”, “Havvor”, “Arpa bug'doy pishibdi-ya og'ajon”, “O'roqchilar qo'shig'i”, “Otboqar qo'shig'i”, “Urchug'im”, “Oshpaz qo'shig'i”, “Aranji”, “O'rmak qurdim”, “O'rmak”, “Kigizim”, “Temir bobom o'tovi”, “Qamish qo'lim kesmasin”, “Yorim to'ni”, “Jun taroqni tarayman”, “Do'ppi”, “Belbog”, “Tegirmon”).

3.Mavsumiy qo'shiqlar (“Jarchilar qo'shig'i”, “Navro'z”, “Navro'z ekan”, “Hoy bobo”, “Lolajon”, “Lolachaga ishim bor”, “Lolay sayli”, “Sumalak”, “O'yna lola”, “Do'st bo'lamiz lolacha”, “Boychechak chiqibdi”, “Boychechak”, “Turna keldi”, “Muborakbod”, “Yil boshi”, “Hamal”, “Halinchak”, “Laylak keldi, yoz bo'ldi”).

4.Diniy aytimlar (“Ramazon”, “Olloyorxonlik”, “Yassaviyxonlik”, “Folbin aytimlari”, “Darveshona aytimi”, “Duoxonlik”).

Ushbu aytim turlarning har birini to'liq tasavvur etishda avvalambor ilmiy tasnif uslublari muhim ahamiyat kasb etadi. SHu bois ham har bir aytim turlarini birma-bir quyidagi tartibda tasniflab o'tiladi.

Oilaviy marosim qo'shiqlari

Oilaviy marosim qo'shiqlari ko'p asrlar davomida shakllanib, turli davrda yashab kelgan mahalliy aholi ruhiyatidan oziqlangan holda bizgacha yetib kelgan. Mahalliy xalqning madaniy turmushida muhim ahamiyatga ega ijtimoiy va tabiiy hodisalar o'ziga xos urf hamda turli marosim shaklida nishonlanib kelinayotganligi mutaxassislar tomonidan qayd etilgan (2.14; 2.38; 2.43; 2.48).

SHu o'rinda eng avvalo marosim atamasi haqida ikki og'iz so'z. Mazkur atama aslida arab tilidagi “marsum” so'zidan iste'molga kirib kelgan bo'lib, “chizilgan”, “rasm qilingan”, “odat bo'lgan” degan ma'nolarni

anglatadi (2.66). “Marosim” so’zi, shuningdek, jamoatchilik ishtirokida o’tkaziladigan katta tadbir ma’nosini ham bildiradi.

Marosim qo’shiqlarining kelib chiqishi, mahalliy xususiyatlari, ijro shakli, maqsadi va vazifalari alohida-alohida tadbirlarga bog’liqdir. Ana shunday tadbirlarning aksariyati ko’p hollarda oilaviy sharoitda nishonlangan. SHuning uchun ham ular “oilaviy marosim”lar deb ataladi (2,14; 2,43; 2,48). Oilaviy marosimlarning eng zarur vazifalari qatorida avlodlarni milliy qadriyat, an’ana va ko’rkam odatlar asosida tarbiyalashni qayd etish mumkin. Bu hol o’z navbatida, mazkur vaziyat qo’shiqlarini ijro shakliga ko’ra qator tur va turkumlarga ajratishni taqozo etadi. SHunga ko’ra inson umri davomida unga hamrohlik qilib keluvchi oilaviy marosimlarni shartli ravishda yetti turga ajratish mumkin. Oilaviy marosimlarning yuqori saviyada o’tishida, albatta, ularda an’anaviy o’rin tutgan kuy va qo’shiqlarning ahamiyati benihoya kattadir. Xoh u to’y marosimi, xoh motam marosimi bo’lsin – unda ma’lum ko’rinishlardagi ohang (aytim) ifoda etilishi an’ana tusini olgan.

Alla⁴. Yangi – inson chaqaloq tug’ilishi bilan islom shariatiga ko’ra, yetti kun ichida unga ism qo’yilib, qulog’iga “Azon” aytiladi. CHaqaloq shu zayl ham musiqiy tovushni ilk bor eshitadi. Ismi bilan chaqirilganda (murojaatga) imo-harakatlar bilan tovush taralayotgan tomonga qaray boshlaydi. CHilla ((kichik (yigirma) va katta (yigirma))si qirq kun o’tgach, u turli tovushlar (gohida mayin, gohida keskin)ni seza boshlaydi. Ammo, uning tabiiy vaqt mezonlari ona siynasidan ozuqlanib, onaning his-hayajon xususiyatlari bolaga o’ta boshlaydi. Bola bezovtalansa, albatta, ona uni ovitish uchun mayin ovozda “Alla” aytadi. Ba’zan, ona o’zida ustuvor his-tuyg’uni bostirish uchun “Alla”ni kuylaydi. Bunda ovoz yurish diapazoni kvarta-kvinta oralig’ida bo’ladi. Viloyatlar bo’ylab olib borilgan musiqiy folьklor ekspeditsiya jarayonida “Alla”larning turli xil ijrolari qayd qilindi. SHunday qilib, allalar oilada chaqaloqni beshik yoki belanchakda uxlatish vaziyatida aytiladi. Alla aytuvchi ona, buvi, xola, amma yoki opa alla orqali o’zining ichki his tuyg’ularini ham bayon qiladi, ba’zan, sog’inch iztiroblarini ifoda etadi. SHu bois ularning allalarini she’riy mazmunida sog’inch, qo’msash, xotirlash kabi mavzularga ham o’rin beriladi. Bu xususiyatlar alla aytimlarining mahzun kuy-ohanglarida ham o’zini namoyon qiladi. Zero bunda ayollar folьklorining o’rni katta. Tarixiy manbalardan ma’lumki, bu hudud ayollari paranji o’rniga chakmon yopingan. Bu esa bola tarbiyasiga ijobiy ta’sir ko’rsatib, uni beshikka belashdan tortib, voyaga yetishda muhim ahamiyatga ega bo’lgan. Ona murg’ak chaqaloqqa o’zining bor his-tuyg’ularini “Alla” ohangi orqali singdirgan. “Alla”lar bolaning ruhiy yuksalishiga katta yordam bergan.

⁴ “Alla”ga doir quyidaagi adabiётlarга қаранг

АЛЛА

Ўргача

Тоқ - қа чиқ - дим дў - ла - на ал - ла - ё ал - ла

4

Кўш хўк - ки - зим жу - во - на - ё ал - ла - ё ал - ла

АЛЛА

Ўргача

Ал - ла де - сам ю - ра - гим э - зи ла - ди ал - ла

5

ум - рим ў - тиб бор - моқ - да - ей се - зи - ла - ди ал - ла

9

Ал - ла ай - тай жо - ним бо - лам ку - лок сол - гин ал - ла - ё

13

бир кун чи - киш тор - ла - ри у - зи - ла - ди ал - ла

SHu bilan birga o'zbek folklorida erkaklar allasi ham uchraydi. Ma'lumki, qadimda O'zbekiston aholisining ko'chmanchi tarzda yashaganligi, ularning turmush hayotini ba'zi sharoitlarga moslashishiga sabab bo'lgan. SHunonchi, ayollar beshikdagi chaqaloqni erlariga qoldirib, qo'shni ovulga mehmon yoki guring (suhbat) qilishga chiqishgan. Ular uzoq qolishi bois, beshikdagi chaqaloqni ovutish uchun erlar tomonidan "Erkaklar alla"si aytiladi.

АЛЛА (эркаклар алласи)

Ўргача

Чик - қан жо - йим чу - йин - чи мин - ган о - тим ў - йин - чи

3
Ўзбек ки - зи ул туғ - са чи - ро - ки дўппи сў - йинчи Ал - ла - я бо - лам о - пайин

6
ус - тин га кўр па ё - па - йин бир э - нангбор дар - ба дар қай - си уй - дан то - пайин

Farg'ona vodiysida ijro etiladigan allalar o'ziga xos doyra yoki o'zbek milliy cholg'u asboblar jo'rligida aniq ritm o'lchovida ijro etiladi. Hatto ayrim alla aytimlari shoirlar she'riga bastakorlar tomonidan kuy bastalangan holda ijro etilmoqda. Bu alla aytimini aholi orasida naqadar singib o'z o'rni va mavqeini egallaganligining yorqin isbotidir.

Beshik to'yi. Azal-azaldan quda-anda rishtalari farzand ko'rish bilan mustahkamlangan. Yangi mehmon tug'ilishi bilan yangi baxt, yangi orzu-umidlar qurilib, elu-ulus, qavmu-qarindoshlar hamjihatligida keng bayramona kayfiyatda, tantana qilinib, to'y marosimi tarzida o'tkazilgan. Bu tantana odatda xonadon sohiblarining o'zaro kelishuvlariga muvofiq chaqaloqning kichik yoki katta chillasi chiqqach o'tkaziladi. Mazkur marosim o'zining xarakter xususiyatiga ko'ra, "Beshik to'yi" marosimi deb ataladi. Ushbu marosim mamlakatimizning deyarli barcha xududlarida xonadon sohib va sohibalari tomonidan qavmu-qarindosh, urug' ishtirokida katta shodiyona tarzida o'tkazilishi an'ana tusiga kirgan. Biroq, viloyatlar kesimida o'ziga xos urf-odat va udumlar tarzida o'tkaziladi. Misol tariqasida Respublikamizning janubiy xududlari (Surxondaryo, Qashqadaryo) hamda Jizzax, Xorazm va Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro viloyatida "Beshik to'yi marosimi"ni o'tkazish uchun haftaning chorshanba yoki juma kuni tanlanadi va marosimning birinchi bosqichi tanlangan kunning tong saharidan to quyosh chiqqunga qadar ona bolasi (chaqalog'i) bilan uch-to'rt yoshi ulug' kishilar (asosan ayollar) hamrohligida muqaddas qadam jolar (buzruk, mozor)ga ziyoratga olib boriladi. Mazkur tashrifning asl mohiyati u yerda yotgan o'tmishdosh hazrat avliyo, alloma-i fuzalo hamda "Hazrati Hizr ko'rgan" deb e'tirof etilganlarga ushbu chaqaloqning har qanday falokat, musibat, kulfat, ofat, bemahal o'limdan saqlash maqsadida "boshi"ni atashdir. Ikkinchi bosqichda esa, xonadonga qaytilgach, chaqaloqni beshikka sola turib: "Egasi keldi! Hoy insu-jinslar, beshikdan chiqinglar-uuuv! Bu joy sizlarniki emas, balki bu joy (chaqaloqning ismini aytib), falonchinikidir!

deya, she'riy ifoda bilan xursandchilikda hayqiriladi. Beshikka belash mobaynida “Beshik to'ying muborak”, “Xush kelibsiz bolajon”, “Mehmondirmiz”, “Beshik bog'i” qo'shiqlari ishtirokchilar tomonidan ommaviy tarzda ijro etilib, o'yin-kulgi qilingan. Bu kabi qo'shiqlarning ovoz hajmi odatda kvarta-kvinta doirasida bo'ladi.

Respublikamiz bo'ylab yillar davomida olib borilgan musiqiy folklor ekspeditsiyasi davrida “Beshik to'yi” marosimi jarayonida ijro etiladigan, Respublika viloyatlarining janubiy hududlarida uchraydigan “Beshik to'ying muborak” nomli qo'shiqni Surxondaryo viloyati Tallimaron jamoa xo'jaligida bir guruh turli yoshdagi ayollar ijrosida kuylanganligi fikrimiz dalilidir. Eshmirzaev Ochil boboning nevarasini beshik to'yi munosabati bilan o'tkazilgan marosimda qishloq ayollari bilan bir qatorda ko'p bolali, farzandlari xalqning hurmatiga sazovor bo'lgan ayollar ham taklif qilinadi. CHaqqaloqni beshikka solish jarayonida kayvoni ayollar mahalliy xalqning urf-odatiga aylanib qolgan irim-sirimlar bilan bir qatorda qo'shiqlar kuylab o'yin-kulgi qilishadi. So'ngra “Beshik to'ying muborak” qo'shig'i ijro etadilar.

БЕШИК ТЎЙИНГ МУБОРАК

Тез

Бе - шик тў - йинг му - бо - рак кут - луғ ку - нинг му - бо - рак

5 шу - ги - на жо - ним шу жо - ним бўй - ни - да - ги мар - жо - ним

9 ху - до бер - са сиғ - син деб тол бе - шик - ка сол - син деб

Bola beshikka solinib belangandan keyin ayollar kichkina davra qurib bir-birlarini o'yinga tortadi. Qo'shiq asosan aytishuv shaklida davom etib, ishtirokchilar naqoratga jo'r bo'lib turishadi. Ijro davomida doyrada usuli jo'r bo'ladi. Azaldan momolar Respublikamiz hududlarida har xil marosimlar, bayramlar va xalq tantanalarining qiziqarli o'tishida asosiy “fayz kirituvchi”lar hisoblanganlar. Bu esa ularning kuy-qo'shiqlarida ham o'z aksini topgan. Jumladan, “O'ynang, momo, o'ynang” qo'shig'i sho'x va o'yinbob, aytishuv shaklida ijro etilgan. Naqoratida barcha ishtirokchilar jo'r bo'ladi (N-21). Albatta bu kabi o'zbek xalq ijodiyotining nodir an'alarini Respublikaning boshqa xududlarida ham o'ziga xos tarzda o'tkazilishini ko'rish mumkin.

Buxoro viloyatida chaqaloqni beshikka solish jarayonida isiriq tutatib, quyidagi she'riy matnni niyat qilib aytadilar.

Hazor ispant hazor dona

CHashmi pesh, chashmi xesh

So'zat dar olavi pez

Albatta bu kabi xalqimizning nodir an'analari O'zbekistonning har bir hududi har bir go'shasida o'ziga xos tarzda o'tkazilishi, uning tarixi, an'ana, urf-odat va qadriyatlarning naqadar buyukligidan dalolat beradi. Eng asosiysi ushbu marosimlarda o'ziga xos tarzda turli aytimlar kuylanadi.

Oyoq bog'lar marosimi. Xalqimizning azaliy qadriyatlaridan yana biri bu bolaning mustaqil ilk qadam qo'yish davrida o'tkazilgan oyoq bog'lar marosimidir. Ushbu marosim qadimgi davrlarda mamalakatimizning barcha xududlarida keng o'tkazilgan bo'lsada, bugungi kunda Surxondaryo, Qashqadaryo, Jizzax viloyatlarida hamda Qoraqalpog'iston Respublikasining qo'ng'irot urug'i aholisi vakillari orasida saqlanib qolganligini ko'rish mumkin. Ilk qadamni mustaqil qo'yayotgan bolani yaqin qarindosh-urug'laridan biri bolani tikka turgan holatida ikki oyog'ini belidagi bel bog'i yoki biror tanani qiymaydigan ip bilan yechish mumkin bo'lgan holatda bog'lab qo'ygan. Bola tik turgan holda yurishga qiynalib, yiqilishi mumkin bo'lgan. Bunday holda oila a'zolari bilan bir qatorda bir guruh yaqin qarindosh yoki qo'ni-qo'shnilar turli qo'shiqlar aytib, bolani atrofidan aylanib raqsga tushganlar. Agar bola oyog'idagi bog'liqni yechib ketsa, u holda mehmonlar tarqab ketgan. Aksincha oyog'idagi bog'liqni yecha olmasa, mezmon tomon bolaning oyog'idagi bog'liqni yechib, tadbir ishtirokchilarini uyga taklif qilgan va turli noz-ne'matlardan ziyofat berganlar.

Sunnat to'yi xalq orasida "xatna to'yi", "bolaning qo'lini halolash", ayrim hududlarda "jangala to'y" kabi iboralar bilan yuritilsa-da va u tong sahardan jarchilar chaqirig'i bilan boshlanadi. Jarchilar qadimdan ot minib, ayrim joylarda to'y bolani birga olib, o'z chaqiriqlarida "Ho'-falonchinikiga sunnat to'yiga-yo" deb xalqni "xabarlaganlar". Ayrim hollarda to'y egasining topshirig'iga ko'ra, 3-4 ovozdor erkaklar tanlanib, ularning har biriga qishloqlar bo'lib berilgan. Ba'zan esa, jarchiga to'y bolani birga olib yurish topshirilgan. To'yga taklif etilganlar o'z navbatida jarchilarga turli sovg'a-salomlar ulashishgan. Ular to'y bolani qutlovchi to'yonalarni to'y boshiga topshirganlar. Odatga ko'ra to'y bolalar 3-12 yoshigacha davrda sunnat qilingan. Sunnat to'yi marosimi ma'lum belgilangan vaqtda ikki bosqichda o'tkazilgan. Birinchi bosqichda baxshilar erta tongdan davra qurib, chorlov sifatida "Nima aytay", "Falonchinikiga to'yga keldim", "Dostonim bor meni", "Hur Vatan seniki", "Bu ko'hna dunyo", "Mehmondirmiz" kabi nasihatimiz termalar ijrosidan so'ng, "Alpomish" va "Go'ro'g'li" turkum dostonlaridan parchalarni ulab kuylashgan. SHu zaylda barcha yoru jo'ralar,

qarindosh-urug' va qo'ni- qo'shnilar ishtirokida katta bazm uyushtirilib, "To'ylar muborak", "To'ydir bugun yor-yor", "Hay yor-yor aylanay", "Yaqu-yaqu, yaqu-ya", "Kovushim", "Bilak uzuk", "Sunbo'lay", "Tanavvor", "Yallama yorim, yallola", "Muborak to'y" kabi qator xalq qo'shiqlari kuylangan. To'y egasining niyatiga binoan (to'y uchun yig'ib qo'yilgan (asragan) bisotidan sharoitiga qarab) "Ko'pkari-uloq", "Kurash", "CHillik" kabi ham musobaqalari uyushtirilgan. Unda nomdor chavandozlar, kuragi yerga tegmagan polvonlar o'zaro kuch sinashib, mahorat ko'rsatganlar. G'oliblarga sovrin sifatida ot, tuya, qo'chqor qo'y va boshqa qimmatbaho mukofotlar topshirilgan. Musobaqaga yig'ilganlarni xushnud etish uchun baxshi shoirlar terma-dostonlarni ijro etib turganlar.

Sunnat to'yining ikkinchi bosqichi xalqning duosini olgan, qo'li yengil, kasbdor ustaning "bolani qo'lini halolash" marosimi o'tkazilishi bilan boshlangan. Bu marosim erta tongdan "peshin" vaqtigacha muvofiq hisoblanib, bola sunnat qilingan. Marosim tugagach, to'y bolaga ota-ona va yaqinlaridan turli sovg'alar ulashilgan. SHu tariqa "sunnat to'yi" oilaviy marosim sifatida keng jamoatchilik ishtirokida nishonlangan.

Muchal to'yi. Buyuk alloma Abu Rayhon Beruniyning "Qonuni Mas'udiy" asarida muchal haqida shunday deyilgan: "SHarq ahli – xitoyliklar, turklar o'z yillarini 12 dan iborat davr tarzida tuzadilar va ularni hayvonlar nomi bilan ataydilar hamda ma'lum tartibda joylashtiradilar. Har bir yil ma'lum bir hayvon nomi bilan ataladi. Inson tug'ilgan yili qaysi vaqtga to'g'ri kelsa, shu yilgi nom bilan muchali nomlanadi"⁵ Ma'lumki, ajdodlarimiz qadimdan 12 hayvon nomi bilan (sichqon, sigir, yo'lbars, quyon, baliq, ilon, ot, qo'y, maymun, tovuq, it, to'ng'iz) atalgan yillar hisobini bir muchal deb, ushbu sanaga yetgan bolalarga bag'ishlab, muchal to'yi marosimini o'tkazganlar. Mana shu yillarning birida tug'ilgan bolaga o'sha yilning nomi berilib, u bolaga qaysi muchal yilida tug'ilganligi ma'lum qilingan. Har bir muchal 12 yilda bir marotaba aylanib keladi. Qadimgi davrlarda 13 yoshga kirgan bolani balog'at yoshiga yetgan deb hisoblab, kattalar qatoriga qo'shganlar va ularga oila qurishga ruxsat etilgan. Bu marosim esa xalq orasida katta shodiyona, tantana hisoblanib, to'ydek bazm sifatida nishonlangan. Respublikamizning ba'zi xududlarida muchal to'yi marosimi ikki bosqichda o'tkaziladi. Ajdodlarimiz chorshanba va juma kunlarini muqaddas bilganlari bois tanlangan kunda muchal yoshiga kirgan bolani avliyo va shayxlarning mozori buzruklariga ziyorat uchun olib borib, so'ngida Xudo yo'liga sog'lom hayvon (qo'y, echki)ni qurbonlik qilishgan. O'sha bolaning boshiga atab chiroqlar yoqib, aziz-avliyolarning ruhlariga "Xatmi Qur'on" tushurishgan. Ayrim, jumladan, Boysun tumanida "to'y bola"ga milliy urf-odatlar, an'ana va qadriyatlarga sodiqlik ruhiyatini

⁵ "Барҳаёт анъаналар" Саодатхон Йўлдошева, Тошкент 1999 йил, 4 бет.

shakllantirish uchun ziyoratgoh joylar (mazor)ga olib borib, o'tganlar haqlariga Qur'on tilovat qilingan. Bu holat muchal to'yi marosimining asosiy birinchi bosqichi bo'lib, uning ikkinchi bosqichi oilada o'tkazilgan. Muchal to'yida xonadonga yaqinlar, qo'ni-qo'shnilar va muchal to'yi yoshiga yetgan bolaning tengqurlari taklif qilingan. Qo'ylar so'yilib turli taomlar dasturxonga tortiq qilingan. Taom tannavulidan so'ng marosim ishtirokchilari bazm sababchisini davraga tortib muchal hayvonlari nomi bilan bog'liq "Muchal to'ying muborak" nomli qo'shiqni ijro etganlar.

МУЧАЛ ТҶЙИНГ ҚУТЛУҒ БЎЛСИН

Ўртача

Му - чал тў - йинг кут - луғ бўл - син ўн уч ё - шинг кут - луғ бўл - син

сич - қон - дай эп - чил бўл - гин бо - лам сич - қон - дай кўр - қоқ бўл - ма - гин.

Muchal hayvonlarining ijobiy tomoni nishonlanayotgan to'y bolaga nisbat qilib kuylansa, salbiy tomonlari qoralanib o'tilgan. Qo'shiqning kuy ohangi kichik tuzilmadan iborat bo'lib, turli yoshdagi ayol va erkaklar tomonidan aytishuv shaklida ijro etilgan. Mazkur marosimda turli hayvonlar nomidan to'ybolaga nisbat berilib har-xil aytimlar to'qilgan. "To'y bugun", "Muchal to'ying muborak", "Omonliq - esonlik", "Isiriq", "Qoraqosh", "O'smalarining" kabilar shular jumlasidandir. Mazkur marosimning azaldan avaylab asrab kelinishi mahalliy aholining o'z o'tmishi va bugungi kundagi qadriyatlariga sodiqligi bo'lsa ayni paytda milliy qadriyatlarimizning boqiyligidan dalolatdir. Muchal to'yi oilaviy marosim turkumiga xos tadbiridir.

Muchal to'yi marosimi butun O'zbekiston Respublikasining barcha xududlariga xos bo'lgan marosim. Albatta ushbu marosimni nishonlanishi va o'tkazilishi keyingi davrlarda bir qadar o'zgargan ya'ni, madaniylashgan holda o'tishini ko'rishimiz mumkin. Bugungi kunda muchal to'yi tadbirlari to'yxonalarda yoki bazm o'tkaziladigan maxsus joylarda o'tkazilmoqda. Biroq, uning eng go'zal bezagi bo'lmish ayrim urf-odatlar va udumlarsiz nishonlanmoqda. Nazarimizda har bir marosim o'zining madaniy, diniy, ijtimoiy tadbirlari bilan go'zaldir va ularni aynan asl xolatidek o'tkazish bu xalqimizning nodir qadriyatlari hisoblanadi.

Qiz ko'rish marosimi. Respublikamizning tog'li hududlarida qadimdan (hozirgi vaqtda ham) aholi ko'chmanchi tarzda yashab keladi. Qadimdan balog'at yoshiga yetgan o'smir yigitni uylantirish uchun albatta qo'shni ovul va qishloqlarga kelin tanlash uchun ovullararo "qiz ko'rish" marosimi o'tkazilgan. "Falonchi kishining bo'yi yetgan qizi bor" deb eshitgan momolar qizi bor uyga ilgariroq "xabarchi" yuborib, qiz ko'rishga borganlar. Bu haqda qiz (bo'lg'usi kelin)ga xabar berilmagan. Qiz mehmon kutish bilan band bo'lishiga qarmay, tashrif buyurgan momolar unga juda yaqindan munosabatda bo'lib, turli uy yumushlarini bajartirib sinovdan o'tkazganlar. Momolar bo'lg'usi kelindan ko'ngli to'lgach, har ikki tomon roziligidan so'ng "Ohuva" va boshqa qo'shiqlarni kuylab, xursandchilik qilganlar. Marosim qiz ko'rish nomi bilan atalgan. Hozirgi kunda ushbu odat zamonaviylashish tusiga kirgan. "Ohuva" qo'shig'i faqat qiz ko'rish marosimi muvafaqqiyatli yakun topganda kuylanadi (N-46, N-150).

О ҳува



Халгинчак учган о ҳу - ва ар - ча - миз - да о ҳу - ва



То кўриш гун - ча о ҳу - ва хуш денгиз - ла - р о ҳу - ва.

О ҳува



Ў-ра-лите-па ўй-рил-ди-ей о ҳу-вақўл-лар-гахи-на қў-йил-ди-ей о ҳу-ва Эт-ган э-линг



сар-кар-да-ей о ҳу - ва дар банд га бо - риб су - йил ди-ей о ҳу - ва О ҳу - ва,



о ҳу - ва о ҳу - ва - ей дар банд га бо - риб су - йил - ди - ей о - ҳу - ва.

Nikoh to'yi qo'shiqlari. Qadimgi davrlarda mamlakatimiz xududida yashovchi aholi orasida bo'yi yetgan qizi bor har bir xonadonga sovchi bo'lib boruvchilar albatta "Sovchi qo'shig'ini" bilishi shart bo'lgan. Sovchi xonadonga qo'shiqni aytib kirgan. Xonadon sohiblari qarindosh-urug'lari

bilan maslahatlashib, to'yga rozilik bergach "non sindirish" marosimi o'tkazilgan va shu kuni kuyovga kunda (g'o'la, daraxt tanasi) yordirib sinab ko'rilgan. Mana shu jarayonda "O'tin yorish" qo'shig'i kuylangan. Unashtiruvdan so'ng "Qiz kiyit", "Bezak iligi", "Kuyov kiyit" marosimlari o'tkazilgan. "Qiz kiyit" marosimida shu nom bilan bog'liq qo'shiq bo'lib, kuyov tomon qizga "seb" (har xil kiyim sarpolar) yuborgan. Bu qo'shiq yangalar tomonidan ijro etilgan. Ular kuyov yuborgan sarpolarini ko'zdan kechirganlar. "Bezak iligi" marosimida ham shu nom bilan bog'liq qo'shiq bo'lib o'ziga xos irm-sirmlar asosida o'tkazilgan. Bunda qizning tikkan (chevarligi) va to'qigan (hunarmandlikka oid gilam, do'ppi, tilla qosh va boshqa) narsalari namoyish qilingan. "Kuyov kiyit" marosimi ham o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lib, unda asosan kuyovni kiyintirish jarayoni aks etadi. Kuyov jo'ralari tomonidan turli qo'shiqlar ijro etilgan. Nikoh kuni esa kuyov kelinning uyida kelin bilan uchrashtirilgan. Ushbu jarayonda "Oyna ko'rsatish" marosimi amalga oshirilgan. Bunda kelin va kuyov birgalikda oynaga qaraydi. Kelin kuyovning uyiga kuzatilish jarayonida "O'lan" qo'shig'i ohista va og'ir tempda cho'zib kuylangan. Buning asosiy sababalaridan biri kelin o'zining qizlik uyi bilan va qolaversa qizlik ifati bilan xayrlashish oldidan ushbu aytim kuylangan. Kelin kuyovning uyiga qadam qo'yishi bilan esa sho'x "Yor-yor"lar raqsbob shaklida baralla ijro etilgan (N-6, N-7, N-9, N-11, N-22, N-33, N-48, N-49).

Bu marosimda mavzuga bevosita va bilvosita bog'liq qo'shiqlar ijro etiladi. Oilaning eng katta shodiyonasi hisoblangan mazkur to'y har bir viloyatlarda o'ziga xos shaklda o'tkaziladi. CHunonchi, kuyov tomonidan tayinlangan kuyov jo'ralari bilan oilaning yaqin qarindosh-urug'laridan iborat kichik guruh kelinni tushirib kelish maqsadida belgilangan vaqtda kelinning uyiga tashrif buyuradi. Manzilga yetgach kelin xonadonida sozandalar jo'rligida "Yor-yor" qo'shiqlari ijro etilib o'yin kulgi kilinadi. Mezbonlar bug'doy unini kuyovga hamroh bo'lib kelganlarning kaftiga irim sifatida sepadi. Bu marosim tugagach, kuyov jo'ralari va uning yaqin qarindoshlari uchun maxsus dasturxon tuzalgan xonalarga kiritib, ularni kelin yangalari "etti tovoq", "to'qqiz tovoq", Toshkent-Farg'ona mahalliy uslubida "to'qqiz tog'ora", "qirq tog'ora", "etmish tog'ora" bazan "to'qson tog'ora" deb atalgan aslida yetti xil, keyinchalik "aholi orasida kim o'zar"ga berilib turli xil taomlar bilan mehmon qilingan. SHu vaqtda kelin dugonalari uni kiyintirib, kuzatishga hozirlaydilar. To'yxonadan kelin - kuyov chiqib ketish arafasida "O'lan" aytimi, kuyovning xonadoniga borib yetganda "Yor-yor" qo'shiqlari ijro etiladi. Kelin yangi xonadonga kirib borgandan so'ng katta bazm uyushtirilib, unda "Elimda to'ylar bo'lsin", "Ohuva", "Yor-yor", "Qiz qochdi", "Yor jamoli". "Oyna ko'rsatish", "CHiroylik", "Qizgina", "Ayriliq", "Judolik", "Yangajon", "Yorim to'ni", "Kampir topaymi dadajon", "Hay yor-yor aylanay", "O zan-zan", "Ho-do'rsi", "Yaqu-yaqu, yaqu-ya",

“Kelgin yor o’ynaylik”, “Kelin nidosi” va boshqa shu kabi turli qo’shiq va aytishuvlar ijro etiladi. Bazmning ertasi ertalab kuyovning yaqin qarindoshlariga kelinni tanishtirish maqsadida “Kelin salam” marosimida to’y qilgan xonadon sohibi kelin tushurilgan kunning ertasi o’zining tetikligi va hali ham so’zi o’tkirligini, oila boshlig’i ekanligini isbotlash uchun belbog’ini yerga tashlab “Kim oladi-ya shuginani-ya” nomli qo’shiqni “qulli bo’sin” (qulliq bo’lsin)ga kelganlarni vaqtini xushlash uchun ijro etgan (2,80; 6,10; 2,61). Udumga ko’ra keng davrada qo’shiqni yoshu-qari jo’r bo’lib kuylab, avvalo yoshi ulug’ otaxonlarga belbog’ni olishga imkon berilgan. Belbog’ni olishda tizzalarni bukmay tishlab olish shart bo’lgan. Hozir ham “Kim oladi-ya, shuginani-ya” qo’shig’i ijro etilmoqda. Bu tantanadan so’ng “Kelin salam” marosimi ayollar tomonidan oilaviy marosim turkumidagi “Nikoh to’yi” inson hayotidagi eng mas’uliyatli va qadri tadbir sifatida nishonlanishi har bir viloyatga xos qadimiy an’analardandir. Nikoh o’qitish marosimi bazi xududlarda “ijob qilish”, “ijob o’qish” kabi iboralar bilan qo’llansada kelinning ota-onasi xonadonida ba’zi xuddlarda kuyovning uyida nikoh o’qish marosimi amalga oshirilib kelinadi.

O’tmishda yosh qizlarni faqatgina ota-onalarning roziligi bilan turli yoshdagi o’zlari ko’rmagan, bilmagan erkaklarga turmushga berganlar. Uzoq yurtlarga kelin bo’lib borgan qizlar kuyov uyidagi muhit va sharoitga ko’nika olmaganlar. Pirovardida ko’p qiyinchiliklar ko’rishgan. Bu holatlarni “taqdiri azal” deb bilib yashaganlar. Ota-onasini ko’rishni xohlasalar-da, biroq, buning imkoni bo’lmagan. Mana shu hayotiy ta’sirlanishlarni o’zlarining qo’shiqlariga solganlar. Ta’kidlab o’tilganidek, yosh kelinchaklarning sog’inch iztiroblari tushirilgan aytimlar aytilgan (N-111, N-134).

Xorazmda nikoh to’yi marosimlarida asosan xalfalar san’ati muhim rol o’ynaganligini ko’rish mumkin. Xalfalar “ichkari”ga xos ixcham diapazondagi past ovoz ko’lamida aytiladigan, faqat ayollargagina xos bo’lgan qo’shiq va ashulalar o’rin olgan. Bunda qudalar tomonidan to’yga ruxsat berilgandan keyin aytiladigan “Boring boshlang, o’nglar bo’lg’ay tuyingiz”, to’y boshlanishida “Muboraklar bo’lg’ay etgan to’yingiz” yoki kelin kelgandan keyin “Aylanaman kelinni qaddi bo’yinnan” va boshqa qo’shiqlar to’yning o’ziga xos rivojini belgilagan. Ayniqsa, qayroq bilan o’ynab aytiladigan lapar turi xalfa raqqosalariga juda xosdir.

Motam marosimi. Inson o’zi bilmagan holda hayotning turli achchiq-chuchuk sinovlarida yaxshi yomon kunlarida albatta musiqaga tayanadi va najot topadi. Respublikamizning barcha xududlarida yashovchi elat-urug’larda marhum vafoti kunida yoki marosimlarida og’ir judolikni, kuyunchaklik, achinish, mahalliy aholi tili bilan aytilganda “yig’lamaganni ham yig’latish” uchun maxsus go’yandachilar taklif qilingan. Ular turli yig’i-

sig'ilarni mungli, motamomuz shaklda nidoi faryod qilib, “Motam”, “Yig’i”, “Sadr” aytimlarini aytib yig’laganlar va shu tariqa ta’ziya ishtirokchilarini ham yig’latganlar. Bu marosim oilaviy turmush tarzining belgilanmagan vaqtda sodir bo’luvchi voqiylikning dalilidir. “Motam”, “Yig’i”, “Sadr” aytimlarini marhum qazosi kunidan to boshqa marakalari o’tgunga qadar maxsus “aytuvchi” ayol va erkaklar tomonidan aytilgan. Surxondaryo-Qashqadaryo mahalliy uslubiga xos motam marosim aytimini musiqashunos olimlar Ferederik Leotar va Qurbonniyoz Panjievlar tomonidan 1996-2010 yillarda tashkil etilgan musiqiy folklor ekspeditsiyasi jarayonida Boysun tumani Munchoq qishlog’ida yashovchi Gulandon Rahimova ijrosida magnit tasmasiga yozib olingan.

Йўқлов



Dafn va ta’ziya marosimlarida chuqur iztirobiy kechinmalarni tasalli sifatida hamdardlik ramzlarini ba’zan turli “marsiya”larni ijod eta oladigan malakali go’yandachilar taklif etiladi. Marhumni dafn qilish kuni “Sadr” marosimi o’tkaziladi. Agar marhumning ot ulovi bo’lsa, uni shu hovlida davra qurgan “Sadr”chilar o’rtasiga chiqaradi. Ot kishnab, hatto yig’lab, marosim ishtirokchilarini chuqur o’y kechinmalarga soladi. Oila a’zolari aza tutib, har turli “Yig’i”, “Ayriliq” va “Yo’qlov”lar g’amgin kayfiyatda aytadilar. Ayrim tumanlarda, xususan Muzrabotda dafn marosimalari marhumning yaqinlari taklif qilgan go’yandachilar ishtirokida o’tkaziladi. Go’yandachilar (o’z ixtiyori bilan ta’ziyaxonaga kelishi udumligidan o’sha xonadonda ham erkak ham ayol go’yandachilar bo’lishi mumkin) marhumning jinsi va yoshiga qarab, turli she’riy aytimlarni yig’i ovoz nolishida ijro etadilar. Aytimlar asosan yakka ovozda navbatma-navbat uzatuv tarzida aytilgan. Har bir misra oxirida marosim qatnashchilari o’zlarining mungli ovozlari bilan aytuvchilarning dardli nolalariga o’z tasdiqlovlarini izhor etib turishlari rusumga aylangan.

Mavsumiy qo’shiqlar

Mavsumiy qo’shiqlar – Respublikamiz xalq musiqa ijodiyotining salmoqli qismini tashkil etadi. To’g’ri, ayrim viloyatlar Farg’ona vodiysi, Buxoro, Samarqand, Xorazmda bu kabi qo’shiqlar salmog’i bir oz boshqa viloyatlarga nisbatan kamlikni tashkil etsada, biroq o’zining mazmun-mohiyati bilan ajralib turadi. Buning asosiy sabablaridan biri ushbu xududdlarda aholining kundalik turmush asosiy rol o’ynasada, ikkinchidan

ularning kun kechirish uchun shug'ullanayotgan mehnat turlari bilan bog'liqligidir.

Insoniyatning ko'p asrlik umri davomida yil fasllarining tutgan o'rnini benihoyat kattadir. Folklorshunos va musiqashunos olimlarimiz tomonidan yilning to'rt fasliga xos marosimlar o'tkazilganligi e'tirof etilgan (2.14; 2.43; 2.102). Bir vaqtlar Respublikamizdagi to'rtta mahalliy uslubiga xos tarzda an'ana tarzida qish faslida "Gap-gashtak", bahor faslida "Navro'z", "SHoxmoylar", "Sust xotin", "Darvesh oshi", yoz faslida "CHoy momo", kuz faslida "Oblo baraka", "SHamol chaqirish" kabi mavsumiy marosimlar o'tkazilgan (2.43).

"Gap-gashtak" marosimi ayrim xududlarda "gap", "gashtak", "gap-gashtak", "o'tirish", "tadbir", "choyxona", "somovar" kabi turli nomlar bilan atalib, bunda qadimdan ovullarda, urug'lar orasida erkaklar va ayollar alohida-alohida yig'ilib, tansiq taomlar tayyorlashgan, ko'ngil xushlik qilib qo'shiq-aytimlar ijro etishgan. Hududlarda asosan qish faslida gashtak va o'tirishlar ko'plab o'tkazilgan. Ayrim hollarda gashtak va o'tirishlarda turli bitimlar, kelishuvlar hal etilgan. Qish mavsumini ulug'lovchi qo'shiqlar asosan uzoq va kun bo'yi davom etadigan gap-gashtaklar, gurung va yig'inlarda avj olgan. Ushbu mavsumda "Qorbo'ron", "Qorxat", "Ko'k salla" va boshqa qator qo'shiqlar ijro etilib, aholi qish mavsumini o'ziga xos tarzda, har bir daqiqani g'animat bilan, undan oqilona foydalanishga harakat qilganligini ko'rish mumkin.

Huddi shunday, ushbu fikrlarga isbot tariqasida bahor mavsumiga xos qo'shiqlarni ham kiritish mumkin. Erta bahorda daraxtlar o'yg'onib, tollar kurtak chiqarganda "Tolbargak", dala gullari ochilganda "Gul o'yin", "Oq terakmi-ko'k terak" kabi o'yin va tadbirlarga ehtiyoj sezilib, aholi uni quvonch, shodi-xurram bilan kutib olgan. Ushbu fikrga "Boychechak chiqibdi", "Jarchilar qo'shig'i", "Sumalak", "Navro'z ekan", "Hoy bobo", "Lolajon", "Hey lola", "Lola sayli", "O'yna lola", "Lolachada ishim bor", "Do'st bo'lamiz lolacha", "Boychechak", "Turna keldi", "Muborakbod" "Yil boshi", "Hamal", "Navro'zi oy kelip-tu" "Darveshona", "Qo'sh haydash", "SHox moylar", "Halinchak" va boshqa shu kabi marosimlarni misol tariqasida keltirib o'tish joiz. Ayniqsa, yomg'ir yoqqanda "yomg'ir yog'aloq" qo'shiqlari bolalar tomonidan ijro etiladi. "Navro'z" – mamlakatimizda "yangi kun" deb nomlanib, nihoyatda ko'tarinkilik, shodiyona kun sifatida keng nishonlanadi. Ajdodlarimiz bahor oyi 21 martda tun va kunning tenglashishi va shu kundan kunning uzayishini, dehqonlarning dala yumushlarini boshlanishi, boychechakni ilk nish urib chiqishini, qishdan eson-omon chiqqanligi katta bayram sifatida erta tongdan jarchilar (qo'shig'i) chaqirig'i bilan boshlangan. Bahor faslining kelinchagi bo'lmish "Navro'z" bayramini nishonlash uchun asosan tog' yon bag'ridagi serdaraxt o'tloq joylar tanlanib, erkaklar, ayollar, bolalar uchun alohida-alohida joylar

tayinlangan. Jumladan, Balogʻat yoshiga yetgan qiz-juvonlarga daraxtzor joylar ajratilib, u yerda ular uchun halinchak (osiq argʻumchoq)lar tutilgan. Qizlar bayramni aʻlo kayfiyatda oʻtkazish uchun “Halinchak”, “Lola sayli”, “Oʻyna lola”, “Lolachaga ishim bor” kabi qator mavsumiy qoʻshiqlar, keksa bobo va momolarni koʻnglini xushnud etish uchun “Muborakbod” qoʻshigʻi kuylangan (2.80; 6.10; 2.43).

Yoz mavsumini ulugʻlovchi qoʻshiqlar ham oʻziga xosligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Yozning issiq jazirama kunlarida ekinlarga suv kerak. Lalmi maydonlarga ekilgan ekindan koʻproq hosil olish uchun yomgʻir chaqirish maqsadida butun qishloq ahli birgalikda “Sus-xotin”, “Talabi boron”, “Suv xotin”, “CHala xotin”, “Soʻz xotin”, “Sust xotin” kabi marosimlar oʻtkaziladi (2.14; 2.15; 2.43; 2.102). SHuningdek, “Yozi”, “Arpa bugʻdoy pishibdi”, “CHoy momo”, “Laylak keldi yoz boʻldi”, “Dehqon bobo” kabi marosimlar, oʻyinlar ham aynan yoz oylari ommalashadi va unda aholi ijro etiladigan kuy-qoʻshiqlarni maroq bilan kuylashadi.

“Sust xotin” marosimi qadimda ikki bosqichda amalga oshirilgan. Jumladan, oʻn-oʻn besh kishi kadi (ichi boʻsh qovoq)ga suv toʻldirib uni uzun gʻarov bilan bogʻlagan. Kadi koʻtargan kishilar suv oʻtmaydigan narsalar bilan yopinib, har bir xonadonga borib “Sust xotin” qoʻshigʻi (N-75, 2.80; 6.10; 2.43)ni aytgan. Qoʻshiqni eshitgan xonadon sohiblari bir chelak suv sepib, bisotidagi bor narsalardan ularga sovgʻa-salom ulashgan. Ayrimlar qoʻy-echki bergan. Marosimning ikkinchi qismi suvi qurib qolgan soylarda davom ettirilgan. Yigʻilgan xayriyalardan jonli qurbonlik qilinib, katta bazm uyushtirilgan. Dasturxon atrofiga taklif qilingan aholi turli taomlar bilan siylangan. Soy boʻyida bir guruh erkak va ayollar oq toshlarni bir-biriga urib, ishqagan, undan chiqqan uchqun tovushni yomgʻir oldi momaqaldiroq chaqmogʻi ramzi deb bilgan. SHundan soʻng “Sust xotin” qoʻshigʻini kuylab raqsga tushgan. 1980 yillarda Respublikamizda folklor-etnografik ansambllar faoliyatini yoʻlga qoʻyish va rivojlantirish borasida bir qator ishlarni amalga oshirilishiga muvofaq boʻlindi. Jumladan, birinchilardan boʻlib “Boysun” folklor etnografik ansambli xalqimizning qadimiy qoʻshiqlarini yigʻib, qayta tiklay boshladi. “Sust xotin” marosim qoʻshigʻi ham aholi orasida soʻrab-surishtirilib qayta tiklanigan “sahnaviy” koʻrinishda ijro etib, ushbu jarayonni qayta tiklashda oʻzining juda katta xizmatlarini koʻrsatdi. Xorazmda mavsumiy marosimning eng qadimgi davrlariga mansub kuy-ohang namunalari oʻz aksini topgan. Jumladan, bolalar (“Momom moshiydi”, “Aravachi mani doyim”, “Tuyalar, ho tuyalar” va b.) va mavsum marosim qoʻshiqlari (“Sust xotin”, “Ashsha daroz” va b.)da musiqaning ilk bosqichlariga oid dastlabki tuzilma va ohang alomatlari, boshlangʻich parda asoslari saqlanib qolgan. Yozgi marosimlar qatorida Namangan viloyatida rasm boʻlgan “CHoy momo” marosimini aytib oʻtish joiz. Qadimgi davrlarda choy momoni shamol ona deb ham ataganlar. CHunki yoz oyi oxirlarida

g'arq pishgan mevalarni shamolda to'kilishidan saqlashga undalgan holda marosim o'tkazilgan.

CHoy momo (shamol to'xtatish). CHoy momo tarixan CHuy momo, ya'ni SHamol momo obrazidan iborat bo'lib, u zardushtiylikning shamol tangrisi hisoblangan. Bu marosim quyidagicha o'tkazilgan. Ya'ni, ikki kampir eski kiyim va chopon kiyib, yuzlariga qora quya surtishib, qo'llariga aso ushlab oldinda CHoy momo qo'shig'ini aytib yurishgan. Bo'y yetib qolgan beshta qiz boshlariga sholcha yopib, kampirlar ortidan ergashib, qo'shiqqa jo'r bo'lib yurishgan. 7-8 yoshlardagi bir yoki bir necha o'g'il bolalar xurjun osilgan eshaklarga minishib, xonadonlardan xayr-sadaqalarni yig'ib yurishgan. Eshakka o'qlog', yumshoq supurgi va keli sopi sudratib qo'yilgan. Marosim tugagach, yig'ilgan xayr-sadaqa hisobiga shamol tangrisi sharafiga is chiqarilgan. CHoy momo marosimlari hozir Qozog'istonning Turkiston, Sayram atroflarida yashovchi o'zbeklar orasida saqlanib qolgan. Ma'lumki, Toshkent viloyatining Bekobod tumani, Surxondaryo viloyatining Termiz, Muzrabod, Angor, SHerabod, Jarqo'rg'on, tumanlarida yilning qariyb to'rt faslida ham Afg'oniston tomonidan juda kuchli shamol esib, bir sutka davom etadi. Ushbu xududda yashovchi mahalliy aholi tilida mazkur shamolni "afg'onshamol" deb, Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod, G'uzor, Qamashi, CHiroqchi tumanlarida Turkmaniston Respublikasi tomonidan esganligi uchun "turkmanshamol" deb nomlangan kuchli shamol esadi. Ushbu xududda yashovchi aholi tomonidan "CHoy momo" marosimi quyidagi tartibda o'tkazilgan. Ya'ni, xonaki hayvonlarni so'yadigan o'tkir pichoqni "kesadigan joyini" odamlar o'tmaydigan va shu xudud baland yerning shamol esadigan tomoniga bir zarb bilan qadab qo'yib, "CHoy momo"⁶ qo'shig'ini kuylagan. Mazkur marosim aytimi quyidagicha ijro etilgan:

Hoy choy momo, choy momo,
SHamol kuchini bos momo.
Kuchli shamol esganda,
Pichoq bilan kes momo.

Kuz fasliga oid qo'shiqlarda to'kin-sochinlik, qut-baraka, xosilning sarhisobi, xirmonga baraka tilash kabi mavzular asosiy o'ringa ko'tariladi. Hosilni yig'ishda "O'rim", oxirgi sholini o'rib olishda "Oblo baraka" marosimi qo'shiqlari kuylansa, sholini somonidan ajratib olishda "Oq sholi ko'k sholi", "SHamol chaqirish" marosimiga oid qo'shiqlar rasm bo'lgan.

⁶ "Чой момо" айтими 1999 йилда Музработ туманида уюштирилган муסיкий фольклор экспедицияси жараёнида 1941 йилда туғилган Жўраева Басанда ижросида ёзиб олинган. Миллати ўзбек, кенгаас уругига мансуб. 1974 йилларда Бойсун тумани, Мачай қишлоғидан кўчиб келган.

Don somondan ajratilayotganda “Xo’p mayda”, “Mayda-mayda” kabi qo’shiqlarni ijro etish an’ana tusiga kirgan.

Mavsumiy marosim qo’shiqlari o’zining xarakter xususiyatiga ko’ra, asosan tabiat hodisalariga yer, quyosh, oy, bulut, yomg’ir, qor chaqmoq, shamol, kamalak, havo, osmon va boshqa tabiat hodisalariga bag’ishlanadi. Ushbu xodisalar ta’sirida aholi orasida behisob afsonalar, qo’shiqlar, ertaklar, hikoyalar yaratilgan. O’zbek xalqining eng yaxshi orzulari suv bilan bog’langan. Ajdodlarimizning muqaddas kitobi “Avesto”da ham suv to’rt muqaddas unsurlardan biri sifatida talqin etiladi. Bular orasida yomg’ir alohida o’rin egallaydi. Yomg’ir yog’ganda odamlar ayniqsa, bolalar bosh yalang yomg’irda chopqillab yugirib, quvlashib o’ynaydi. Go’yo yomg’ir suvi ularning “sochlarini o’stiradi” niyatida turli qo’shiqlar to’qilgan va kuylangan:

Yomg’ir yog’aloq,
Echki tug’aloq.
Boyning o’g’lining,
Qorni yumaloq.

Mazkur qo’shiqni Respublikamiz viloyatlarida turlicha ko’rinishlari mavjudligini kuzatish mumkin. Jumladan, Namangan viloyati o’zbek xalq qo’shiqchilik ijodiyotida “boyning o’g’li” o’rnida “qizining” deyilsa, Farg’onada “qorni” o’rnida “og’zi yumaloq” deyiladi. Ba’zi viloyatlarda “Echki tug’aloq” so’zi “Echki sog’aloq” deb yuritiladi. Mazkur qo’shiq Toshkent shahri va Surxondaryo xududlarida quyidagicha ijro etiladi:

Yomg’ir yog’aloq,
Yam-yashil o’tloq.
Endi ekinlar,
CHIqarar quloq.

Bu albatta, bolalar shoirlarining zehnda qayta ishlanib, radio-televideniyada bolalar xori tomonidan ijro etilib, keyin bolalar og’zida ommalashib ketganligidir. Albatta, mazkur marosimlar aholining u yoki bu urf-odatlarini yaratilishiga sabab bo’ladi. Masalan, yomg’ir yoqqanda Farg’onada yosh qizlar “yomg’ir yog’! Sochim o’s!” deb qichqirsalar, Namanganda esa yomg’ir yog’ib turgan paytda birdaniga quyosh chiqib ketsa, osmonda turli xil rangda kamalak jilolanib paydo bo’ladi. SHu payt namanganlik qizlar sochlarini uchini ostonaga qo’yib, bolta bilan kesadilar va “sochim o’s! “sochim o’s!” deb qichqiradilar.

Diniy aytilar. O’zbek xalq musiqa ijodining yana bir o’ziga xos jihatlari albatta, o’z diniga e’tiqoti tufayli yaratilgan diniy aytilardir. Musiqashunos olimlar tomonidan diniy navolar⁷ deb e’tirof deb ham yuritiladi. Ushbu aytilar Respublikaning barcha xududlarida birdek

⁷ Иброхимов О. Ўзбек халқ мусиқа ижоди. Тошкент. 1994. 40 б.

uchraydi va uni aholi bajonidil ijro etadilar. To'g'ri keyingi davrlarda ushbu aytim bolalar tomonidan kuylanmoqda. Namangan viloyati o'zbek xalq qo'shiqchilik ijodiyotida ko'p uchraydigan mavsumiy qo'shiqlardan yana biri "Ramazon" atimlaridir. Ushbu aytim matni quyidagicha:

Ramazon, yo-ramazon! yo-ramazon!
Ramazon aytib keldik eshigingizga,
Xudoyim o'g'il bersin beshigingizga.
Yo-ramazon, yo-ramazon, yo-ramazon!
Tomingizni ketida oy ko'rdik,
Hammadan sizni boy ko'rdik.
Yo-ramazon, yo-ramazon, yo-ramazon!

Xatak qishlog'ida ham yuqoridagi marosim va an'analarda badashlar ijro etilgan. Misol uchun, yoz faslida o'tkaziladigan marosimlarda "Araz badash" chalinadi. "Angom" xuddi shunday marosimlar jumlasiga kirib, yozda quyosh tik turib zulga chiqqanda, eng uzoq kun va qisqa tun hamda harorat yuqori darajada ko'tarilib, suvga ehtiyoj ko'payganda - quyoshga bag'ishlab o'tkazilgan. "Araz badash" mana shu "Angom" marosimida ijro etilgan. Bunda ham dappchilar ikki guruhga bo'linib, qarama-qarshi tomondan chiqib kelishgan. Yonma-yon bo'lganda bir-birlarining dapplariga dapplarini qattiq urib, go'yoki quyosh o'z jaziramasini ayab sochib - muruvvat ko'rsatishini istab, o'z dapplari bilan yuzlarini pana qilib, yashirib o'tganlar (bu bilan ular quyoshdan noroziligini, u haddan tashqari qizdirib ekinlarga zarar yetkazayotganligini ifoda etganlar). "Araz badash" ham ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismi kirish, ya'ni muqaddima hisoblanadi. Kirish qismi 5/8 o'lchovda ikki takt ijro etilgandan so'ng kuyning asosiy qismiga o'tiladi. U esa 6/8 o'lchovda davom ettiriladi (N-153, N-154, N-155, N-156, N-157).

Mehnat qo'shiqlari

Mehnat bu – insonning nafaqat jismoniy, balki, ruhiy zo'riqishidir. U og'ir bo'lib kishidan mashaqqat talab etadi. Ana shu mashaqqatni kuy-qo'shiqlariga solib kuylash o'zbek xalqining mahalliy aholisining o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Azaldan bu xalq og'ir mehnatni yengib o'tishda ruhiy tetiklik va quvvat bag'ishlovchi qo'shiqlar to'qigan va kuylagan. Xalq qo'shiqchilik ijodiyotida yuzaga kelgan mehnat aytimlari musiqashunoslikda qayd etilgan uch turga bo'linish an'anasiga muvofiq tasnif eiladi (2.43):

1. CHorvadorlik qo'shiqlari;
2. Dehqonchilik qo'shiqlari;
3. Hunarmandlik qo'shiqlari.

CHorvadorlik qo'shiqlari. Ma'lumki, Respublikamizning ko'pgina geografik qiyofasi asosan baland tog', qir-adir va past-tekisliklardan iborat. Tabiiy iqlim sharoiti, muhiti aholining chorvachilik bilan mashg'ul bo'lishiga

yetalidir. SHu sababli ham aholi chorva bilan doimiy shug'ullanadi. Bu esa o'z navbatida mazkur mehnat turi bilan bog'liq qo'shiqlarning yaratilishi va ijro qilinishiga olib kelgan. Qo'shiqlar bevosita mehnat mazmun va mohiyatini ifoda etib, shu mehnat jarayonining mashaqqatlarini yengishga xizmat qiladi. Misol uchun "Xo'sh-xo'sh", "To'ray-to'ray", "CHirey-chirey" qo'shiqlarini fikrimizning dalili sifatida tahlil etamiz. "Xo'sh-xo'sh" qo'shig'i sigir sog'ish, sug'orish, uni ozuqlantirish vaqtida yupatish, ba'zan yovvosh bo'lmagan mollarni ovutish uchun ham ijro etiladi. Ayrim hududlarda sog'im paytida o'lgan buzoqning terisiga somon tiqib, sigirni oldiga tirik buzoq singari qo'yib "Xo'sh-xo'sh" qo'shig'i aytiladi. Qo'shiq ixcham doiradagi tertsiya oralig'ida kuylanadi (N-81, N-85, N-86, N-89, N-108). "To'ray – to'ray" qo'shig'i qo'ylarni dalalarga boqish, qo'yxonaga chorlash, sog'ish, qo'zisini emdirish vaqtida aytiladi. Bu qo'shiq oxista xirgoyi xonish qilinadi (N-108). Misol, "CHirey- chirey" qo'shig'i echkilarni sog'ish hamda chorlash vaqtida ijro etilsada, uning yana bir o'ziga xosligi endigina tug'ilgan uloqni ona echki "olmas" bo'lib qolganda yoki ona echki ko'zi yorib, nobud bo'lganda chorvador boshqa ona echki oldiga uloqchani olib kelgan vaqtda hissiy ohangda aytiladi. Aytim ta'sirida begona ona echki uloqni o'z bolasidek emizgan holatlari kuzatilgan. Echkiyar yo'qolganda esa cho'ponlar tomonidan tojik tilida "Buzakam" (echkijon, echkicham) qo'shig'i xorg'in kayfiyatda hirgoyi qilinadi. Bu qo'shiq echkining dikir-dikir sakrab o'ynoqiligi va yoqimtoyligini tasvirlash uchun ijod qilingan (N-101 2,80; 6,10). Viloyatlarning ayrim tumanlarida chorvodardlar hayotidan olingan va ilhomlantiradigan qo'shiqlar ham mavjud. "Otboqar qo'shig'i", "CHo'pon qo'shig'i" shular jumlasidandir (N-6.5; 6,10; 2,43). SHu o'rinda chorvoga ixtisoslashgan xudud chanqovuzchilari chorvaga oid "Tuya qaytarish", "CHo'pon kuyi", "Qo'zi ma'rash", "Qo'y boqish", "Echki sakrash" chanqovuz kuy-nag'malarni ijro etayotganini ta'kidlash joiz. SHuningdek, ayollar ijrosidagi "Gupi" qo'shig'ining musiqiy ritmik ta'sirchanligining o'ziga xosligi kishi diqqatini tortadi (N-80). An'anaga ko'ra sigir suti pishirilgandan so'ng ma'lum haroratda usti yopib, uytiladi (ivutiladi, uvutiladi). Qatiq holatiga kelgach, maxsus xaltalarga solinib, suvi ajratiladi va quyuqlashgach suzmaga aylanadi. "Suzma" ayrim viloyatlarning mahalliy aholi tilida "chakki" deyiladi. Uning yog'i maxsus idish - guppi⁸ yordamida ajratib olinadi. Qo'shiq mana shu jarayonda aytiladi. Qo'shiqning ritmi "guppi pishish" - yog'ni ajratib olishda foydalanadigan dastakning harakat (go'yo avtomobil motorining porshen ishlash uslubi) tezligidan olingan.

⁸ бўйи 1,5 метргача бўладиган диаметри 30-35 см келадиган одатда тут, тол, ўрик дарахти, кейинги даврларда алюмин металдан тайёрланган идиш. Унга бир, биру йигирма метр келадиган учида кўш боғламаси бўлган дастадан иборат қорийдиган дастак юқорида тилга олинган идиш билан кўшиб айтилганда тоғли худудларда яшовчи маҳаллий аҳоли тилида гуппи дейилган. Ушбу гуппиларда сузма (чакки, қатик)нинг ёғи ажратиб олинади.

Dehqonchilik mehnati turkumiga kiruvchi qo'shiqlar mehnat jarayonida shakllangan aytimlarning kattagina qismini tashkil etadi va umumiy nomda "Dehqonchilik qo'shiqlari" deb ataladi. Bu turkum aytimlari mamlakatimiz xududining deyarli barcha vohalarida, tumanlarida, go'shalarida uchraydi. Yer haydash mavsumi "SHox moylar" marosimi bilan boshlanadi. Dehqonchilikning ushbu marosimi nihoyatda quvnoq va ko'tarinkilik ruhda o'tkazilgan. Hozirgi kunda bu marosim to'liq o'tkazilmasa-da, milliy musiqiy qadriyat sifatida ayrim yurt tantanalari sharafiga bag'ishlangan tadbirlarda "SHox moylar" (qo'shchi) qo'shig'i ijro etilib kelinmoqda. Marosim bahorgi ilk dehqonchilik qo'sh haydash jarayoniga bag'ishlab o'tkazilgan. Unda aholi dalada to'planib, turli rangli libos yoki tasmali popuklar bilan bezatilgan qo'shga katta ho'kizlarni olib chiqib qo'shgan. O'tgan yilgi oxirgi bog'lam bug'doydan un qilib, non pishirgan hamda uni ishtirokchilarga ulashgan. So'ngra yurtning pokiza, nuroniy, dono bobo – momolaridan ikki nafari yog' solingan ikki kosani yurtning nufuzli oqsoqoli qo'liga tutganlar. Oqsoqol qo'lini yog'ga botirib, ho'kiz shoxini moylagan shu jarayonda "SHox moylar" qo'shig'i aytilgan, so'ngra eng keksa chol-bobo fotiha berib birinchi egatni tortishga ruxsat bergan. Qo'shchi qo'shni boshqarayotib "Qo'shchi qo'shig'i"ni aytgan (2.80; 6.10). Qo'shga yordam berib boruvchilar qo'shiqqa jo'r bo'lgan. Qo'shiq kuylanish xususiyati ko'tarinki kayfiyat bilan dalda berish maylida kuylanadi. Qo'shiqning she'riy matni va ritmik tasvirlanishi qo'shga qo'shilgan ho'kizlarning bir maromda ish harakat suratini susaytirmasligiga qaratilgan (2.43). Ushbu marosim Surxondaryo, Qashqadaryo, Jizzax, Sirdaryo, Navoiy viloyatlarida yoppasiga qo'sh haydash ishlarini boshlanishini anglatgan. Ekin yerlari shudgorlangach, "Don septi" marosimi o'tkazilgan. Marosim an'anasiga binoan uni mo'lko'lchilik ramzi sifatida ko'p farzandli, munis onaxonlar dastlabki urug'lik bug'doyni dalaga sepib, oq fotiha berish bilan boshlagan. SHundan so'ng marosimiy "Don septi" qo'shig'i ijro etilgan. Hosil yoz yoki ilk kuz fasl oylarida yetilgach, "Arpa bug'doy pishibdi", xirmondagi somondan donni ajratib olishda esa "Mayda", "Xo'p mayda", baland tog' yon-bag'ridagi dalalardan g'alla donini ot yoki eshakka yuklab, qishloqqa olib tushishda "Havvor" kabi dehqonchilikning mashaqatli mehnatini badiiy ifodalovchi qo'shiqlar to'qilgan va ijro etilgan (N-87, N-92, N-93, 2.80; 6.10).

Хаввор

Allegro moderato

Кўз тег-ма-син си-ё-ғинг-га ха-вор, ха-вор Тош тег-ма-син ту-ё-ғинг-га
ха-вор, ха-вор Ас-та, ас-та же-ба - ла ха-вор, ха-вор

O'zbek xalq musiqi ijodiyotida mehnat marosimi va unda ijro etiladigan turli tuman qo'shiqlar mavjud. Jumladan, don yetilgach, qishloq oqsoqollari dalaga borib, boshoqdagi donni qo'li bilan uvalab boshoqdagi bug'doy donini yeb ko'rgan. Ta'midan pishganligi anglangach bobo dehqon haqlariga atab, hosil maydonida jonlig'dan qurbonlik qilib, bo'lg'usi rizq-ro'z ne'mat uchun oq Fotiha berib, shu zaylda "O'roqchilar" marosimi o'tkazilgan. O'rim yig'im-terimiga kirishgan dehqonlar "O'roqchilar qo'shig'i"ni kuylagan. "Oblo baraka" marosimi ham mehnat marosimi hisoblanadi.

O'rim jarayonida ijro etiladigan "Arpa-bug'doy pishibdiya og'ajon" so'zlari bilan boshlanadigan o'roqchilar qo'shig'i, asosan kuz faslida tog'da lalmi yerlardan bug'doyni yig'im-terim vaqtida ijro etilgan (N-99). Xuddi shunday, "Xo'p mayda" qo'shig'ini Respublikamizning ko'pgina hududlarida uchratish mumkin. Ular bir-biridan ijro uslubi bilan farq qilmasada biroq, ritm jadallashganligi hamda o'yinboblighi bilan alohida ajralib turadi. Qo'shiq mehnat jarayoni bilan bog'liq bo'lsada, xalqning to'y marosimlari, "Navro'z" bayramlari va turli xalq sayillarida ijro etilib kelinmoqda. O'zining kuychanligi, o'yinboblighi bilan ancha ommalashib qolganligi sababli uning ritmik tuzilmasi aholining musiqiy xotirasida o'rnashib qolganligini ko'rish mumkin.

O'rib olingan g'allani yanchib donidan ajratish uchun alohida marosim o'tkazilgan. O'rilgan g'alla quyoshga yoyib quritilgan. So'ng xirmon etib tayinlangan joyga olib kelib (ot, eshak, ho'kkiz, sigir) hayvonlar tomonidan "galagov" qilib yanchilgan. SHu jarayonni ifodalovchi "Xo'p mayda", "Mayda-mayda" qo'shiqlari kuylangan (N-87, N-92, N-93). Galagov Boysun tumanining deyarli hamma hududlarida hozir ham o'tkaziladi. Qo'shiqning ritm va sur'ati galagovga qo'shilgan otning yurish harakat tezligidan olingan. Bugungi kunda ijro etilayotgan "Xo'p mayda" qo'shig'i xalq orasida keng ommalashgan.



“Havvor” qo’shig’i jamoaviy ijro bo’lib, tog’dan g’allani hovliga tashish yumushlarida ijro etiladi. Boshlovchi ijrochi yakkaxon qo’shiqning birinchi misrasini aytgach, ko’pchilik jamoa usulida “havvor” so’zi bilan jo’r bo’lgan. Kundalik hayotda kuylanuvchi “CHirey-CHirey”, “Turey-Turey”, “Xo’sh-Xo’sh”, “CHo’pon qo’shig’i”, “Otboqar qo’shig’i”ini hozirgi kunda ham ko’plab uchratish mumkin (N-81, N-85, N-86, N-89, N-108).

Hunarmandlik qo’shiqlari mehnat turlarining kashf qilinish jarayonida yuzaga kelgan. Bunday qo’shiqlar o’z mehnat turi va ish faoliyatiga ko’ra turli mavzularda yaratilgan. San’at darajasidagi gilam to’qish vohada aksariyat hollarda ayollarning asosiy hunarmandlik mehnat faoliyatlaridan biri hisoblanadi. Ayollar, paxtani chigitidan ajratishda aranji, ip qilib yigirishda urchuq, paxta va junni mayin xolatga keltirishda suba cho’p kabi ish qurollaridan keng foydalangan. Ushbu mehnat jarayonlari ma’lum vaqt talab etganligi bois “Aranji”, “Urchug’im”, “O’rmak qurdim”, “O’rmak” “Kigizim” va boshqa shu kabi turli qo’shiqlar to’qilib, ijro etilgan (N-84, N-90, N-97, N-100, N-105, 2.61). Kayvoni (ish bilarmon, mohir) ayollar yigirilgan paxta yoki jundan xonadonning o’zida gilam to’qish uchun qo’ni-qo’shnilar yordamida o’rmak o’rnatgan (qo’ygan) va to’qishni xonadon sohibasiga topshirgan. O’rmak to’qishda shu mehnat haqidagi qo’shiqlar ijro etilgan. Qora uy (kapa, o’tov)lar tikilayotganda “O’tov”, kapalar yonini to’sish uchun qamishdan yopinchiq tayyorlanib “Qamish qo’limni kesmasin”, “Temir bobom o’tovi”, charchoqni bostirish uchun “Aranji”, “Oshpaz qo’shig’i”, jundan kigiz tayyorlanayotganda “Kigizim” qo’shiqlari kuylangan. Bug’doyni un qilishda “Tegirmon” “Yorg’inchoq”, non yopishda “Toba toshim”, “Novvoychi”, temirchilik yumushlarida “Temirchi”, kashtachilikda “Yorim to’ni”, “Jun taroqni tarayman”, “Do’ppi”, “Belbog” qo’shiqlari ijod qilingan va ijro etilib kelinmoqda. Mazkur qo’shiqlar erkin ixtiyoriy ovoz diapazonlarida xirgoyi qilinib, primadan oktavagacha oraliqda kuylangan. Ularning she’riy matnlarida xalq og’zaki ijodidagi barmoq vazn o’lchovi ustvordir. Ma’lumki, Respublikamiz hududlarida mashaqatli

mehnatni aks ettiruvchi qo'shiqlar to'qilgan va kuylangan. Ular mehnatning mashaqatini o'zlarining kuy-ohanglariga solib qo'shiq qilib kuylab, o'yin-kulgilari bilan yengishgan. Bu jarayonda ham charchoqni bostirish uchun "Aranji" va boshqa shu kabi mehnatni aks ettiruvchi qo'shiqlar kuylangan. SHuningdek, "Urchug'im", "O'rmak qurdim", "Qamish qo'limni kesmasin", "Kigizim" va yakuniy qism yana suporish sifatida "Temir bobom o'tovi" bilan tugaydi. Hunarmandlik qo'shiqlaridan "O'rmak" aytimi Qorasuv jamoa xo'jaligida yaxshi saqlangan. Qo'shiq ijro uslubi ohista 4/4 o'lchovida, asosan o'rmak to'qish jarayoni bilan bog'liq holatda to'quvchi tomonidan kuylangan.

Темур бобом ўтови

Ай - ла бўл - син ў - то - вим тўй - лар бўл - син ў - то - вим
Жонги - роқлар куйиб бер - син ке - ча - сию биз - лар - га

Меҳ - мондан а - йир - ма - син Те - мур бо - бом ў - то - вим
Те - мур бо - бом тўй - бер - син су - яр ў - гил қиз - лар - га.

Ўрмак қурдим

Ўр - мак қур - дим боғ - лар - га ўр - мак ет - син тоғ - лар - га ў - то - вим тез - роқ бит - син биз чо - пай - лик

ўр - моқ - қа Қи - лич қоқ - дим ўр - мак - қа Қў - шик ай - тиб

бер - моқ - қа ў - то - вим тез - роқ бит - син биз чо - пай - лик йил - моқ - қа

Ma'lumki, ajdodlarimiz Sohibqiron Amir Temir siymosiga juda chuqur hurmat-ehtrom bilan qaraganlar va ul zotni o'zlarining turli xil marosimlari bilan bog'liq qo'shiqlarida bosh qahramon sifatida vasf qilganlar. Mehnat jarayonini ifodalovchi qo'shiqlarning o'ziga xosligini Qorasuv jamoa xo'jaligida tashkil etilgan "Badash" folklor etnografik jamoasi ijrosidagi "Temir bobom o'tovi" qo'shig'i ayni ajdodlarimizning

ijodiy mahsulidir. Qo'shiq mehnat jarayonida kuylangan bo'lsada, biror vaqtlar o'tishi va ijrochilarning o'z ichki imkoniyatlariga moslab kuylashi qo'shiqning kuy-ohangi va she'riy matniga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Qo'shiq 7 ta kichik-kichik qismlarga bo'lib kuylangan. Unda asosan mehnat ish qurollari, xalqimizning kapa uylari asosiy obekt sifatida tilga olingan. Qo'shiq aniq va turli o'lchovlarda ijro etilgan. Qo'shiqning boshlang'ich birinchi qismi "Temir bobom o'tovi" nomi bilan bog'liq bo'lib 4/4 o'lchovda ohista kuylanadi. Bunda asosiy diqqat Sohibqiron Amir Temirning o'tov bilan bog'liq holati aks ettirilgan. Qo'shiqning ikkinchi qismi "Aranji" mehnat quroli nomi bilan bog'liq. Aranjidan qadimda yengil sanoat uchun paxtani chigitidan ajratishda foydalanilgan. Ayollar ushbu mehnat anjomini 4-5 ta va undan ko'proq aranjilarni qator qilib paxtani chigitidan tozalashgan.

Jumladan, o'rmak, kigiz to'qish jarayonlari, chopon, qoriq tikish va boshqalar. Bu kabi hunarmandlik ishlarini bajarish ayollardan ko'p vaqt talab qiladi. SHu sababli, ushbu mehnat jarayonini boshlashda ma'lum marosim o'tkazilgan bo'lib, unga kayvoni, ish bilarmon ayollar taklif qilingan. Ular xush kayfiyatlik ruhini ifolash uchun maxsus qo'shiqlarni kuylashgan. Xuddi shunday tarzda xonish qo'shiqlardan "Yorim to'ni", "Jun taroqni tarayman" kabilarni ayollardan biri radif sifatida boshlab, aytishuv-mushoira shaklida ijro etishgan. Qolgan ishtirokchilar ohangga qo'shilib, o'z baytlarini aytgan (N-100).

Turli mavzuli qo'shiqlar

XX asarning oxirlariga kelib, sho'rolar iskanjasidan o'z haq-huquqi va erkini qo'lga olgan Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari orasida eng birinchilardan bo'lib, o'z Mustaqilligini e'lon qilgan O'zbekiston Respublikasi mamlakatda madaniy uyg'onish (rivojlanish)ning yangi davrini boshlab berdi. Barcha sohalarda bo'lgani kabi ayniqsa, musiqa, madaniyat va san'at sohasidagi tub islohotlar davlat, jamiyat va xalqning madaniy rivojlanishida ham o'ziga xos imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Butun Respublika bo'ylab, ilm-fan, ma'rifat va ta'lim tizimida katta-katta o'zgarishlar yuz berdi. Bir paytlar "eskilik sarqiti", "qashshoqlik belgisi", "zamondan orqaga qolib ketgan", "eskicha qarash" deb e'tirof etilgan va toptalgan madaniy qadriyatlarimiz qayta tiklandi va unga boshqacha ko'z bilan qarala boshlandi. Aslida ular umumbashariyat madaniy o'choqlaridan biri ekanligi, asl ijro, asl madaniyat bu – xalqning o'ziga xosligi ekanligi, uning madaniyatini naqadar buyuk ekanligidan, o'zining asl holatidek saqlanib kelayotganligidan dalolat ekanligi odamlar qalbi, ongi, g'ururiga borib yetdi. O'zbekiston xalqiga qilingan puch, yolg'on va'dalar aslida bu – millatni oyoq osti qilish, butun bir xalqni, millatni poydevoriga bolta urish bilan barobar ekanligini tushunib yetdik. Boshqa sohalarda bo'lgani kabi

Mustaqillik yillarida o'zbek qo'shiqchilik ijodiyotiga bo'lgan e'tibor va nazar tobora oshdi. Yangi-yangi ovozlari, ulug' ustozlarning ulug' tajribalari, maktablari ushbu sohada o'ziga xos yuksak ko'rinishlarini namoyon etdi. Ular tomonidan ijro etilgan an'anaviy qo'shiq, ashula va bastakorlik ijodiyotidagi musiqa asarlari tom ma'noda xalqning nomoddiy ma'naviy merosiga aylanib ulgurdi va u aholining qon-qoniga, ongi-shuuririga, butun qalbiga jo bo'ldi. An'anaviy qo'shiqlar va uning tarixi, ildizini o'rganar ekanmiz eng avvalo "an'ana", "an'anaviylik", "qo'shiq", "ashula", "katta ashula" "an'anaviy qo'shiq" tushunchalariga izoh berib o'tish lozim. Chunki, keyingi paytlarda ushbu tushunchalarni qo'llashda bir oz chalkashliklar bilan bayon etish holatlari uchramoqda.

An'ana tushunchasi "O'zbek tilining izohli lug'atida"⁹ "nasldan naslga o'tuvchi qoida", ya'ni, hayotda qaror topgan va topayotgan urf-odat, udum va boshqa amallarni an'ana tarzda takrorlanib kelishi deb e'tirof etiladi. An'anaviylik esa o'z-o'zidan ushbu jarayonni doimiy ravishda, yillar mobaynida o'ziga xos shaklda takrorlanib kelishi demakdir. SHu nuqtai nazardan biz tadqiq etayotgan an'anaviy qo'shiqlar ham hayotda, kundalik turmush tarzimizda qaror topgan va topayotgan urf-odat, udum va boshqa amallarni avlod-dan-avlodga yillar mobaynida o'tib kelishi va bu jarayonni doimiy ravishda takrorlanishidir. Yana ham oydinroq aytadigan bo'lsak, an'ana – avlod-dan-avlodga o'tib boradigan, odamlar va keng jamoatchilik tomonidan e'tirof etilib, doimiy o'tkaziladigan ijtimoiy axloq munosabatlarning umumlashgan norma va printsiplaridir. SHu o'rinda qo'shiq¹⁰ tushunchasi keng qo'llanilgan. Adabiyotlarda ko'rsatilishicha, qo'shiq atamasi "shlok", "takshut", "ir" (yir), "kug" kabi nomlar bilan qadimdan atalib kelgan. Dastlab, Mahmud Koshg'ariyning asarlarida "qoshug'" - qo'shiq, qasida, she'r tarzida atalib, so'zning ma'nosini sharhlashdagi to'rtlik ma'nosida ishlatiladi. An'anaviy qo'shiqlar haqida gap ketganda bu iboraga mutaxassislar fikriga tayanib xulosa chiqarish lozim bo'ladi. Atoqli musiqashunos olim R.Yunusov qo'shiq haqida ta'rif berib, musiqiy atama, iboralardan foydalanish amaliyotida tegishli nuqsonlar borligi haqida fikr bildirib shunday deydi – "kundalik muomilada tez-tez uchraydigan "qo'shiq" bilan "ashula"ni farqlamaslik, farqlay olmaslik ko'zga yaqqol tashlanadi"¹¹. Darhaqiqat ushbu fikrlar ayni haqiqat. Qo'shiq atamasi haqida ma'lumot berib o'tdik. Ashula bu bir oz qo'shiqqa nisbatan murakkab janr. Qo'shiqni kundalik hayotimizdagi turli toifadagi odamlar ijro etishlari mumkin. Biroq, ashula ijrochisi ma'lum tayyorgarlikdan o'tgan bo'lishi yoki ustoz saboqlarini olgan bo'lishi lozim.

⁹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 107 б.

¹⁰ "қўшиқ" сўзи муסיқашуносликда қабул қилинган икки хил маъно (1-сўз ва куйнинг бирлашувидан ҳосил бўлган айтим намуналари, 2-банд шакли айтим жанри).

¹¹ Юнусов Р. Анъанавий ўзбек муסיқа асослари". Маърузалар матни. Тошкент. 2000 й., 4 б.

O'zbekiston Respublikasi musiqa an'analari tarkibida qo'shiq janri alohida o'rin egalaydi. O'zbek qo'shiqchilik ijodiyotida yetakchilik qilayotgan ushbu turkumning qo'shiq, terma, lapar, yalla kabi janrlari mavjud. Qo'shiq - ovoz paychalarining undosh makonlaridan maxraj (tashqari)ga chiquvchi oraliq masofasidagi uyg'unlikni yanada yoqimli, talaffuz qoidasiga monand ohang yurgizishni ta'minlash va unga rioya qilish usul-uslubidir. Unda nutq tovushlarining ma'no anglatish borasida bo'g'inlarga ajralish va ajralishi sodir etilayotgan qisqa yoki cho'ziq unli tovushni keyingi so'zning birinchi bo'g'in boshlovchi undoshiga muqobil ravishda zamin hozirlashidan talaffuz etilmish ritmik cho'zim yoki tezlik aniqlanadi. Qo'shiqning matni xalq og'zaki ijodidagi barmoq vazn asosida to'rt (ba'zan uch) misradan tarkib topadi. Har bir misra 7-11 bo'g'indan iborat bo'lishi mumkin. Mazkur misraning ma'no anglatgan so'zlari keyingi misrada ikki barobar takroriy vazn muvofiqligida qo'fiyalanadi. Bu kabi turli qo'shiqlar izohda ko'rsatilgan shakl qurilmalari asosida ifodalanadi (2.38; 243). Qo'shiqlar ijro sharoitiga ko'ra vaqt, alohida rasmiyatchilik tanlamaydi. Ayrim qo'shiqlar lirik xususiyatlarga ega bo'ladi. CHunonchi, qo'shiqlarning she'riy matni kishining ichki ruhiy kechinmalari asosida qurilib, undagi his – tuyg'u, lirik kayfiyat qo'shiqning kuy-ohangraboligiga, tashqi muhit bilan o'zaro uyg'unlashishiga mazmun eltuvchi vazifani o'taydi. Bunda kuy-ohang bilan matn so'zlarining o'zaro ajralmas, yaxlit, bir butun ekanligi kuzatiladi. Bu tur qo'shiqlar tabiatan avjsiz bastalangan bo'lib, hamma uchun dil ishor etishga mosligi bilan xushdildir. Ayrim qo'shiqlar inson tafakkuridagi idrok etilgan voqeliklarni turli ko'ngil kechinmalar (tonal'noslar)da aniq, yoqimli, ta'sirchan, g'oyaviy, falsafiy mushohadalarga undaltiruvchi tarz ijrolarida o'rtacha avj diapazonida ijro etilishi kuzatiladi. Ovoz diapazoni bir oktava oralig'ida va kolorit (shiradorligi) ijrochi qo'shiqlarni o'z ijro mahorati, imkoniyati darajasida bemalol kuylashi, tinglovchini o'ziga tortadi. Va shu jihatlari bilan ushbu qo'shiqlar barcha uchun manzur bo'ladi. Vohada katta-kichik avjli ashula sifat qo'shiqlar ham uchrab turadi. Bu kabi qo'shiqlar mustaqillik yillarida ijod etilib, asosan "Vatan" mavzusida ega bo'ladi. Vatan haqidagi qo'shiqlar o'zbek qo'shiqchilik ijodiyotida munosib o'rin tutadi.

1996-2010 yillarda Surxondaryo viloyatining qo'shiqchilik ijodiyotini o'rganish yuzasidan musiqashunos olim Q.Panjiev hamda Frantsiyalik olim, doktor Feredrik Leotar tomonidan olib borilgan musiqiy folklor ekspeditsiya jarayonida Beshqo'ton jamoa xo'jaligida asli Boysunlik o'troq bo'lib qolgan bir guruh ayollar ijrosida hayvonlar tilidan (zarbul-masal shaklida) aytilgan qo'shiqni magnit tasmaiga yozib olishga muvoffaq bo'lgan. Uning matni quyidagi mazmunlarga yetaklaydi. Boysun bekligi davrida ziqna boylarga kambag'al dehqonlar yollanib ishlaganlar. Ular o'z xo'jayinlarining ziqnaligini o'zlariga ochiq-oydin aytishdan qo'rqib, hayvonlar nomidan ular haqida qo'shiq aytgan (N-95, N-104).

Buyuk Ipak Yo'li bo'ylab O'zbekiston xududidan o'tgan qishloqlarda karvonchilar qo'shig'ining turli shakllarini hozirgi kunga qadar saqlanib qolganligini kuzatish mumkin. Jumladan, Respublikamizning Janubiy xududida yashovchi Fayziev Ibrohim tomonidan aytilgan "Tuya qadam"¹² qo'shig'i dalil bo'la oladi.

Туя қадам кўшиғи

Нор ту-ям дўр-док ла-бинг сўй- лоқ- дир тиш - ла-ринг са-ни Ас - та ас -

- тайўл ю-риб ман- зил- га ет- каз - гин ма - ни шу- тир ба- ча- ман шу- тур ба- ча- ман

лаб- ла - рим бор- дур лаб ла- бан - ги Нор ту- ман дўр- док ла- бинг сўй- лоқ- дир тиш -

- ла-ринг са-ни Ас - та- ас - тайўл ю-риб ман- зил- га ет - каз - гин ма - ни

Ahmedova Qizlargul¹³ ijrosidagi "Do'stlarim ayb aylamang" qo'shig'i ayollarning dil yozar gurunlarida ijro etilgan (N-125). Qo'shiq ovoz ishlatish diapazoni bo'yicha shakl jihatdan kengroq, xissalar tartibi va miqdori bo'yicha aniq ritm o'lchovi asosida ijro qilinadi. "Ota-ona"lar haqidagi maxsus erkin mavzuli qo'shiqlar ham o'zgacha musiqiy ohangdorlikka ega (N-126, N-129). Ularning o'ziga xos tomoni shundaki, qo'shiq matnlari naqoratlar bilan hisoblanganda 20, 30 misrani tashkil etib, har bir misrani lozim nabziya (ritm o'lchovi)ga tushirilib, taktlarga bo'lingan. Har bir davrda kuy ohang ko'chirilishi kvarta, kvinta va seksta oraliqlarida bo'lishi ko'zga tashlanadi.

Erkin mavzuli qo'shiqlar keng o'rin olgan va asosan an'anaviy tusga ega bo'lganlaridan yana biri "Boysun uforisidir"dir. Bu qo'shiq qadimgi ajdodlarimiz ijodi bo'lib, asosan Buxoro Amirligi davrida Amir saroyida ijro etilgan (N-110). Boysun folklorining o'ziga xosligi – aholining raqsbob

¹² Темп жиҳатидан оғир, ашула йўлида ижро этилган кўшиқларни Бойсун аҳолиси "Туя қадам" кўшиқлар деб аташган. Қадимда карвончилар бир юртдан бошқа юртга ҳар хил юмуш билан қатнаб турган. Йўлдаги қийинчиликлар, туянинг хорғин юриши уларни оғир кўшиқ куйлашга мажбур қилган. Бу каби кўшиқлар оғир ритмда ижро этилиб, ўша ритм туяни босаётган қадамига мослаб олинган. Туя қадам босаётганда охиста, бироқ оғир қадам кўйиб, изи ерга ботади ва оёғини яна охиста алмаштиради. Бу ҳолат охисталик, оғир (секин) қадам, оёқ изини ерга ботиши ва яна оёғни охиста алмаштирилиш меъёр ритмик ҳолати оғир мумтоз сифат ашулаларни ижро этилишини таъминлаган. Кексайиб қолган авлод вакиллари хотирасида сақалниб қолган бу каби ашулалар ҳар хил тўй маракаларда, халқ сайларида ва гурунларда оғиздан оғизга ўтиб "Туя қадам" кўшиқлари деб номланиб кетилган.

¹³ Ахмедова Қизларгул 1941 йилда Шеробод туманида туғилган. Миллати ўзбек, қатағон уруғига мансуб.

kuylari mavjudligidir. “Duchava”, “Mavrigi” kuylari shular jumlasidandir. “Duchava” kuyi ikki yog’och bo’lagini qo’lga olib, urishtirib o’ynaladigan qadimiy raqs. Qadimda bu kuyga ikki kishi qilich bilan raqsga tushgan. Raqsga tushish xuquqi faqatgina jang maydonida o’zini ko’rsatgan botirlarga berilgan. “Mavrigi” kuyi ham juda tarixiy bo’lib arablar Markaziy Osiyoni iste’lo qilgan davrda paydo bo’lgan (2,80; 6,10; 2,43; 2,61). Kuydagi raqs harakatlarida arab raqslariga xos elementlar mavjud. “Mavrigi” arabcha so’z bo’lib – daryo ortidagi yerlik raqs degan ma’noni beradi. Bu ijodiyotning o’ziga xos yuqori shakli Buxoro viloyati musiqa an’analarida uchratish mumkin. “Oxo chu-chu baka-bak”, “Huy-ya, huy-ya, huya-huy”, “Haya-haya kishtala pisht” va boshqa shu kabi qo’shiqlarda qadimgi Surxondaryo-Qashqadaryo shevasiga xos lug’at atamalarini uchratish mumkin (N-123, N-130). Erkin mavzuli “Huy-ya, huy-ya, huya-huy” qo’shig’i, odatda oilaviy marosimlarda ijro etilgan. “Xaya-xaya kishtala pisht” qo’shig’ida qo’ng’irot urug’ining urf-odatlarini mujassam etuvchi jihatlar namoyon bo’ladi. Balog’at yoshiga yetgan qizlar haqidagi qo’shiqlar odatga ko’ra, tengqur qiz-juvonlar davrasida ijro etilgan. “Tom ustida tosh otdim” qo’shig’i qadimda uzoq yurtlarga savdogarlik va boshqa yumushlar bilan safar qilib, uyoqlardan qaytmagan farzand sog’inch-iztiroblar o’kinchlari haqida bo’lib, onalar kuylagan. Qo’shiq asosan faqatgina oilada yoki ayollar gurung va gap-gashtaklarida ijro etilgan. Qadimdan Respublikamizning tog’li xududlarida ovullararo kelin tanlash “qiz ko’rish” marosimi o’tkazilib, unda “Ohuva” qo’shig’i kuylangan. “Falonchi kishining bo’yi yetgan qizi bor” deb eshitgan momolar qizi bor uyga ilgariroq “xabarchi” yuborib, qiz ko’rishga borganlar. Har ikki tomon roziligidan so’ng “Ohuva” va boshqa qo’shiqlar kuylanib, xursandchilik qilingan.

Terma – aytimning o’ziga xos turi bo’lib, inson hayotida xotirlangan his-tuyg’ularga moyilik beruvchi mavzular bilan ijod qilingan musiqiy asar. Lug’aviy ma’nosi “yig’moq,” tanlamoq”, “saralab olmoq” (2.43,-47; 2.59), “saralab aytmoq”, “terib aytmoq”, “terib kuylamoq” tushunchalarini anglatadi. Respublikamiz mahalliy qo’shiqchilik ijodiyotida termalarning ikki turi uchraydi. Birinchi turi shoir-baxshi termasi, ikkinchi turi xalq aytim termalari. Baxshichilik maktabi – o’zbek musiqa merosining ajralmas qismi sifatida e’tirof etiladi (2.2; 2,43; 2,70; 2,64; 2,67). SHoir-baxshilar, ovoz va do’mbira kuy-ohangini sozlash maqsadida an’anaviy doston ijrosidan oldin katta - kichik hajmdagi mardlik, botirlik, jasurlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, insoniylik g’oyalarni aks ettiruvchi nasihatimiz “Botirlik maydonda sinaladi”, savol tariqasidagi “Nima aytay”, “Xush ko’rdik”, Vatan hiqida “Vatanim”, “Aylanayin”, “Tuprog’ingni ko’zga surtay” kabi terma kuylash an’ana bo’lgan. Yirik an’anaviy va aholi orasida variantlashgan “Alpomish” dostoni parchalaridan olingan “Yoy-yoy” termasi O’zbekiston xududida an’ana tusiga kirgan katta hajmdagi termalardan biri hisoblanadi.

Keyingi davrlarda termalarning o'ziga xos turlari rivojlanmoqda. "Mehmondirmiz" nomli an'anaviy terma shular jumlasidandir. Ushbu terma ko'plab shoir-baxshilar ijrosida kuylansa-da, biroq, undagi kuy-ohang asosi (poydevori) saqlanganligi, matn va ijro mahorati har bir baxshining o'ziga xos uslubi va qobiliyatiga bog'liq holda ijro etilganligi kuzatiladi. SHoir - baxshilar terma ijro etayotganda matn so'zlarini mohirlik bilan topib, davraga moslab kuylaydi. Bu kabi termalarning o'ziga xos xususiyati aytim matnlarining ko'p misralardan iboratligi hamda ijro davomida 7-11 barmoq vazn o'lchovlarida o'zgarib turishidir. SHunday termalardan "Nima aytay", "Xush ko'rdik", "Vatanim", "Aylanayin", "Tuprg'ingni ko'zga surtay", "Yoy-yoy" alla termalari, "Hur vatan seniki" kabi bir qatorlarini aytish mumkin.

Xalq aytim termalari hayotiy voqelikni aks ettiruvchi musiqiy ijodiyot bo'lib, erkak va ayollarning o'ziga xos ijrosi mavjud. Aytim matn bandlari 10 va undan ziyod baytdan iborat bo'lgan termalarda bir g'oyaning bosh g'oya sifatida e'tirof etilishi, shu g'oya atrofida ijtimoiy voqelik ta'rifi berilib, tasodifiy yoki termachi o'ylagan o'y-xayol va ichki insoniy kechinmalar ifodasini yengil, hajvomuzona tarzda so'z o'yini olib boriladi. Xalq aytim termalari musiqa cholg'ularisiz, ba'zan, doyra jo'rligida, aniq ritm o'lchovi asosida, naqoratsiz, avjsiz, kvarta-kvinta oralig'ida kuylanadi. Termalarda mujassam bo'lgan musiqiy ijodiyotning barcha tur yo'nalishlari bu uslubning nechog'lik xalqchilligini hamda milliy qadriyat sifatida ardoqlanishini yorqin ifodasidir. Termalarning o'ziga xos yana bir ko'rinishi "Alla" mazmundagi terma aytimlarning ijrosidir. Bu kabi terma ko'rinishdagi "Alla" aytimlari oilaviy marosimda kuylansa-da, ma'no va mazmun jihatidan u terma janriga tortib ketadi.

Алла

Ал - ла ал - ла - ё ал - ла, Ал - ла ай - тай бо - лам - га - ё ал - ла - ё ал - ла
 боғ - лар - да - ги ло - лам - га - ё ал - ла - ё ал - ла, Ло - ла гу - лим сўл - ма - си - но ал - ла
 ё ал - ла бо - ла - жон - лар ўл - ма - си - но ал - ла - ё ал - ла,

Lapar atamasi haqida ko'plab ma'lumotlar keltirilgan Lapar ikki yoki undan ortiq ijrochi tomonidan navbatma-navbat aytiladigan hayotiy voqealarni ifodalovchi kayfiyatga ega bo'lgan raqsga tushib ijro etiladigan

aytimdir (2,43; 2,54; 2,55; 2,102). An'anaga ko'ra ko'proq yigit va qiz ijrosida laparlar to'y marosimlarda, aholining bayram tadbirlarida aytiladi. O'zbek musiqa ijodiyotida yuqoridagilar bilan bir qatorda "qiz va qiz", "checha va qiz" aytishuv laparlari uchraydi. Bunday aytishuvlar asosan to'y nikoh to'y marosimlarida bo'yi yetgan qizlar va bir uyda yashayotgan qiz va uning chechasi bilan aytishuv tarzidagi laparlar cholg'ular jo'rligida kuylangan. Laparlarning she'riy mazmunidan, ularning hazil mutoyibali, piching aralash sevgi-muhabbat, balog'at yoshiga xos yengil hazil aralash savol va javob xususiyatlari tilga olinib o'tiladi. Laparning kuy-ohang aytim tuzilmasi masruriy kayfiyatda bo'lishi bilan birga, viloyatlar, tuman va qishloqli hududlarda erkin mavzuli qo'shiqlar ham keng o'rin olgan. Surxondaryo viloyatning Rayim Bo'riev jamoa xo'jaligida yashovchi Saidova Tursunoy **doyra badashlari** ijrosidagi "Lapar" yigit-qizlarning kelin to'ylarida bir-biriga hazil mutoyiba tarzida, o'yinga tushib kuylangan. Misol tariqasida "Qiz va qiz", "Checha va qiz", "Yigit va qiz" aytish mumkin.

Yalla – janri o'zbek milliy qo'shiqchilik ijodiyoti an'anasiga xosligi, raqsbobligi, ijrochi ham kuylab, ham raqsga tushishi xarakter egaligi bilan ajralib turadi. Ushbu yalla ayrimlari Toshkent-Farg'ona mahalliy uslubida keng tarqalganligi bilan ajralib tursada, asosan to'y-tomosha, xalq bayram va sayllarida (N-112), ayrimlari esa nikoh to'ylarida (N-135) kuylanib, xarakter mazmuniga ko'ra lirik qo'shiq yoki aytimlar shaklida bo'ladi (N-118). "Hay-hay uka, uka" ishqiy (muhabbat) mavzudagi "Yalla" aynan ufori ohangida ijro etilgan (N-114). "Hay yor-yor aylanay" nomli lirik qo'shiq chegaradosh tumanlarda bo'lgani kabi olis qishloqlar to'y marosimlarida ayollar ijrosida kuylanadi (N-47). Xalq orasida faqatgina ayollarga hos bo'lgan "Doyra badashlari" qadimiy marosimlardan biri sifatida qisman saqlanib qolgan. Mazkur marosim Surxondaryo viloyatining SHERobod, Angor, Muzrabot va Boysun tumanlarida uchraydi. Badashlarni mahalliy aholi doirada chalinadigan usullar, ohanglar deb tushunadi. Diqqat e'tiborimizni o'zida tortgan doyra badashlari mavsumiy marosimlarda, to'y marosimlarida, turli bayram tantanalarida ijro etiladi. Badashlarning yana bir o'ziga xos xususiyati shunda-ki, u xalqimizning yashash tarzi asosida yuzaga kelgan bo'lib o'zlarining turli xarakter xususiyatlari bilan izohlanadi. Ya'ni, raqs va teatr san'ati bilan o'zaro bog'liq holda rivojlangan. Ijroda mahalliy dapp cholg'usi ishlatilib baъzan angishvona, qoshiq va sopol idishlardan jo'rnavoz sifatida foydalanilgan. Misol tariqasida "Hay-hay uka, uka", "Hay yor-yor aylanay", "Yallo, yallo qizgina", "Bozordan oldim" va boqalarni tilga olish joiz.

Xalq ijodiyotining noyob namunalaridan hisablangan "Doyra badashlari"ning mavjudligi Mustaqillik yillarida o'zbek xalq musiqa ijodida kashf etilgan noyob tadqiqotlardan biri sifatida e'tirof etiladi. "Doyra

badashlari¹⁴ mahalliy aholi tilidan kelib chiqqan holda ishlatiladi. Qadimda yerlik aholi orasida faqat badash soʻzi qoʻllanilgan. Badashlar dapp¹⁵ chalgʻusida chalinadigan doyra-usulli asardir. Ular bevasita kuy, ohang, usul bilan bogʻliq boʻlganligi hamda asosan ayollar tomanidan ijro etilganligi sababli ham faqatgina qizdirilmagan (ijroda yengil hisoblangan) dapp chalgʻusida chalingan. SHu sababli ham badashlar deb atalgan. Biroq, XX-asrning ikkinchi yarmidan doyra atamasi qoʻllanila boshlagan. Undan oldin soʻzlashuvda faqat badash soʻzi qoʻllanilgan. Diqqat-eʼtiborimizda turgan ushbu doyra badashlari Surxondaryo viloyatining SHerobod tumani Xatak¹⁶ qishlogʻida yashovchi oʻzbek millatining qatagʻon urugʻiga mansub aholi musiqa ijodiyotida saqlanib qolgan. Ular juda qadimgi ajdodlarimizning ijodiy mahsuli boʻlib, toʻy marosimlarda, turli tantana va anʼanalarda hamda xalqning tarixan qadimgi bayramlari (navroʻz, angam, mehrjon)da shuningdek, oilaviy, diniy bayramlarda faqatgina ayollar tomonidan ijra etilgan. Badashlar xalqning urf-odatlarini, anʼanalari, yashash tarzi, sharoiti asosida juda qadimda yuzaga kelgan boʻlib, oʻzlarining turli xarakter-xususiyatlari bilan izohlanadi. Ular raqs va teatr sanʼati bilan oʻzaro bogʻliq holda rivojlangan. Badashlar asosan dapp chalgʻusida ijro etilib, baʼzan angishvona, qoshiq va sapol idishlardan joʻnavoz sifatida foydalanilgan. Doyra badashlarining 12 turi bugungi kunga qadar yetib kelgan. Ularning usul va ohanglari har xil boʻlib, bir-biridan ritm oʻlchovi, ohang shakli, xarakter, mazmun va nomlanishi bilan farqlanadi. Umuman olganda bu turkumning tartiblanishi quyidagichadir.

- | | |
|-----------------------|-----------------------|
| 1. Katta badash | 7. Gijdala gij badash |
| 2. Kichik badash | 8. CHildirma badash |
| 3. Koʻrishish badashi | 9. Oʻyin badash |
| 4. Araz badash | 10. Kitirka badash |
| 5. Bijdonba badash | 11. Davra badash |
| 6. SHamol badash | 12. Qasqon badash |

va hakoza Xatak qishlogʻi dappchi ayollarning fikriga qaraganda 70 ga yaqin yuqorida nomlari sanab oʻtilgan badash turlari mavjud boʻlib, ular turlicha nomlangan va har xil usul-ohanglarda raqssiz, raqsli sahnalashtirilgan baʼzan erkin ritmlarda chalingan. Har bir badashning

¹⁴ Бадаш сўзининг луғавий маъносини “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да учрамайди, бироқ, китобнинг иккинчи томида “бад” сўзи мавжуд бўлиб “ёмон” деган маъно беради. Бу эса бадаш сўзининг туб асл маъносини очиб бера олмайди. Маҳаллий аҳоли тилидан келиб чиқаан ҳолда бадаш деганда киздирилмаган дапда ижро этиладиган турли ўлчовли усуллар тушунилади.

¹⁵ Дапп, даб, дафф-сўзлари “Ўзбек тилининг изоҳли луғатида” келтирилган бўлиб, “йўқ қилиш”, “фориғ қилиш”, “йўқотиш”, “хайдаш” маъноларни англатади. Сурхондарёда дапп чолғу маъносидан ишлатилади. Дапп терминини В.Беляевнинг “Музыкальные инструменты Узбекистана” (1993), Ф.М.Кароматовнинг “Уз. инс. Муз” китобларида учратиш мумкин.

¹⁶ Хатакнинг асл маъноси “қат”, “тяг” сўзларидан олинган бўлиб, ерлик аҳоли қояни “қат”, қоя тагини “тяг” деб аташган. Аслида қоя тагидаги қишлоқ маъносини беради. Бу эса аста-секин “қат-тяг”, “Хат-тяг”, “Хаттаг”, “Хаттак” ва “Хатак” ҳолатига келган бўлиб, ушбу номлар бугунги кунда ҳам мавжуддир.

boshlanishida kirish yoki muqaddima qismi bo'lib, ular ikki yoki to'rt takt chalingandan so'ng asosiy kuy ohanggiga o'tilgan.

Гижда́ла — ги́ж



Kuyning asosiy qismi muqaddimaga nisbatan murakkab ritmlarda chalingan. Biroq, kuy-ohang ritmlari o'zgarib turgan. Misol uchun, ko'rishish badashiga e'tibor beraylik. Ko'rishish badashi aholining urf-odatlarini, an'analari, to'y marosimi bilan bog'liq barcha shodiyona kunlarida ijro etilgan. Bunda dappchi ayollar tarafma-taraf bo'lib, ikki guruhga ajralgan holda, ikki tomondan bir-biriga qarama-qarshi chiqib kelishadi. SHundan so'ng bir-birlarining dapplariga dapplarini mamnun to'qnashtirib, imo-ishoralar orqali salomlashib yana qarama-qarshi tomonga o'tadilar. Qolgan guruh a'zolari shu vaziyatni takrorlagunga qadar ikki tomonga saflanishib ko'rishish badashi ohangini chalishni davom ettiradi. Bu holat ijrochilarning soniga qarab takrorlanishi mumkin. Agar ijrochilar soni oz bo'lsa, bu vaziyat tez-tez takrorlanib turiladi, agar 80-100 nafar bo'lsa bu holat bir yoki ikki marotaba bo'lishi mumkin. Ko'rishish badashining ishtirakchilari soni qadimda 20 dan 100 tagacha bo'lgan. Guruhlarga kayvoni ayollar boshchilik qilgan. Ular ijro davrasini boshqarishda ko'pincha badashlarning dinamik belgilaridan foydalanganlar. Masalan, ohanglarni past-baland yoki sekin-asta chalib har xil imo-ishoralar bilan davradagi ishtirakchilarning harakatini, ularning badash ohanglarini to'g'ri, aniq chalishlarini hamda qadimdan badash ijrosida an'ana bo'lib qolgan ushbu harakatlarning aniq bajarilishini ta'minlagan.

Katta badash doyra badashlari orasida eng kattasi, murakkabi hamda ahamiyatlisidir. U ham faqatgina xalqning urf-odatlariga bog'liq bo'libgina qolmay, balki xalqning tantanalarida doimo birinchilardan bo'lib ijro etilgan. Katta badash boshqa badashlardan ohangdorligi va mazmundorligi bilan ajralib turadi. Uch qismdan iborat katta badashning ilk qismi kirish yoki muqaddima, asosiy qism va yakunlovchi qismlarga bo'linadi. Ular turli o'lchovlarda chalinadi. Asosiy ritm ohanglari kirish va yakuniy qismlarga

nisbatan ancha murakkab ritmlardan tashkil topgan bo'lib, juda shiddatli ijro etilgan.

Endi badashlar orasidan o'rin olgan va turli tantanalarda ko'p ijro etiladigan "Bijdonba" badashiga e'tibar beraylik. "Bijdonba badashi" so'z birikmasining birinchi bijdonba so'zi farscha "bashlanish, ilk", don – "biluvchi, ma'no anglatuvchi", arabcha "dzarb, turkiy – "urmoq", "turtmoq" ma'nolari (bosh zarb)da tushuniladi. Bijdonbadagi "bij" bo'g'ini dapp usulini almashish ma'nosida urilgan zarb - tovushidan olingan. Bij bo'g'ini esa qizdirilmay chalinadigan dapplarda to'xtash usulida urilgan zarbdir.

БИЖДОНБА

Bu badash ko'pincha to'ylarda asosan kelin to'ylarida chalingan. U mazmunan o'yinga charlovchi xarakterli ohangdir. Bijdonba badashi ham ikki qismdan iborat.

Umuman badashlarning umumnazariy masalalarini quyidagilar asosida izohlash mumkin. Jumladan, badashlarning ritm ohanglari sodda usullardan boshlanib, ijro davomida tobora murakkablashib boradi. Ba'zilar ohang yakunida avvalgi boshlang'ich holatiga qaytadi, ayrimlari esa asosiy qism bilan tugallanadi. Badashlar faqatgina qizdirilmagan dapplarda chalinganda o'zining haqiqiy ohangdorligi va mazmunini ochib beradi. SHu sabali ham ular ko'p qisimli bo'lib, turli o'lchovlarda ijro etiladi. Ularning ahamiyatli tomoni ham shunda. Surxandaryoda badashlar faqatgina ayollar tomonidan chalingan. Badashlarga birgina dapp chalib yoki raqs tushib teatrlashtirilgan sahna ko'rinishlarni namoyish qilish bilan chegaralanib qolmasdan, xalqning urf-odatlariga an'analariga bog'liq voqea va marosimlarni ham o'ziga mujassam etgan. Badashlar dapplarda chalinganda o'zlarining ichki va tashqi xususiyatlarini to'laligicha saqlab qoladi. SHu sababli qizdirilgan doyrada chalinmaydi. Badashlar ham xalq iste'molida ritmik jihatdan bo'g'inlangan. Jumladan, Bijdonba badashining ohangini bo'g'inlanishi quyidagichadir.

Bavs bam bam bavs bam bij.
Bavs bam bam bavs bam bij.

Bavs bij, bam bam bij.
Bavs bij, bam bam bij.

Bu yerda “bavs” bo’g’ini Buxoradagi “bum”, Xorazmdagi “gup”, “bambam” bo’g’ini Buxoradagi “bakka”, Xorazmdagi “toq-toq” bo’g’inariga, “bam” bo’g’ini Buxoradagi “bak”, Xorazmdagi “toq” bo’g’inariga, dam olish belgisi “bij” esa “ist” bo’g’iniga to’g’ri keladi. Ushbu bo’g’inlashlar faqatgina oddiy usulli badashlarga xos. Ko’rinib turibdiki ritmlarning bunday bo’g’inlanishi Surxondaryo-Qashqadaryo mahalliy musiqa uslubida ham juda qadimdan mavjud ekanligidan dalolat beradi. Badash ijrosida ustoz-shogird an’anasining ahamiyatli tomoni juda katta. Jumladan, Surxondaryo viloyatining tog’li xududlaridan biri hisoblanmish Xatak qishlog’ining har ikki xonadonidan bittasiga albatta dapp chalg’usi bo’lib, albatta, ona o’z qizlariga badashlarni o’rgatadi. Avvalambor, bu an’ana xonadonda faol olib borilgan. Doyra badashlari 1948 yillarga qadar to’y-tomoshalarda ijro etilib kelingan. Hatto badashlarsiz xalqning bayramlari o’tmagan. To’y yoki sayl deb eshitgan har bir ayol o’z dapi bilan birga borgan. Badashlar hozir ham xalqning bayramlari va boshqa ananalarida ijro etilib kelinmoqda. Bu esa o’z navbatida o’zbek musiqa ijodiyotining tarixan boy merosga ega ekanligidan hamda mamlakatning barcha xududlari bo’ylab birdek juda ko’plab tadqiqot ishlarini olib borishni taqazo etadi.

Dapp cholg’usi viloyatlarning chorvochilik va dehqonchilik bilan shug’ullanadigan aholining mahalliy marosimlarida ham keng qo’llaniladi. Folbinlikda, mushkul-kushodlarda yoki betob kishilarning kasalliklarini har xil irim-sirimlar bilan haydashda, undan foydalanilgan. Dehonobod, G’uzor, Boysun, Panjob, Sayrob kabi boshqa tog’li hududlarida marhumning qazosi kuni sovuq o’limni haydash ma’nosida ayollar dapp chalib, yig’lashgan.

Umuman, badashlarning umumnazariy masalalariga to’xtalmoqchi bo’lsak, quyidagilarni izohlash maqsadga muvofiqdir. Ya’ni:

- badashlarning ritm ohanglari sodda usullardan boshlanib, ijro davomida murakkablashib boradi;
- ba’zilar yakunida avvalgi boshlang’ich holatiga qaytsa-da, ayrimlari asosiy qism bilan tugallanadi;
- kuylar faqatgina qizdirilmagan dapplarda chalinganda o’zining haqiqiy ohangdorligi va mazmunini saqlab qoladi;
- badashlar ko’p qismli bo’lib, turli o’lchovlarda ijro etiladi;
- doyra badashlari faqatgina ayollar tomonidan chalinadi;
- ayollar badashlarga birgina dapp chalib yoki raqs tushib teatrlashtirilgan sahna ko’rinishlarni namoyish qilish bilan chegaralanib qolmasdan, balki xalqning ko’p asrlik an’analariga bog’liq voqea va marosimlarni o’zida mujassam ettirgan;

Badashlarning xalq iste'molida ritmik jihatdan bo'g'inlanganligi doyra ritmlarining Surxondaryo-Qashqadaryo mahalliy uslubida ham juda qadimdan mavjud ekanligidan dalolat beradi (3,12).

Yigitlar tomonidan ijro etiladigan mahalliy raqs harakatlari qadimdan mavjud. "Zebari" turkum raqslari faqatgina Dehqonobod, Sariosiyo, Uzun tumanlarida rasm bo'lgan. Dashnabod qishlog'ida esa "Doshnabodcha raqs" ommalashgan. Unda aytishuvlar ham mavjud bo'lib, yigitlar tarafma-taraf holda bir birlariga qarama qarshi aytimlarni aytishadi. Fikrimiz dalili sifatida Dashnabod qishlog'ida qadimdan o'ynalib kelinayotgan "Dashnabodcha" raqs va "Zebari" yigitlar raqsini aytib o'tish lozim. "Dashnabodcha" raqsda "Yor-Yor" termasi ijro etiladi. Unda yigitlar raqsga tushib oldinda ketayotgan yigitlardan birini qattiq chimchilab oladi va raqsnı davom ettiradi. Bundan maqsad kishilarga zavq, o'yin-kulgi ulash. Bu raqsda "Bas-bas" aytishuvi mavjud. Aytishuvda ijrochilar tarafma-taraf bo'lib turli terma baytlaridan ijro etib musobaqa o'tkazgan. "Zebari" yigitlar raqsi juda qadimiy bo'lib, unda faqat yigitlar bir xil o'ynaydi.

Doston ijrochiligi.

Xalq dostonlari va termalarini ijro etuvchi baxshi-shoirlar ijodi o'zbek xalq musiqa ijodida alohida ajralib turadi. Doston o'zbek xalq musiqa ijodida yirik epik janr bo'lib, o'ziga xos mavqei, mazmuni, shakli, ichki qonuniyatlari va ijro uslublari bilan ajralib turadi. Xalq dostonlarida epik tasvir, ko'pincha nasr (so'z) bilan, lirik kechinmalar she'r va musiqa orqali ifodalanadi. SHuning uchun ham dostonlarning ahamiyati beqiyos va boqiydir. Ular asrlar osha shu kunlargacha saqlanib, yashab, yanada sayqal topib xalqimiz hayotida muhim o'rin egallab kelmoqda¹⁷.

Doston so'zining lug'aviy ma'nosiga e'tibor beradigan bo'lsa, qissa, hikoya, ta'rif, sarguzasht ma'nolarini anglatadi. U keng tarqalgan etnografik-etnopedagogik janr bo'lib, xalqning ma'naviy-maishiy qiyofasi, kurashi, axloqiy-estetik qarashlari, adolat, ozodlik, tinchlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, xalqparvarlik, millatparvarlik, do'stlik, odob, axloq kabi tarbiyaviy sifatlarni targ'ib etadi. Dostonlarda komil shaxs tarbiyaviy sifatlari umumlashgan holda beriladi. Insoniylikning eng ulug' sifatlari ma'lum darajada bo'rttiriladi. SHuning uchun tinglovchida doston qahramonlaridan o'rnak olish hissi tug'iladi va shu asosda ta'sir etadi. Doston juda ulkan va murakkab, noyob xazina bo'lib, uning yaratilishi va sayqal topishida ajdodlarmizning beminnat va ulkan mehnati sarflangan. Dostonlarni asosan baxshilar, Xorazm viloyatida esa baxshi xonandalar, Qoraqalpog'istonda jirov-baksilar kuylashadi. "Baxshi" mo'g'ulcha va buryatcha "baxsha", "bag'sha" so'zlaridan olingan bo'lib, "ustod", "ma'rifatchi" degan ma'nolarni anglatadi. Baxshilar ijodida do'mbira cholg'usi, qoraqalpoq

¹⁷ Абдуллаев Р.С., Ўзбек мумтоз музыкаси. Тошкент. 2008. 46 б.

jirovlarida qo'biz, Xorazm viloyatida dutor, tor, qo'shnay, doyra, akkordion cholg'ulari yetakchilik qiladi.

Doston – o'zbek xalqining qadimgi ma'naviy va badiiy merosining durdonasi bo'lib, ularning asosini xalq hayoti va kurashi, uning orzu umidlari tashkil etadi. Xalqqa xos insonparvarlik, vatanparvarlik, qahramonlik, mardlik, mehnatga muhabbat, do'stlik, sevgi va sadoqat kabi oliyjanob fazilatlar xalq dostonlaridagi qahramonlar obrazida mujassamlashgan". Xalq dostonlari va do'mbira kuylarini F.M.Karomatli, R.Abdullaev, B.Matyoqubov tadqiqotlarida dunyodagi ayrim xalqlarda o'zining boy tarixiga oid yirik hajmdagi qiziq-qiziq voqealarni hikoya qilish, maqtash "doston" so'zini anglatishini e'tirof etadi (1.2; 2.16; 2.22; 2.40; 2.52; 2.54; 2.70). Xalq donishmandligining yorqin ifodasi bo'lgan bu obrazli ijodiyot namunalari jamiyat va tabiat xodisalariga inson munosabatining musiqiy-poetik obrazi sifatida baxshilar tomonidan asrlar mobaynida sayqallangan. O'zbekistonda xalq dostonchiligi, shuningdek, epik hikoya, doston janrlari (doston, qissa, hikoya, madhiya yoki qasida, sarguzasht) o'zining nasriy va nazmiy unsurlarini musiqa va cholg'u jo'rnovozligida namoyon etadi. Doston aytuvchisini mamalakatimizning turli hududlarida mahalliy aholi shevasidan kelib chiqqan holda turlichsa nomlab keladi. Masalan, Surxondaryo-Qashqadaryoda baxshi, shoir, Xorazmda dostonchi, baxshi, ayol dostonchilarni xalfa, Samarqand, Toshkent viloyatlarida baxshi, Farg'ona vodiysida baxshi, Qoraqalpog'istonda baksi va jirov deb aytishadi.

"Baxshi" so'zi qadimdan bemorni xalqona usullar bilan davolovchi tabib – doyra va yoki boshqa cholg'u asbobi chalib, afsungarlik aytimlari orqali kasal tanasidan yovuz ruhlarni quvadigan davolovchi (hozirgacha saqlanib kelayotgan "ko'ch", "qaytarma", "jahr" marosimlari) -shomon-baxshi yoki shomon-folbin, shuningdek, ayrim hududlarda "ustoz" ma'nolarini anglatgan (2.70). Bugungi kunda bu so'z xalq dostonlarini kuylaydigan ijodkor san'atkorlarni bildiradi.

Musiqashunos olim R.Abdullaev O'zbekistonda mavjud dostonlarni mavzusiga ko'ra quyidagi turlarga bo'lishni tavsiya etadi. Bular:

1. Qahramonlik-bahodirlik dostonlari;
2. Tarixiy dostonlar;
3. Romantik (sevgi haqidagi) dostonlar;
4. Diniy dostonlar.

Shuningdek, shular bilan bir qatorda jangnoma, maishiy, zamonaviy va avtobiografik dostonlar ham amaliyotda mavjudligini, qahramonlik-bahodirlik dostonlari o'zbek xalqining ko'chmanchilik hayot kechirish sharoitida paydo bo'lganligini e'tirof etadi. Bu dostonlarning qahramonlari albatta behisob kuch-quvvatga ega, vatanga, sevikli yoriga, xalqiga sadoqatli qilib tasvirlanadi. SHunday dostonlardan biri, halqimizning eposi

“Alpomish” dostonidir. Doston qahramoni Alpomish nafaqat sehrli, balki o’z yorini sevuvchi, raqiblar bilan kurashda mislsiz qudratga ega.

“Alpomish”, “Go’ro’g’li”, “Rustamxon”, “Yusuf va Ahmad”, “Alibek va Bolibek”, “Sohibqiron” va “Qirq qiz” kabi turkum dostonlar hisoblanadi. Baxshilar ushbu dostonlar ijrosidan oldin “Nima aytay”, “Nimadan boshlay”, “Xush ko’rdik”, “Asl yurtim”, “Mehmondirmiz”, “Termadan boshladim”, “Quloq osing so’zima”, “To’y bugun”, “Yoshing qutlug’”, “Ko’hna dunyo”, “So’zima eshit”, “Do’mbiram”, “Meni eshit do’mbiram”, “Ota nidosi”, “Haqiqatni bayon aytay”, “Dostondan boshlasam” kabi termalarni kuylaganlar.

Respublikada SHerobod, Boysun, Bulung’ur, Qarshi, Dehqonobod, Bo’ka, Jizzax, Xorazm, Qoraqalpoq dostonchilik maktablari mavjud bo’lib, ushbu maktabni 100 dan ziyod turli yoshdagi baxshilar tashkil etadi. Doston aytuvchilar bayram va oilaviy marosimlarga doim hurmatli mehmon sifatida taklif qilinib kelingan. Ular ijrosida turli mavzulardagi termalarni tinglash mumkin. Ayollar orasida birinchilardan bo’lib, ichki bo’g’iq ovozda doston va termalar kuylagan Qumqo’rxonlik Zulxumor baxshi o’zining ijro usubi bilan tinglovchilarga yaxshi taassurot qoldirib, u ham “Alpomish” va “Go’ro’g’li” turkum dostonlarini kuylab kelmoqda. Uning ustozlari SHerobdi baxshi Boltaev va akasi Omon baxshi SHernazarovlardan baxshichilikning sir-sinoatlarini qunt bilan o’rganmoqda. Dostonchilik ijodiyoti – baxshi-shoirlarning terma va dostonlari viloyat qo’shiqchilik ijodiyotining asosini tashkil etadi. Qiziriq tumanida Xushboq baxshi Mardonaqul o’g’li, Denov tumanida Boborayim baxshi, Qumqo’rg’onda Juma Abrayqulov, SHerobot tumanida SHaymon baxshi, Angorda CHorsha baxshi, Muzrabotda aka uka Qora va CHori baxshi Umirovlar ustoz-shogird an’anasiga yetakchilik qilmoqda.

Xorazm baxshi-dostonchilar san’ati o’ziga xos bo’lib, o’zbek xalq musiqasida alohida o’ringa ega. Dostonning nasriy qismi hikoya, nazmiy qismi esa qo’shiq shaklida ochiq ovozda cholg’u ansambl’ jo’rligida ijro etiladi. Xorazm baxshichiligi SHirvoniylar va Eroniy uslublarga bo’linadi. SHirvoniylar uslubi Amudaryoning yuqori va o’rta oqimidagi hududda tarqalgan (markazi-Xiva). Bu uslub namoyondalari dutor, g’ijjak, bo’lamon va doyra jo’rligida kuylaydilar. Unda 72 ta doston kuylari mavjud bo’lib, bular Muxammaslar turkumi (5 ta kuy), Ilg’orlar (4), Eshvoylar (5), Naylarman-lar (5), Nolishlar (7), SHirvoniylar (3), Zorinjilar (2), “Rahm ayla”, “Boboxonim”, “Gulandom” va boshqalardir.

Eroniy uslub Amudaryoning quyi oqimi hududida tarqalgan (markazi - Mang’it sh.). Ushbu uslub baxshilari dutor, g’ijjak, bo’lamon jo’rligida doston kuylashadi. Ularning qo’shig’iga doyra cholg’usi jo’r bo’lmaydi. Eroniy uslubda 32 ta doston kuylari bo’lib, ularning ko’pchiligi SHirvoniylar nomlari bilan o’xshash, lekin Sarparda, Ko’r qiz, Qo’shadas, Qo’shim

Polvon Ilg'ori va boshqalari bilan ajralib turadi. XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida Xiva xonligida 40 dan ortiq baxshilar faoliyat ko'rsatgan va ulardan eng mashhurlari Eshvoy baxshi, Muhammadniyoz Go'rji, Rizo baxshi, Ernazar baxshi, Suyov baxshi, Jumanazar baxshi, Axmad baxshi, Bola baxshi Abdullaev va boshqalarni nomini tilga olish mumkin.

Xorazm dostonchilik maktabining yirik vakillari: Suyav baxshi (XIX asr), Jumanazar baxshi, Ahmad baxshi, Matnazar Jabbor o'g'li, Bola baxshi, Xudoybergan O'tagan o'g'li, Ollobergan baxshi, Murod baxshi, Boltaboy baxshi, Jumaboy baxshi, Qodir sozchi va boshqalar. Ular repertuarida "Go'ro'g'li" turkumi dostonlari, "Oshiq G'arib", "Oshiq Maxmud", "Oshiq Oydin", "Tohir va Zuhra", "Layli va Majnun", "Tulumbiy" kabi dostonlar mavjud.

Surxondaryo-Qashqadaryo musiqa uslubida dostonchilik ijodiyoti o'zining rang-barang tarovati bilan o'zgacha shukuh kasb etib turadi. Dostonchilik ijodiyotida terma kuylash baxshi uchun majburiy xususiyat xisoblanadi. Terma kuylash orqali baxshi o'zining darajasini, ijro mahoratini, shoirlik sifatlarini, o'zining kimligini, qaysi urug', qaysi elatga mansubligini va hatto bilim darajasini namoyon etgan. Termalarda asosiy diqqat e'tibor she'riy matn bilan do'mbira kuyining falsafiy mazmuniga qaratiladi.

1991-1999 yillarda olib borilgan musiqiy folklor ekspeditsiya davrida mehmondirmiz termasini rasm bo'lganligiga guvoh bo'ldik. Ushbu terma dastlab SHerobod baxshichilik maktabi ijodkorlari tomonidan ijod etilganligini qayd etib o'tish joiz. Umuman baxshichilik ijodiyoti asosan o'zbekning qo'ng'iroq urug'iga mansab aholi orasida mavjud bo'lib, qo'ng'iroq urug'i aholisining ijodiy mahsuli desak ayni haqiqat bo'ladi. Mehmondirmiz termasida dunyo, olam, hatto ota-onani ham bu dunyoda omonat ekanligi, hamma bir-biriga mehmon ekanligi xususidagi fikrlar bayon etilgan. Qolaversa, shuni ham alohida ta'kidlash joizki, dostonchilik ijodiyoti asosan qo'ng'iroq urug'i orasida keng tarqalganligini ko'rish mumkin.

Mehmondirmiz

A xoy yorey yey, exe xe xe xey
Ajab tovur ekandaey bu dunyoning ishlari
Kuzlab kelsin, bahor qaytib kuzlab kelsin
Surxondaryom qishlari
Dovushumdan obad bo'lsin do'mbiram
O'zbekiston dashtlari xe-xey
Ota ulga, ul otaga, ena qizga, qiz enaga
Bu dunyoda mehmondirey

Joshin tushsa bukchayadi

Bobotovning bellari
Do'mbirani gulga solar
Har baxshining qo'llari
Odamzodning sirtin bosib jotsinay
Ota degan uliminan qizlari a xa yey
Kallangdagi qora choching bu tenangda
Bu dunyoda mehmondirdir

Tovib kelsa belga baylar putingdi
Bolam deydi kechiradi
Sina tovda xatongdi
Tirilikda hurmat qilgin
Ta'lim bergan oqsoqqolli otangdi
Boshi go'rga kirguncha
Ota bizga mehmondirdir

Sizu-bizlar jurganmizda
Bir qorinda to'qqiz oylar aylanib
Bir mushtipar ko'targanda
Bolam deba bir qorinda
Sizu-bizni to'qqiz oylar qiynalib
Osh qozonda nonna berib
Tol beshikka quymoq solib, chaynalib
Oq sut bergan enalara
Sizu-bizga mehmondirdir

Ey xaloyiq bu dunyong kaptarxonada
Biru uchib, biri qaytib qo'nadi
Bolasiga ta'lim bergan ota minan enadi
Joshliginda joshliging qulpu joshda jonadi
Xudo solga ishgaey har bir banda
Oxir bir kun ko'nadi
Qariy bersang oq suyaging
Oxir bir kun qora jerga kiradiya
O'n betingda qora xoling bu tanangda
Bu dunyoda mehmondirdir

El oralab aytilar terma doston kuylarim
Jo'llarimga qarab jotar
Ota degan uli minan qizlarim
Uyginanga borsaya nasiba qilsa
Eldan topgan dastruxonda tuzlaring

Men bilmayman bu qo'l yog'och
Menginaga necha jilik do'stlarimay mehmondir

Xulosa o'rnida shuni ta'kid etish joizki, voha qo'shiqchilik ijodiyoti musiqshunos olimlarning tasnifi asosida bir tizimga keltirilib, "ma'lum vaziyat aytimlari" (oilaviy marosim, mavsumiy) va "turli mavzuli qo'shiqlar" (qo'shiq, terma, lapar, yalla) kabi iboralar bilan tasnif etildi.

Bunda, alla, beshik to'yi, sunnat to'yi, muchal to'yi, nikoh to'yi kabi qo'shiq aytimlar ustuvor bo'lgan oilaviy marosim haqida alohida to'xtalib, unda ijro etiladigan qo'shiqlar alohida ko'rsatib o'tildi. SHuningdek, yil fasllariga xos gap gashtak (qish), bahor mavsumiga xos "Navro'z" bayrami, sumalak, lola sayli, boychechak sayli, darveshona, shox moylar marosimlari, yoz mavsumida sust xotin, kuz faslida o'rim, oblobaraka, shamol chaqirish marosimlaridagi qo'shiqlar mavsumiy qo'shiqlar, chorvachilik, dehqonchilik va hunarmandlik bilan bog'liq mehnat qo'shiqlari sifatida tadqiq etildi. Turli vaziyat qo'shiqlari sifatida qo'shiq, terma, lapar, yallalar o'rin oldi. SHuningdek, baxshi-shoirlar ijodidagi terma va dostonlar, tadqiqot uchun yangilik deb etirof etilgan "doyra badashlari" haqida ma'lumotlar keltirildi.

Xalfachilik san'ati

Xalfa qo'shiqlari Xorazm vohasida asosan ayollar tomonidan ijro etiladigan san'atdir. Aynan ushbu xalqa qo'shiqlari oddiy mehnatkash aholining ayniqsa, ayollarning hayoti, dardi-alami, xasrati, iztiroblari, kundalik turmush tarzi musiqiy ohanglarda gavdalanirilib, sodda, ravon til bilan tarannum etilgan an'anaviy musiqiy ijodiyot sifatida gavdalanadi.

Garmonni avval sozchi¹⁸ san'atkorlar, laparchi ijrochilari, ansambl sifatimda kuylaydigan yakkaxon xonandalar ijodiyotida qo'llashgan, keyinchalik, esa garmon xalfalar ijodida yetakchi o'rin egalladi. 1936 yilda Xivada garmonchi qizlar ansambli tuzildi uni tuzishda O'zbekiston xalq artisti Gavharxonim Rahimova Toshkentdan kelib tashabbus ko'rsatdi. Unda Onajon Sabirova (Anash xalfa) va Madraxim SHeroziylar hamkorlik qiladilar. Xalfachi qizlar ansambli 1939 yilda Toshkent va Respublikamiz bo'ylab gastrol safarda bo'ldi. Bu ansamblda Onajon Sabirova (Anash xalfa) Saraxon Ollaberganova, Roviya Otajanova, Reyima Hakimova, O'g'iljon Masharipova, Poshshaxon Matchanova kabi iste'dodli xalfalar xizmati katta. Bundan 50 yil keyin Gavharxonim Rahimova tashabbusi bilan Xivaga kelib, Ozod Zaripov rahbarligidagi Xiva shahar musiqa maktabida garmonchi qizlar ansambli tashkil qilindi. Xalfa san'atining o'ziga xos qirralari zamon talablariga muvofiq shakllangan va rivojlangan. Xorazm vohasida ilgaridan beri davom etib kelayotgan an'anaga muvofiq xalfalar ijod qilganlar. Ular

¹⁸ Чолғу ижрочиси Хоразмда шу атама билан қўлланилади.

ustoz shogird uslubida o'z ijodlarini biladigan qo'shiq va dostonlarni shogirdlariga o'rgatganlar.

Xorazmda xalfachi ayollar ijro jarayoni bo'yicha bir qator toifalari mavjud. Jumladan, musiqiy cholg'ular jo'rligisiz doston, mumtoz adabiyot vakillarining nasihatimiz she'rlarini diklamatsion tarzda, qiroat shaklida o'qiydigan xalfalar toifalari mavjud. Qolaversa, faqat soz, jumladan, garmon, doyra chalib turli xush ovoz mumtoz musiqa asarlarini kuy hlatda ijro etadigan xalfalar ham mavjud. Yana bir toifadagilari esa dostonlardan parchalar, terma va nasihatimiz qo'shiq va ashulalarni tor, dutor, garmon, doyra, qayroq, qo'sh nay cholg'ulari ijrosida kuylaydigan ijrochi xalfalar guruhi ham el orasida keng tarqalgan. SHu bois bo'lsa kerak, tadqiqotchilar tomonidan Xorazm xalfachilari o'z mohiyatiga ko'ra uch guruhga ajratilgan holda tasnif etish tavsiya etilgan.

- xonanda xalfalar;
- soz (cholg'u) ijrochi xalfalar;
- ijodkor shoira xalfalar.

Birinchi guruh ijodkorlari tarkibida shoira, garmon cholg'usini mohir ijrochisi, jarangdor ovoz sohibi, qo'shiqchi va ashulachi, doyrachi va raqqosa bilan birgalikda ansambl bo'lib, ular to'liq shakllangan ijrochi xalfalardan shakllantirilgandir. Ijodkor shoira xalfalar guruhiga SHukur Ollaqulixon qizi (1857-1832), Xonim suvchi Saidamat qizi (1858-1926), Onabibi Otajanova (Ojiza) (1899-1952), Onajon Sobirova (Anash xalifa) (1885-1952), xazaraspalik Saodat xalifa Xudayberganova (1905-1972), Mohira Sabirova (1909-1966), Roziya xalifa Matniyoz qizi (1899-1951), Rohatoy Xo'janiyazova (1955-2010) kabilar nomini tilga olish joizdir. Bu kabi xalfalar xalq dostonlarining to'la matnini yoddan bilganlar va ularni musiqa jo'rligida maromiga yetkazib kuylaganlar. SHu bilan birga badiiy ijod bilan ham shug'ullanib, ajoyib she'rlar ham yaratganlar.

Anabibi Otajanova (Ojiza tahallusi bilan elga tanilgan) mashhur xonanda bo'lishi bilan birga iste'dodli shoira ham edi. U xalq qo'shiqlariga hamohang bo'lgan ko'plab qo'shiqlar ijod qildi va zo'r mahorat bilan kuyga solib xalq orasiga yoydi. Ojizaning "Uyolaman", "Targ'uncha", "Galmadi-galmadi", "Tuninay", "Ey dilbarim" kabi qo'shiqlar hozirgi davrda ham halfalar tomonidan ijro qilinadi.

Ana shunday xonanda, shoira, ijodkor xalfalardan Rohatoy Xo'janiyazova XX asr oxiri XXI asr boshlarida ijod qilgan mashhur xalifa bo'lib, uning "Sabr ayla ko'nglim mani", "Armonim yoqdir mani" kabi she'riy to'plamlari bilan elga ma'lum va mashhur bo'lgan. U "Mustaqil O'zbekiston", "Do'stlarim", "Onajon" kabi she'rlariga kuy bastalab ijro qilgan. SHuningdek, ustoz xalfalarning qo'shiqlari va oshiqlik dostonlaridan parchalar kuylagan.

Yana bir guruh xalfalar asosan “garmon” cholg’uchisi va ashulachi sifatida o’rin egallasa uning yonida albatta doyrachi va raqqosa ham bir guruh bo’lib ansambl tashkil qilishadi. Ko’pincha xalfalar guruh bo’lib o’zlari ijodiy yondashganlar. Ular dasturlarini turli mavzudagi qo’shiqlar, dostonlardan parchalar va nasihatgo’y lirik mazmundagi keng diapazonli lirik qo’shiqlar asosida tashkil etganlar. Nazira Sobirova, Sarajon Ollaberganova, Sorabibi Axmedova, Sorabibi Jumaniyozova, Ullibibi Boyjanova, kabi xalfalar kiradi. Ular dostonlar va laparlarning to’la matnini yoddan yoki kitob vositasida o’qish bilan shug’ullanmasdan faqat xalq qo’shiqlari va doston tarkibidagi ayrim sheorlarni kuyga solib maromiga yetkazib kuylashgan. Ular ma’lum ansamblga uyushgan garmonchi, doyrachi va raqqosa bo’lib, to’y, bayramlarda xizmat qilishgan.

Xalfa janriga xos bo’lgan ijodkor xalfalar va ijrochi sozanda xalfalar to’y va ziyofatlarda xizmat qilsalar, diniy mavzudagi kitob va dostonlarni kuylovchi xalfalar to’ylarda, azalarda, marakalarda ham ishtirok etganlar va hozirgi davrgacha ana shunday yo’nalishda faoliyat ko’rsatib kelmoqdalar.

Keyingi davrlarda nasihatimiz, diniy mavzudagi asar yoki turkum dostonlarni kuylovchi xalfa ayollar ham mazkur ijodiyotning o’ziga xos tarkibini tashkil etadi. Ular qatorida Suna Eshmatova, Niyozjon Musaeva kabi xalfalar juda zehni baland diniy mavzularda erkin mushoxada qila oladigan chuqur bilimga ega xalfalar bo’lgan.

Sozanda shoira xalfalar guruhi ham asosan oshiqlik dostonlardagi musiqiy asarlarni ijro etishgan. Xorazmda yashagan mashhur xalfalardan Xonim Suvchi, Ojiza, Onajon xalfa kabi xalfalar “Oshiq G’arib va SHoxsanam”, “Asli va Karam”, “Oshiq Maxmud”, “Oshiq Alband”, “Go’ro’g’li” turkumiga oid ayrim dostonlarni tugal yoddan bilganlar va maromiga yetkazib kuylaganlar.

Xorazm xalfachiligida ham boshqa mahalliy uslublar singari ustoz-shogird an’anasi o’ta muhim ahamiyat kasb etgan. Eski maktablarda ayniqasa, XVIII asr o’rtalarida “xat-savod” chiqargan, bilimga ixlosmand qizlar taniqli xalfalarga bir necha yillar davomida shogird tushganlar. Ular shogirdlik davrida ustozlaridan to’y va boshqa marakalarda aytiladigan qo’shiq, doston va g’azallardan o’rganganlar. Soz, garmon cholg’usini ijro etishda shogirdlar ustozlarini ijro yo’nalishlari va uslubini to’la egallashlari lozim bo’lgan. Xalfalar shogirdlaridan katta talabchanliklar bilan an’analariga rioya qilgan holda an’analarini davom ettirishgan. Ustozlari ularni to’y va marosimlarga ergashtirib olib borgan, birga o’tirib birga kuylagan yoki raqsga tushirgan. Ustoz xalfa ba’zan shogirdining yakka o’ziga ham navbat berib qo’shiq ijro qildirgan, uni jamoatchilikni o’ziga jalb qila olish san’atiga alohida ahamiyat bergan.

So’nggi 170 yildan ortiq davr mobaynida o’zbek musiqa madaniyati rivojida xalfachilik san’ati yetakchi janrlardan biri bo’lib xizmat qilib keldi.

SHubhasiz bu jarayonda ham ustoz-shogird an'anasi o'zining ang yaxshi vosita ekanligini ko'rsatdi. SHogirdlar ustozlaridan fotixa olib, xalfa nomiga sazavvor bo'lganlar, albatta, bu nomga musharraf bo'lgunga qadar bir qancha zahmatli mehnatlarni bosib o'tishga lozim bo'ldi. SHogird ustozidan fotixa olish uchun o'z uyiga davrining yetuk xalfalari hamda o'z ustozini chaqirib, o'sha ustozlar oldida o'rgangan doston, terma, qo'shiqlarini ijro qilib berganlar. Ularni tanlovidan o'tgan hamda unga ko'p yillar ustozlik qilgan xalfani hurmatini joyiga qo'ygan shogird o'zi xalfa bo'lib, mustaqil to'y va ma'rakalarga qo'shiq aytishga, xotin-qizlarga o'z san'atini namoyish qilish huquqiga ega bo'lganlar. XVIII asr o'rtalariga qadar xalfalar faoliyati asosan uy ichkarisida bo'lgan, ular ko'pincha biror cholg'u asbobi yordamida emas, balki, ikki piyolani bir-biriga urib, "o'ymoq" ya'ni angishvonani piyolaga, likobchaga urib, ba'zi paytlarda qoshiqlarni qo'llab, ular yordamida o'zlariga jo'rnavoz topgan. Ushbu jo'rnavoz vositalar yordamida usul berishgan va usulga jo'r bo'lib kuylaganlar.

Xalfalarning qo'ng'iroqdek jarangdor va mayin ovozi piyolaning nozik va o'ynoqi jaranggi bilan qo'shilib, o'ziga xos musiqiylik kashf etgan. Ular asosan faqat ayollar qatnashadigan ma'rakalarning fayzi, qizlar majlisi va ayollar bazmining malikalari, to'y va ma'rakalarda quvonchga-quvonch qo'shib, o'ynoqi kuylar, nafis raqslar, dilbar ashulalar bilan qalblarda ezgu xis-tuyg'ularni shakllantirganlar. Xalfa ijodkorlari bu vohadagi to'y, sayl va aza marosimlarida qatnashgan, xotin-qizlar davrasini mazmunli, ibratli va quvnoq o'tishi ular faoliyati bilan bog'lik bo'lgan.

Xorazmda ayol ashulachilar "xalfa" deb yuritilsa ham ular faqat ashula aytish bilan cheklanmaganlar. Ular xonandalik va cholg'u san'atining ko'p jihatlaridan xabardor bo'lganlar. Xalfachilik san'atini o'rganish ham o'ziga xos maktabga ega bo'lgan, ustoz-shogird an'anasi hozirgi davrgacha saqlanib kelmoqda. Ustoz xalfa ijrochilarining ijro uslubi, kuylash yo'li, repertuari shogirdlar tomonidan puxta o'zlashtirgandan keyin ular mustaqil ijod qilishgan va san'atkorlar orasida tan olingan.

Xorazmda ma'lum va mashxur bo'lib kelgan xalfa ijodkorlari XIX-asrning boshlarigacha faqat xotin-qizlar orasida kuylab kelishgan va xalq xurmatini qozonganlar. XIX asrning oxiri XX asrda kelib, musiqa asboblaridan garmonning qo'shilishi bilan ularning ijodi yanada yuqori pog'onaga ko'tarildi. M.Yusupov va J.Qobulniyozovlarning ta'kidlashicha Xonimjon xalfa Saidamat qizi 1895 yildan boshlab garmon chalib, to'y va boshqa xotin-qizlar bazmlarida kuylab kelgan. Mashhur xalfalardan Onajon xalfa Sobirova Anabibi kori (Ojiza taxallusi bilan ijod etgan shoira ijodkor xalfa) o'zlaridan oldin ijod etgan va faoliyat ko'rsatib kelgan ustoz ijodkorlarining ijodlarini davom ettirgan elga mashhur xalfalardan bo'ladilar. Hozirgi kunda Xorazm viloyatining asosan Xiva, Urganch shaharlarida va tumonlarda ijod qilib kelayotgan xalfalar istiqomat

qilmoqdalar. Xususan Xiva shahrida xalfachilik san'atini davom ettirib kelayotgan xalfalardan Ra'no Ollaberganova, Dilbar Qalandarova, Poshshajon Ibragimova, Zilfiya va Fazilat SHermetovalar, Nodira Bog'ibekova, Zumrat Madrahimova, Dilorom Qurbanniyazova, Karomat Ibrahimova, "Nihol" sovrindorlari Sarvinov Quryazova va Rayhona Jumaniyazova, Sayyora Otaeva, SHirin Jumaniyazova, Umida Jumaniyazova, Dilorom Jabbarganova, Dilbar Devanova ham Zulayho Saidova. Urganch shahri va tumonlarda ijod qilayotgan xalfalar Xurshida Eshniyazova, Iroda Iskandarova, Sanobar Qlicheva, Dilbar Bekturdieva, Feruza Fayzullaeva, Guli Qo'shaqovalar nomini faxr bilan tilga olish mumkin¹⁹.

Uchinchi guruh diniy mavzudagi dostonlarni mungli ovozda kuylab aytadigan SHukuroy xalfa xoji ona, Zumrad Abdiyazova, Hajarbibi Jumaniyazova, Oybibi Oyjanova, To'xtajon momo kabi xalfalar Xiva shahrida yashab to'y va ma'rosimlarda ijrochilik mahoratini namoyon etmoqdalar.

Ma'lumki, nafaqat o'zbek xalq qo'shiqlari, shu jumladan Xorazm xalq qo'shiqlari ham uzoq o'tmishdan bizgacha yetib kelgan ajdodlarimizning lirik shakldagi tarixiy musiqiy merosi hisoblanadi. Xorazm qo'shiqlarining mazmuni voqelikning lirik havosini badiiy o'zlashtirib, yuz bergan xodisa, voqealarga munosabat his-tuyg'u va kayfiyat orqali ifodalanishi bilan o'zbek milliy musiqa ijodida o'ziga xos ko'rinish va ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Xorazm qo'shiqlarining kuy va she'riy matnida gavdalanayotgan obraz, o'zining motiv kompozitsion yechimiga egaligi, kuy-ohangdagi ritmik koloritlar o'zining juda qadimiyligi bilan milliy an'analarga sug'orilganligini ko'rish mumkin. Unda xalqning o'y-fikri, his-hayajoni bilan she'riyat obrazlari mujassam bo'lganligi va ohanglar sadosini keltirib chiqarganligini ko'rish mumkin. Ushbu qo'shiqlardagi fikr, g'oya, maqsad, vazifa, xis-tuyg'ular Xorazm aholisining turmush tarzi, kundalik hayoti, yashash tarzi va sharoiti, ijtimoiy-maishiy hayoti, dunyoqarashi bilan bog'liq mujassam bo'lganligini ko'rish mumkin. Qolaversa, Xorazm qo'shiqlarining kuy-ohang va she'riy matnida aholining musiqiy merosini islom dini aqidalari bilan sug'orilganligini, o'tmishim tajribalaridan o'tgan nasihatimiz istaklar bilan hamohang bo'lganligini kuzatish mumkin.

Fol'klor-etnografik ansambllar

Tildan-tilga ko'chib, asrdan-asrga o'tib kelayotgan milliy qo'shiq va raqslar o'zining sehru jozibasi bilan bugun dunyo san'at ixlosmandlari

¹⁹ Шерозийлар сулоласи давомчиси "Тарғунча", "Хива дутори" кўшиқлар тўплами муаллифи З. Мадрахимов, муסיқашунос Г. Балтаева халфа кўшиқлари хақида

e'tirofiga sazovor bo'lmoqda. Dunyoning qaysi bir xalqi, qaysi bir millat, elat va hatto urug'i bo'lmasin, albatta folklor-etnografik janrisiz uning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini anglab bo'lmaydi. O'zbek xalq musiqa ijodi ham bundan mustasno emas. Negaki, ular o'zbek xalqining uzoq yillik tarixi, urf-odat, madaniyati, ma'naviyati, qadriyat va an'alarini o'zida to'la-to'kis mujassam etgan. Qolaversa, ezgu tuyg'u-tushunchalarni tarannum etuvchi bunday ijod namunalari katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. SHu bois ularni yangicha sayqal asosida ommalashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimiz o'zining mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki kundanoq, boshqa sohalar qatorida musiqa va san'at sohasini jadal rivojlantirish uchun barcha chora-tadbirlarni ko'rib kelmoqda. O'zbek xalq musiqa ijodidagi o'lmas, nomoddiy ma'naviy merosni saqlash va kelgusi avlodga yetkazishda hamda targ'ib va tashfiqot qilishda biz tilga olayotgan folklor-etnografik ansambllarning xizmati va o'rni beqiyosdir. Ular tarkibida faoliyat ko'rsatayotgan turli yoshdagi ishtirokchilardan iborat jamoa tarkibida faxriy san'atkorlar, xavaskor ijrochilar keng jalb qilingan.

Qadimiy va o'lmas urf-odat, udum, an'ana va qadriyatlarimizni qayta tiklash maqsadida qo'shiq, terma, o'lan, alla, yalla, lapar, aytishuv va boshqa xalq ijodiyotining qator namunalari hisoblagan xalqimizning nomoddiy ma'naviy merosini saqlab qolish, hamda ushbu qadimiy an'analarni kelajak avlodgaga yetkazish borasida Respublikada faoliyat ko'rsatayotgan 100 dan ortiq folklor etnografik jamoalar mazmunli va samarali faoliyat ko'rsatmoqdalar. Har yili mamlakatimiz bo'ylab keng nishonlanadigan "Navro'z" umumxalq bayrami, O'zbekiston Respublikasi Mustaqillik kuni bayram tantanalari va boshqa qator Davlat miqyosidagi tadbirlarda xalq udumlaridan bo'lgan "Xorazm", "Boysun", "SHalola", "Zebari", nomli folklor etnografik ansambllar o'zlarining "Tandir qurish", "Lachak to'yi", "Navro'zing muborak ey ona Vatan", "Beshik to'yi", "Ming oy to'yi" kabi musiqiy kompozitsiyalarni namoyish etib, xalqimizning asl udumlarini sahnaviy ko'rinishlar orqali namoyish etib kelmoqda. Ushbu tadbirlar mamlakatimizga tashrif buyurayotgan xorijlik sayyohlarga milliy an'alarimizdan tuzilgan musiqiy dasturlar namoyish qilinib, xorijlik mehmonlar tomonidan yuqori baholanmoqda. Mamlakatimiz bo'ylab "Lapar va o'lan ijrochilarining an'anaviy Respublika ko'rik-festivali", Alla ijrochilarining Respublika tanlovi, O'zbekiston Xalq artisti Raxima Mazoxidova xotirasiga bag'ishlangan "Folklor etnografik ansambllari"ning Respublika ko'rik tanlovi, "Onalar kuylaganda-alla", yor-yor, lapar, aytishuv va o'lan ijrochilari Respublika ko'rik-tanlovlarining yuqori badiiy saviyadagi dasturi hamda mukammal ijro mahorati bilan ishtirok etib kelayotganligi bu sohani unutilmas qadriyat ekanligidan dalolatdir. Bugungi kunda Respublikamizda "Besh qarsak", "Boysun", "Gulyor", "Omonyor", "Gulchehralar", "Doston", "Besperde", "Orzu", "Yor-yor", "CHavgi", "Mohi

Sitora” singari o’nlab ansambllar o’zlarining yorqin ijodlari bilan namuna bo’lmoqdalar. Mamlakatimizning barcha xududlarida har yili albatta qaysi bir nomda Respublika va hatto xalqaro miqyosida festival, ko’rik tanlovlar muntazam o’tkazib kelinmoqda. Jumladan, Buxoro shahrida “Asrlar sadosi”, Toshkent shahrida ”Lapar va o’lan ijrochilarining Respublika ko’rik-festivali” SHaxrisabz va Termizda baxshi-shoir, oqinlarning xalqaro festivali, “Nurli navolar” festivali, “Raqs sehri” xalqaro festivali kabi o’nlab tadbirlarni tilga olish mumkin. Ushbu tadbirlar Respublika va viloyatlar hamda Qoraqalpog’iston Respublikasi O’zteleRadiokompaniyasi orqali keng namoyish etilmoqda. Gap folklor-etnografik ansambllar haqida ketar ekan, bunda albatta ayrim jamoalarning jumladan, “Xorazm” folklor-etnografik ansambli faoliyatini misol tariqasida keltirib o’tishni joiz deb hisoblaymiz. 2016 yilda Xorazm viloyatida bo’lib o’tgan “Dilbar bu jahon ichra” xalfaqo’shiq ijrochilari ko’rik-tanlovining yakuniy viloyat bosqichida jamoa a’zosi D.Bekturdieva Oliy o’rinni egalladi va Xorazm viloyat hokimligining diplomi bilan taqdirlangan bo’lsa, 2016 yil 4-5 may kunlari Navoiy viloyati Nurota tumanidagi CHashma majmuasida “Nurli navolar” festivalining respublika bosqichida “Xorazm” xalq folklor etnografik jamoasi g’olib deb topilib, II-darajali diplom bilan taqdirlandi. 2017 yilning 3 iyun kuni Xiva shaxri Ichon qal’a, Ollaqulixon majmuasida “Xalfaqo’shiqlari va ijrochilari” ko’rik-tanlovi respublika bosqichi bo’lib o’tdi. Jamoa qatnashchisi Yorkinoy Jumaniyozova tanlovning “Eng yaxshi xalfaqo’chisi” nominatsiyasi bo’yicha g’oliblikni qo’lga kiritib faxriy yorliq va sovg’alar bilan taqdirlandi. 2017 yilning 15-17 iyul kunlari Xiva Ichon Qal’a davlat muzey qo’riqxonasida “Raqs sehri” xalqaro festivalida “Xorazm” xalq folklor etnografik jamoasi birinchi darajali diplom va faxriy yorliq bilan taqdirlandi. Jamoa a’zolari shonli sanalarga bag’ishlab uyushtirilayotgan tantanalarda, umumxalq bayramlarida el-yurtga sidqidildan xizmat qilmoqda. Tabiiyki, ularning mehnatlari e’tiborsiz qolmadi. Sermahsul faoliyati natijasida Xorazm” folklor-etnografik ansambli “Xalq ansambli” unvoniga sazovor bo’ldi. Bugungi kunda ham “Xorazm” folklor-etnografik xalq ansambli o’zining repertuarini Xorazm dostonchilik yo’llari, xalk og’zaki ijodidan lapar, terma, xalfaqo’shiqlari bilan boyitishda davom etmoqda. Buning barobarida, viloyat axliga kontsert dasturini uyushtirib, betakror folklor san’atimizni targ’ib qilib kelmoqda.

O’zbek milliy raqs san’ati

Raqs - arab tilidan olingan bo’lib, o’yinga, raqsga tushuvchi, o’yin va o’yinga tushish unga mos yozilgan musiqa. Raqqosaning garmonik harakati va holatlari, plastik ifodaliligi, yuz imo-ishoralari va boshqa orqali obraz yaratishdan iborat san’at turi. San’atshunos olimi L. Avdeeva o’zining

“O‘zbek milliy raqsi tarixidan” nomli kitobida “Raq s zamon va makonda mavjud san‘at bo‘lib, bunda badiiy obraz inson gavdasining ritmik uyushgan tasviriy va ifodali harakatlari bilan yaratildi”, deb yozadi. To‘g‘ri, biroq, nazarimizda raq s ni birgina shunday qisqa qoida bilan tushuntirib bo‘lmaydi. Bu qoida raq s ning tashqi ko‘rinishini tasvir laydi, xolos. Raq s faqat bir millatga xos san‘at emas. Balki umuminsoniy badiiy ijodning mahsuli bo‘lib dunyoning barcha millatlariga xos san‘at turidir. Inson hayotning go‘zalliklari, o‘zining bu keng olamdagi o‘rnini, o‘z tuyg‘ulari, nozik hislari, falsafiy o‘ylarini gavda harakatlari bilan ifoda etishga extiyoj sezgandagina to‘laqonli raq s san‘ati yaratiladi va u yaratilgan. Inson noxush kayfiyatda raq s ga tushadimi, bu uning bevosita ichki xis-tuyg‘ulariga aloqador jarayonki, u xush kayfiyatda, ko‘tarinki ruhiy holatda raq s ga tushadi. Bu sirli ehtiyojni qondirish inson hayotining bir bo‘lagiga aylangan. Xalq orasida shakllangan o‘yinlarda ijrochi o‘z bilganiday erkin taqlidiy harakatlar qilsa, raq s ijrochisi ma‘lum harakatlar majmuasi chegarasidan chiqmasdan, ma‘lum qoidalarga tayangan holda muayyan harakatlarni ijro etib, o‘zi ijro etayotgan raq s ning falsafiy mazmunini ochib beradi. Har bir raq s inson ma‘naviyatining bir qirrasini ochadi. O‘zbek milliy raqslari xalqning turmushi, tabiati, makoni, ramziy marosimlari, xalq hayotining o‘zidan tug‘ilgan va shu xalqning hayotini tasvirlab kelgan. SHuning uchun ham raq s san‘ati xalqimiz hayotining madaniyat va ma‘rifatining bir bo‘lagi sifatida yashab kelmoqda. O‘yin-ko‘ngil ochish, dam olish, tarbiyalash maqsadida qilinadigan erkin harakat yoki mashg‘ulot. Ritmik harakatlar va mimikalar uyg‘unligidan iborat san‘at - raq s. O‘yinga tushmoq, biror raq s ni ijro etmoq. Ko‘chma parvoz vaqtida charx aylab, qilinadigan yengil yoqimli harakat. O‘zbek tilining izohli lug‘ati (3-jild. “O‘zbekiston Milliy Entsiklopediyasi”. Davlat ilmiy nashriyoti. 2007 yil)da o‘yinboz (biror ko‘ngil ochish mashg‘ulotiga, o‘yinga qattiq beriluvchi), o‘yinchi, o‘yinbuzuqi, o‘yin-kulgu, ko‘ngil ochish yig‘ini, bazm, xursandchilik, o‘yin-mazax, ko‘ngil ochish vositasi - ermak, o‘yinchoq, o‘yinxona - biror o‘yin va tomosha ko‘rsatiladigan joy, o‘yinchi, o‘yinga tushuvchi, yaxshi o‘yinchi, raq s ga tushuvchi, raqqos yoki raqqosa deb keltirib o‘tilgan.

Raq s - san‘atning shunday turidirki, bunda raq s ning garmonik tana harakati va holatlari, plastik ifodaviyligi va yuz imo-ishoralari, ritmi, temp, kompozit siya orqali obraz yaratish uning asosiy vositasidir. Insonning mehnat jarayoni va borliqdan olgan emotsional tassurotlari bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan.

Dastlab raqslar qo‘shiq va so‘zsiz pantamimik ko‘rinishlarda paydo bo‘lganligi haqida ko‘pgina qo‘lyozma va tarixiy manbalarda, shuningdek, qoyatosh bitiklarida o‘z ifodasini topgan. Keyinchalik kuy-qo‘shiqlar, sahna ko‘rinishlarda, turli marosimlarda namoyon bo‘lib, mustaqil san‘at turiga aylandi. Raq s asrlar davomida takomillashib, barqaror shakllarga ega bo‘la

bordi. Raqqoslarning libosi raqs obrazlariga aniqlik bergan. Har bir xalqning raqs an'analari, ijro uslubi, plastik tasviriy vositalari bo'lib, ular tarixiy, ijtimoiy va geografik sharoitlari ta'sirida tarkib topib rivojlangan. Raqs xalq bayramlari va marosimlarining tarkibiy qismidir. Ular bilan bog'liq holda marosim o'yinlarini paydo bo'lishiga zamin yaratgan. Raqslar asta-sekin xalq turmushining ba'zi jihatlarini aks ettira boshlagan. Mahalliy raqslarda ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik va hunarmandlik bilan bog'liq mavzular o'z aksini topgan. Raqs musiqa bilan uzviy bog'liq musiqa mazmunini obrazlar vositasida ochib berishga moslashdi. Raqslarda ritm muhim bo'lib u musiqada o'z ifodasini topadi, oyoq, qo'l, bosh va tana harakatlari umumiy ritmga bo'ysunadi, bir-biri bilan bog'lanadi.

Raqs san'ati dunyo xalqlarining eng qadimiy san'at turlaridan biri hisoblanadi. Qadimiy raqslar ibtidoiy davrda yashagan insonning mehnat jarayonida va atrofdagi hodisalardan olgan hissiy taassurotlari bilan bog'liq holda yuzaga kelgan. Raqs zamoniy va makoniy san'atning shunday turiki, unda badiiy obraz inson gavdasining ritmik uyushgan, tasviriy va ifodaviy harakatlari bilan yaratiladi. Raqsda raqqosaning garmonik tana harakati va holatlari va yuz imo ishoralari, ritm, temp, orqali obraz yaratishi raqsning asosiy vositasidir. Raqs dastlab qo'shiq va so'z bilan bog'liq bo'lib, keyinchalik mustaqil san'at turiga aylangan. Har bir xalqning o'z raqslari bo'lib, raqsning ijro uslubi, plastik harakatlar tasviriy vositalari bo'lib, raqslar shu xalqning tarixiy, ijtimoiy, geografik sharoitlari ta'sirida tarkib topgan va rivojlangan. Har bir xalqning raqsida ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik va hunarmandchilik bilan bog'liq mavzular, shu bilan birga shu xalqning bosqinchilarga qarshi kurashi va lirik kayfiyatlari o'z aksini topgan.

Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekiston hududida bundan 40 ming yil avval yashagan insonlar toshlardan qurol yasab ov qila boshlaganlaridanoq o'z his-hayajonlarini, ehtiroslarini, iztiroblarini chiroyli harakatlarda ifodalashga harakat qilganlar. Ularning raqslari haqidagi dastlabki ma'lumotlarni respublikamiz hududlarida joylashgan tog' qoyatoshlarga chizib qoldirgan yuzdan ortiq tasvirlar orqali bilishimiz mumkin. O'zbekiston hududida jumladan, SHERobod tumanining Zarutsoy tog'-yonbag'rida topilgan turli tasvirlar, qoyotoshlardagi tasviriy san'at yodgorliklari bu yerda o'yin-raqsni juda qadimdan shakllanganligiga guvohlik beradi. Masalan, ushbu rasmlar orasida cholg'u ushlab turgan va o'zida raqs harakatlarini namoyish etib turgan odamning tasviri juda hayratlanarli tarzda ahamiyatga ega. Olimlarning fikricha bu rasmlar bundan III-II ming yil burun, ya'ni quldorlik jamiyatiga aloqador bo'lgan davrda toshlarga chizilganligidan dalolat berib, o'sha davr diniy marosimlari va xalq o'yinlari yodgorligi sifatida muhirlanib qolgan ma'naviy merosdir. Bu suratlar ichida raqqoslarning turli holat va harakatlarda tasvirlanganligini ko'rish mumkin. Bundan III-II ming yil burun O'zbekistonning janubiy xududi Surxon

vohasida professional raqs san'ati shakllana boshlanganligini anglash mumkin. Chunki, bu raqqoslarning qo'l, oyoq, tana harakatlaridagi keskin va aniq harakatlari elementlari bugungi o'zbek xalq raqslari harakatlari elementlariga o'xshab ketadi. Tepada qo'lida katta doyra (do'l) ko'tarib turgan kishining tasviri tasvirlangan.

Raqs san'ti O'zbekistonda mehnat marosim va e'tiqod bilan bog'liq badan o'yinlaridan "Katta o'yin", "Maqom o'yin", "Qarsak o'yin" kabi monemental raqs turkumlarigacha bo'lgan katta taraqqiyot yo'lini bosib halqimizning avlod - ajdodlari ma'naviy-madaniy hayotida muhim rol o'ynab kelgan. Hukumdorlar va bosqinchilar mehnat aholi orasida yetishib chiqqan iste'dod egalari tomonidan yaratilgan raqs san'atini o'z mafkuralari tomon burishga, undan o'z manfaatlari, ayni shu ishratlari yo'lida foydalanishga raqqos va raqqosalarni kamsitish, tahqirlash insoniy huquqlarini poymol qilishga tinmay urindilar. Ruhoniylar esa raqs san'atini shakkoklik deb e'lon qildilar. Ammo halq raqsi o'z egasi – mehnatkashlar ommasiga xizmat qilishda davom etdi, uning ilg'or an'analari avloddan avlodga, ustozdan shogirdga o'tib yashadi va bizning zamonimizgacha yetib keldi. SHahar madaniyati taraqqiy etgan sari raqs san'ati ham o'zining murakkab shakldagi elimenlariga ega bo'lib, urlari, turkumlari, janrlari ko'payib, ajdodlarimizning bir umrlik yo'ldoshiga aylanib bormoqda.

Ayrim raqslar ro'mol, piyola, qayroq tosh, qoshiq kabi buyumlar bilan ijro etilgan, ba'zan ijrochi xalq cholg'u asboblari qayroq, doyra, nog'ara va boshqalarda o'ziga o'zi jo'r bo'lgan. Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekiston hududida topilgan qoya tosh tasvirlari arxeologik topilmalar bu yerda raqsni juda qadimiyligidan guvohlik beradi O'zbek raqs san'atining qadimiyligi, shakl va turlarining boyligi ajdodlarimizning kun kechirish uchun shug'ullangan mashg'ulotlari asosan dehqonchilik, chorvochilik va hunarmandchilik bilan bog'liq holda shakllangan va rivojlanganligini ko'rishimiz mumkin. Tarixiy manbaalarda zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto" davridayoq raqs san'atining shakllangan ikki yo'nalishi xalq va professional raqsning rivoji to'g'risidagi ma'lumotlar kirilgan. Yunon-Baqtriya podsholigi davrida (mil av IV-III asrlar) turon raqs san'atining darajasi Yunoniston, Vizantiya, Hindiston va Xitoy raqsi bilan bahslashishga imkon bergan. IV-VIII asrlarda kelib O'zbekistonning Samarqand, Buxoro, SHahrisabz, Boysun va Toshkent kabi shaharlaridan raqs ustalari Buyuk ipak yo'llari bo'ylab Rim, Misr, g'arb o'lkalarigacha, SHarqda Xitoy, Koreya va xatto Yaponiyagacha borib o'z san'atlarini namoyish etganlar.

Musulmonlik davri (VII asr)da ham O'zbekiston sarhadlarida turli taraqqiyot bosqichlari paydo bo'lgan. SHu bois shahar va qishloqlarda o'tkazilgan to'y bayram va marakalardagi "Beshqarsak" kabi qadimgi o'yinlar ham "Katta o'yin", "Lazgi o'yin", "Kema o'yin" singari o'yinga raqsli harakatlarga ega umumnuqtai nazardan bir qolipga katta

umumlashmaga va ramziy timsollarga ega. Tadqiqotimiz ob'kti bo'lgan Surxondaryo viloyatida asosan Boysun tumani hududida "Laylak", "Qoplon" va boshqa shu kabi hayvonlarga taqlid qilingan o'yinlar harakatlar keng tarqalgan. IX-XII asr uyg'onish davrida raqs san'atida ham chinakam ko'tarilish yuz bergan ko'pgina qadimgi raqslar tiklanib "Navro'z", "Mehirjon" va "Sada" kabi bayramlarda turli xil raqsli harakatlar keng tarqalganligini ko'rishimiz mumkin.

Mustaqillik davrida raqs san'ati yanada tez suratlar bilan rivojlanmoqda 1997 yil 8 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "O'zbekiston milliy raqs va xoreografiya san'atini rivojlantirish to'g'risida"gi farmoni va mazkur ijrosi yuzasidan Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 25 dekabrda 101-sonli qarori qabul qilindi. SHu asosida M.Turg'unboeva nomidagi "O'zbekraqs" ijodiy birlashmasi tashkil etildi. Xoreografiya bilim yurti negizida esa Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya Oliy maktabi barpo etildi. "O'zbekraqs" ijodiy birlashma tarkibidagi ansambllar xalq raqs merosini o'rganish, rivojlantirish borasida yangi-yangi raqslar yaratish, an'anaviy raqslarini asrab-avaylash va munosib darajada namoyish etish, yosh raqqos va raqqosalarni tarbiyalab yetishtirish bo'yicha olib borilayotgan harakatlari ijobiy natijalar bermoqda.

O'zbekistonda XIX asr va XX asr boshida mehnat va marosim bilan bog'liq bo'lgan, shuningdek, tog'lilar orasida rasm bo'lib kelgan qadimiy o'yinlardan tashqari xalq – professional raqs san'ati ham mavjud bo'lib, unda ko'pgina xususiyatlar bilan bir-biridan keskin farq qilib turuvchi Farg'ona, Buxoro, Xorazm uslub va maktablari qaror topadi. Har bir raqs maktablarning vujudga kelishi, shakllanishi, o'zining muayyan bir ko'rinish va qonuniyatga ega bo'lishida xalq folkloriniing, shuningdek, baletmesterlar, o'sha zamonning zo'ravon mavfkurasi tomonidan tahqirlangan raqqos va raqqosalarning xizmati beqiyosdir. Raqs uslubi va maktablari bir-biriga ta'sir ko'rsatib, bir-birlari bilan ijodiy hamkorliklar natijasida rivojlandi va ma'lum bir tartibga kelgan nazariy bilimlarga ega bo'ldi.

O'zbek xalqi musiqa ijodida tarixan boy milliy raqs san'atining o'rni beqiyos va u chinakam o'lmas merosga ega. Bizgacha yetib kelgan raqslarning tur va janrlari o'zining rang-barang ko'rinishlari bilan kishini hayratda qoldiradi. SHuningdek, dunyo raqs mahorat maktabida o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. O'zbek milliy raqs san'ati o'zining kelib chiqish tarixiga ko'ra, ibtidoiy ajdodlarimizning tasavvur olamiga dahldor marosim o'yinlari, dunyoning nomoddiy tsivilizatsiyasiga benazir xissa qo'shgan zardushtiylikning ramziy obrazlari aks ettirilgan muqaddas kitobi "Avesto"da turli raqsli harakatlarni tasvirlanganligini ko'rish mumkin. O'rta asrlar va undan keyingi Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari davrida tarkib topgan Buxoro, Xorazm, Farg'ona va Surxoncha raqs uslublari

o'zining juda qadimiyligi, o'ziga xos uslubi bilan bir-biridan ajralib turadi. XX asrga kelib, o'zbek raqslari professional va havaskorlik ansambllari faoliyatida yanada keng rivojlanganligini ko'rish mumkin. Ayniqsa, O'zbekiston mustabid tuzum iskanjasidan batamom ozod bo'lib, o'z erki va o'z haq huquqini o'zi hal qiladigan Mustaqillik davrida aholining sahnaviy raqslari bilan bir qatorda folxlor-etnografik raqslar, an'anaviy va zamonaviy estrada, tsirk, teatr, balet raqslari, bolalar raqslarining keng miqyosda rivojlanganligini ko'rish mumkin. Mamlakatimizda keng nishonlanadigan Mustaqillik, Navro'z kabi ommaviy bayramlari, Buxoro, Xiva, Termiz, SHahrisabz shaharlari hamda buyuk olimlar, allomalar, davlat arboblarning yubileylari, xalqaro va Respublika festival, tanlovlar, sport musobaqalari munosabati bilan o'tkazilgan bayram tomoshalarida o'ziga xos raqs maydon vujudga keldi. Tabiiyki, ushbu raqs san'atining barcha tur, janrlari, uslublari bir-biridan ajralmagan holda balki malakali raqqoslar va havaskorlar ijodida namoyon bo'lmoqda.

Mustaqillik yillariga qadar san'atshunos olimlar o'zbek milliy raqs maktabini uchta Xorazm, Buxoro va Farg'ona uslublari²⁰ga ajratgan holda tasnif etib keladilar. Biroq, 1980 yillardan Surxon raqs uslubi ham yaqqol ko'zga tashlanib, o'zining gavda holatlari, qo'l va oyoq harakatlari, raqqoslarning tarkibi, jinsi, kompozitsion tuzilishi, liboslarning mahalliy aholi kiyimlariga xosligi bilan Xorazm, Buxoro va Farg'ona uslublari keskin farq qilishi hamda Surxondaryo-Qashqadaryo vohasida aholi, havaskor yoki professional raqqoslar ijrosida o'zgacha raqs unsurlari mavjudligi aniq ko'zga tashlanadi. 2000 yildan "Boysun bahori" ochiq folxlor festevalini o'tkazilishi, qolaversa, 2009 yil 25 avgustda Surxon vohasiga tashrif buyurgan Respublikamizning birinchi Prezidenti I.A.Karimov Surxon vohasining nihoyatda qadimiy tarixga ega ekanligini, insoniyat tsivilizatsiyasi taraqqiyotida alohida o'rin tutganligini ta'kidlab, voha aholisining turmush tarzi, moddiy-madaniyati, urf-odatlar va xalq og'zaki ijodi an'alarining o'ziga xosligini, hamda bu hududda etnografik manbalarning juda yaxshi saqlanganligini e'tirof etib, "Surxondaryo – etnografik makon" deya yuksak baho bergan edilar. Surxondaryo-Qashqadaryo raqs maktabiga kelsak, ommaviy axborot vositalari orqali namoyish etilayotgan Surxondaryo-Qashqadaryo mahalliy uslubiga xos vohaga xos mahalliy raqslarni o'ziga xosligi borligini ko'rishimiz mumkin. Mazkur sohaga oid ilmiy tadqiqotlar kam bajarilganligini ko'rishimiz mumkin.

Bugungi kunda Surxon raqs maktabi haqida to'liq asoslovchi manbalarga duch kelganimiz yo'q. To'g'ri, Surxon raqs maktabining amaliyotda Surxondaryo-Qashqadaryo mahalliy xalqlari harakatlari mavjud

²⁰ P.Каримова. Ўзбек рақслари. Тошкент. 2003. 5-8 б.

biroq, ularning nazariy-ilmiy va badiiy tahlili yetarli emas. Mazkur masala yosh tadqiqotchi olimlar oldiga katta vazifalarni yuklaydi. SHunday bo'lsada, Surxon raqs maktabi deb e'tirof etishga to'la asoslar yetarlidir .

Urf odat, marosim, bayram an'analarning tarkibiy qismi hisoblanadi. Inson hayotida bo'lib o'tayotgan muhim voqea yoki turmushda burilish yasaydigan katta "nuqtalar"ni nishonlash, belgilash ehtiyoji marosimlarni keltirib chiqargan bo'lsa ajab emas. Keyinchalik buni avlodlarning takrorlab turishi odatga, odatdan esa an'anaga aylanib qolishiga olib kelgan. SHu tariqa har bir millatning o'ziga xos an'analar silsilasi shakllangan. Ushbu an'analarda o'sha xalqning kelib chiqish tarixi, dunyoqarashi, madaniyati aks etib turadi. An'ana - jamoa ijodkorlarining mahsuli, shu bilan birga xalq tafakkuri bilan yaralgan turli ma'naviy qadiryatlarning jamoaviy holda saqlab qolishning ham o'ziga xos shakli hisoblanadi. Binobarin, ma'naviy qadiryatlarning avloddan-avlodga, og'izdan-og'izga o'tib yashashi an'ana yoki an'anaviylikdir. O'zbek xalqi an'analari juda qadimiy bo'lib, ularda ajdodlarimizning kurashi, mehnati hamda turli sohalarda erishgan ma'naviy va madaniy yutiqlarida o'z ifodasini topgan. Qadimdan takrorlanib, muttasil davom ettirib kelinayotgan an'alarimiz milliy qadiryatlarimizning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Farg'ona raqs maktabida esa hamon doyra usullari, puxta ishlangan qo'l harakatlari, jilvalari muhim o'rin egallab keladi. Xorazm, Buxoro raqs uslublari tarkibida to'liq holda bo'lmasada, "Mayda o'yin" va "Katta o'yin" turkum raqslari yashab keladi. Xalq sahnaviy raqsi taraqqiyotida Usta Olim Komilov, Yusufjon qiziq SHakarjonov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboeva, Isaxor Oqilov, Gavhar Rahimova, Qunduz Mirkarimova, Roziya Karimova va boshqa o'nlab raqs ustalarining "Bahor", "SHodlik", "Lazgi" kabi ansambllarning xizmati katta. Bugungi kunda bir qator tajribali baletmeysterlar va bastakorlarning sa'y-harakati bilan o'nlab yakka tartibda ijro etiladigan o'yinlar, duetlar, ommaviy raqslar mamlakatimiz va jahon tomoshabinlarining bir qancha avlodini maftun etib, o'zbek raqs san'ati zahirasidan joy oldi. "Tanovar", "Munojot", "Kagga o'yin", "Bahor", "Pilla", "Paxta", "Lazgi", "Dilxiroj", "CHo'pon o'yin", "Namanganning olmasi", "Andijon polkasi" va boshqalar shu jumladandir.

2-BOB.O'ZBEK XALQ MUSIQASINING MAHALLIY USLUBLARI

Mazkur bobni yoritish xususida

O'zbek musiqa san'atini yoritishda o'zining benazir xizmatlarini ko'rsatgan, atoqli olim, san'atshunoslik fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Fayzulla Muzaffarovich Karomatlining ko'p yillar davomida O'zbekistonning, O'rta Osiyoning boshqa respublikalari va Qozog'istonning o'zbek aholisi musiqiy folklorini, shuningdek ilgari yozib olinmagan va o'rganilmagan janrlarini keng o'rganish asnosida o'zbek xalqining boy musiqiy merosini to'laroq va har tomonlama o'rganishi va o'zbek musiqasining mahalliy uslublariga asos solinishi, hamda F.Karomatli tomonidan nashr ettirilgan qator ilmiy tadqiqotlar, kitoblar asnomida to'plangan materillardan mazkur bobni yoritilishida to'raligicha foydalanildi²¹.

Mahalliy uslublar va ularning mohiyati

O'zbekiston Respublikasining Mustaqilligi o'zbek xalqining azaliy qadryatlarini tiklash, o'z tarixi, milliy urf-odat va an'alarini, ma'naviy va shu jumladan, badiiy musiqiy merosini atroflicha o'rganish hamda undan baxramad bo'lish imkoniyatini yaratdi. O'zbek xalqining musiqa merosi juda boy va qadimiy tarixga ega. Uning ajoyib an'analari hozirgi kunda ham o'z badiiy va estetik qiymatini saqlab kelmoqda. Bu an'alar zamonaviy o'zbek musiqa madaniyatining ajralmas qismini tashkil qiladi. Qadim-qadim zamonlardan ona-zaminimiz o'zining boy ma'naviy merosi, yuksak madaniyati, urf-odat, marosim va an'analari bilan jahon tsivilizatsiyasida munosib o'rin egallagan. Bu o'lka xalqlarining buyuk siymolari diniy ilm-fani va madaniyatining barcha sohalari rivojiga o'zlarining munosib xissalarini qo'shib kelganlar. Asrlar moboynda xalqimizning yuksak ma'naviyat, vatanparvarlik, marifatparvarlik kabi ezgu-fazilatlar sharq falsafasi va islom dini ta'limoti bilan uzviy ravishda rivojlandi va o'z navbatida falsafiy, ahloqiy ta'limotlar ham xalqimiz dahosidan bahra olib boyib bordi. SHuni alohida ta'kidlash joyizki, o'zbek xalqining tarixiy

²¹ Кароматов Ф. Ўзбек халқи музика мероси (Йигирманчи асрда). 1 том. 1-китоб. Қўшиқ. Тошкент, 1978.

taraqqiyoti davrida moddiy va ma'naviy madaniyati bir tekis ravishda rivojlanmadi. Unda uyg'onish va yuksalish bilan birga deppinish, turg'unlik holatlari ham bo'lib turdi. Ma'lumki, Markaziy Osiyo xalqlari o'tgan uzoq tarixiy davr mobaynida ko'plab istilochilar tomonidan zabt etilgan. Ular yerli aholini boy milliy madaniyatidan begonalashtirish siyosatini olib borganlar.

SHunga qaramay xalqimiz o'z milliy ongi, milliy g'ururi, milliy iftixori va ma'naviy dunyosini asrab qolgan va uni boyitib borgan. Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritganch, ma'naviy-madaniy hayotimizda tub o'zgarishlar yaratish uchun keng imkoniyatlar vujudga keldi. "Ma'naviyat taqdirining ehsoni emas. Ma'naviyat inson qalbida kamol topishi uchun u qalban va vijdonan, aql va qo'l bilan mehnat qilishi kerak. Bu xazina insonga hayotda barqarorlik bag'ishlaydi. Uning qarashlari shunchalik boylik orttirish yo'lida kun ko'rishga yo'l qo'ymaydi. Fojealar vaqtida omon saqlab qoladi va moddiy qiyinchiliklar kunlarida irodani mustahkamlaydi²². Darhaqiqat mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, madaniyat va san'at rivojiga alohida e'tibor qaratildi. CHunki millatning o'tmish va kelajak oldidagi mas'uliyati uning ma'naviyatiga alohida e'tibor berishni taqozo etadi. Asosiy maqsad – o'tmish madaniy, ma'naviy merosimizni chuqur o'rganish, uni keng ommalashtirish, shu qadriyatlar vositasida komil insonlarni tarbiyalab, voyaga yetkazish, pirovardida ularni kelajak avlodlarga bus-butun yetkazishdan iboratdir.

Milliy madaniyat, ma'naviyatimizning chuqur o'rganishda qo'shiqchilik san'ati ham alohida o'rin egallaydi. Milliy qo'shiqchilik san'atimiz tarixi, uning an'anaviy qirralarini o'rganish, ijro usullarining rang-barangligini tahlil etish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek musiqa san'atining tarixiy ildizlari uzoq moziydan boshlanadi. Uni chuqur o'rganish esa mashaqqatli mehnat, izchil izlanishlarni talab qiladi. Bu sohada respublikamizning talaygina ilmiy tadqiqot maskanlarida, o'quv yurtlarida samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

Xalqimizning ko'p asrlik musiqiy an'analarini milliy qadriyatlarimiz qatorida o'rganish va ayni chog'da e'zozlash va kelajak avlodga yetkazish zarur. CHunki mazkur o'zbek xalqining uzoq o'tmishidan buyon ijod etib, turli vaziyat va davrlarda kuylab kelinayotgan qo'shiq va yallalarni, aytim va laparlarni, dostonlari va katta ashulalarini, cholg'u sozlarini yaqindan o'rganamiz, ulardan ma'naviy bahra olamiz. SHu bilan birga, diyorimizning turli davrlarida yuzaga kelgan mahalliy musiqiy an'analar bilan atroflicha tanishish imkonini beradi. Masalan, aytaylik, biz Namangan viloyatida yashayotgan bo'lsak, Respublikamizning turli vohalarida yashab kelayotgan aholining musiqa ijodini o'rganib, unda ijro etilgan kuy-qo'shiqlarning o'ziga xos jihatlarini, bir-biri bilan farqlanish xolatlari bilan tanishish, shu tariqa

²² И.А.Каримов. Энг асосий мезон – ҳаёт ҳақиқатини акс эттириш. – Т.: Ўзбекистон, 2009.

xalqimizning xilma-xil va rang-barang qo'shiq- kuylaridan bahramand bo'lish imkoni mavjud bo'ladi.

“O'zbek musiqasi” iborasi keng mazmunli tushuncha bo'lib, u, jumladan, o'z ichiga milliy musiqamizning ikki asosiy qatlamining – xalq musiqasi va ustoz-san'atkorlar ijodi bo'lgan kasbiy musiqqa ijodiyoti tarmoqlarining qamrab oladi. O'zbek musiqashunos olimlari tomonidan xalq musiqasi an'analari o'rganilar ekan u asosan va asosiy mavzu sifatida quyidagi to'rtta mahalliy musiqiy uslublar o'z ichiga olishi tasnif etilgan:

1. Surxondaryo-Qashqadaryo musiqqa uslubi.
2. Buxoro-Samarqand musiqqa uslubi.
3. Xorazm musiqqa uslubi.
4. Farg'ona-Toshkent musiqqa uslubi.

Har bir mahalliy musiqiy uslub o'z xususiyati va an'alariga ega. Bu an'alar esa uzoq vaqtlar moboynida shakllangan bo'lib, ular xalqimizning turli sharoitlaridagi turmush tarzi, mehnat mashg'ulotlari, turfa marosimlari, urf-odat bayramlari, kundalik hayoti va boshqa shu kabi jarayonlar bilan uzviy bog'lanib ketgan.

O'zbek xalqi musiqqa merosi, uning qimmatli namunalarini to'plash, saqlash, hujjatlashtirish, notaga olish, ilmiy asoslash avvalam bor aholining ongi-shuuririga yetkazish uzun tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi va amaliy-ijodiy o'zlashtirish borasida respublikamizda shunga qadar samarali natijalarga erishilindi.

Qo'lga kirilgan buyuk mustaqillik mamlakatimizda iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohalarida tub islohotlar o'tkazishda katta burilish yasadi. Jamiyatimizda milliy madaniyat va san'at, ma'naviyat va ma'rifat kabi insonparvar hamda taraqqiyotparvar omillarga alohida diqqat e'tibor berildi. Bu o'rinda amaliy bebaho qadriyatlarimizni, xalqchil udum va an'alarimizni tobora to'laroq tiklash, tarixiy-madaniy yodgorliklarimizni shu jumladan musiqiy merosimizni mufassal o'rgana borish nihoyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Uni yosh avlodlar tomonidan ilmiy hamda amaliy jihatdan puxta o'zlashtirish uchun so'ngi yillarda barcha zaruriy shart-sharoitlar yaratildi. Bu o'rinda O'zbekiston Respubikasi Prezidenti tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarni yuqori baholash ayni haqiqat.

O'zbek xalqi musiqasining mahalliy uslublari musiqiy merosimizning an'anaviy-kasbiy qatlamiga mansub janrlardan ashula, katta ashula, suvora, doston, maqom, ma'lum vaziyat aytimlari hamda erkin mavzuli qo'shiqlari va uning turlarini, aholining o'ziga xos cholg'u sozlarini o'rganilishi bilan bog'liq bir qator jihatlari borki, ular asnosida o'zbek xalq musiqqa ijodiyoti yuzasidan batafsil ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin.

Adabiyotshunoslik, san'atshunoslik sohalarida xususan, mavjud musiqiy adabiyotlarda uslub so'zi har xil ma'nolarda qo'llanib turilishi ma'lum. Bulardan bir hollarda uning keng, umumlashma, boshqalarda esa

xiyla tor, yoki ko'chma ma'no va mazmunlari qayd qilinadi. Ta'kidlash lozimki, uslub atamasi ham mazmunan, ham mohiyatan turlicha idrok etilsada, ayni paytda u o'zaro yaqin, mushtarak tushunchalarni anglatishi mumkin. Demak, bu masalaga avvalo oydinlik kiritish zarur. Uslub so'zi yordamida avvalo bir muncha keng, aniqrog'i-yig'ma ma'noda jahon xalqlari musiqa san'atiga xos umumiy yoki muayyan mintaqaviy xususiyatlar tabiati ifodalanadi. Bunga, jumladan, sharqona musiqiy uslub, "Evropacha musiqa uslubi" kabi iboralar yaqqol misol bo'la oladi. Boshqa barcha badiiy ijodiyot ko'rinishlari misoli, musiqada ham milliy o'ziga xoslikka aynan uslub atamasi yordamida qisqa va lo'nda tavsif beriladi.

Musiqiy asarlarning ichki tuzilish qonuniyatlari bu masalada yanada muhimroq ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, asosiy vositalarning o'zaro munosabatlarini mezonlardan u yoki bu uslub aniqlanadi. Xususan, "bir ovozli" yoki "ma'nodan", "ko'p ovozli", jumladan "garmonik", "polifonik", "gomfonik" nomli uslublarshular toifasiga kiradi. Yirik ijodiy yo'nalish va oqimlar. Masalan, "klassitsizm", "romantizm", "imperesionizm", "realizm" va boshqalar ham uslub tushunchasi bilan bevosita bog'liqdir. Uslub so'zi yana bastakor, kompozitor, dirijyor, xonanda va sozandalar faoliyatini ijodiy jihatdan chuqurroq yoritish maqsadida ishlatiladi. Ayniqsa, u birorta mashhur san'atkorning ijodiy qiyofasini, uning farqli, betakror chizgi-qirralarini tahlil yoki qiyos ila ko'rsatishda baholiqudrat hizmat qiladi. SHuningdek, "cholg'u uslubi", "maqom uslubi", "yovvoyi" yoki "patnisaki uslub", "zamonaviy uslub" singari rang-barang ma'nolarni bildiruvchi hollarni kundalik o'quv-nazariy va amaliy faoliyatda tez-tez uchratib turishi mumkin.

Musiqiy folklorshunoslik sohasida uslubga dahldor yana bir tushuncha bor bo'lib, u biror xalq, millat va elatga mansub ijodiyot ko'lamida joylardagi tub aholining o'zgacha betakror ijodiy xususiyat, udum va an'analarga diqqatimizni jalb qiladi. Tabiiyki, "mahalliy uslublar" masalasini o'zbek xalq musiqa ijodiyoti misolida, ya'ni uning tarixiy-nazariy va amaliy asoslarga tayangan holda ko'rib chiqish o'quv fani oldiga qo'yilgan maqsadlarga muvofiqdir.

O'zbek halq musiqasining ko'hna, nihoyatda boy va serjilo an'analari avvalo uning turfa yarim – mahalliy uslublarida yorqin va teran o'z ifodasini topadi. Darhaqiqat, ayrim hollarda musiqiy-mahalliy uslubning tilshunoslikdagi "sheva", "lahja", tushunchalari bilan qiyos qilinishi ham bejiz emas. Biroq, adabiyotshunoslikdan farqli o'laroq, jami mavjud "musiqiy sheva"larning mushtarak sifatlari o'z navbatda "umummilliy musiqiy uslub" singari yig'ma tushunchani yuzaga keltiradi.

Xulosa qilib aytganda, musiqada uslub tom ma'noda turli-tuman, bir hisobda ayricha tushunchalar doyrasini vujudga keltirsada, bunda deyarli barcha tarkibiy vositalarining uzviy bog'liqligini, tizimiyligini nazarda tutish darkor. Xuddi shu boisdan o'zbek xalq musiqa ijodiyoti bilan tanish, uni

o'rganish hamda amaliy o'zlashtirish borasida uslubning o'rni va ahamiyati benihoya katta.

Ko'lami keng, serqatlam musiqa merosimizni tashkil etuvchi xilma-xil ko'xna namunalarini nota yozuviga tushirib, to'plab, ushbu yo'nalishda dastlabki ilmiy izlanishlar bilan shug'ullangan bir qator mutaxassislar ish faoliyatida kuzatilgan uslubiy tafovutlarga o'z vaqtida alohida etibor berilshan ular bu haqida ilk bor qiziqarli ma'lumotlarni to'plab, teran ilmiy mushohadalar yuritganlar. Xususan, e'tirof etilganki, O'zbekiston xududining barcha vohalarida, qo'shni Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmanistonda istiqomat qiluvchi o'zbeklar orasida, shunigdek, ayrim boshqa xorijiy mamlakatlarda azaldan tub o'zbek aholisi zich holda yashab kelayotgan yerlarda "musiqiy sheva"larning ko'rinishlari o'ziga xos, bir-birini takrorlamaydigan xususiyatlari bilan ajralib turadi. Kuzatilayotgan bunday ancha murakkab etnik, geografik, siyosiy-ijtimoiy, tarixiy-madaniy voqeylik to'laligicha qamrab olish, unga mukammal ta'rifu-tavsiflar berish qiyin masala, albatta bularning orasida hozirga qadar ko'lami jihatidan bir muncha kengligi, tarixan qadimiyligi, xususiyatlari bo'yicha benazir, betakrorligi bilan asosan to'rtta mahalliy uslub tavsif ila alohida-alohida ajratilgan bo'lib, o'zbek musiqashunosligida nisbatan atroflicha o'rganilgan. Ularning har bir muayyan xudud nomi bilan, ya'ni Toshkent-Farg'ona, Buxora-Samarqand, Xorazm va Surxondaryo-Qashqadaryo mahalliy uslublari, - deb yuritiladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, o'zbek xalq musiqasining tarixiy rivojlanishida mazkur mahalliy uslublarning kelib chiqishi juda ko'p narsalarga bog'liq bo'lgan. SHu jumladan, millatimiz shakllanishining tarixi uzun jarayonida serurug' va ko'p qabilali turkiy tili qadimiy qavlarning o'zaro birikib ketganligi, xalq hayotining uzoq-yaqin o'tmishda ro'y bergan olamshumul ahamiyatga molik katta ijtimoiy-siyosiy voqeyliklar (masalan, hozirgi O'zbekiston vohalarining davlatchilik nuqtaiy nazaridan qadimgi zamon va o'rtta asrlarda bir qator katta-kichik podsholiklar, saltanatlar, amirlik va xonliklarga kirgan yoki ichidan bo'linib ketgan), yerli aholining turmush tarzi, qishloq va shahar madaniyatining o'zaro o'zgarib turgan muvozanatlari, dehqonchilik, chorvachilik, kasb-hunarmandchilikning o'rni, iqtisodiy hamda ichki-tashqi savdo-sotiq ishlarining rivojlanishi darajasi, boshqa millat va elatlar bilan o'rnatilgan iqtisodiy, ijtimoiy hamda madaniy aloqalari, yaqin qo'ni-qo'shinichilikning o'zaro ta'siri ahamiyatlidir.

O'ziga xos mahalliy xususiyatlar marosim-maishiy musiqasida ham, nomarosim kuy-qo'shiqchilikda ham, bastakorlik va dostonchilik ijodkorligida ham, ashula va cholg'u ijodkorligida ham bevosita namoyon bo'ladi. An'anaviy uslublari zaminida bitilgan hozirgi zamon asarlarida ham bu xislatlar ozmi-ko'pmi, hamon namoyon bo'lishi mumkin.

Ajdodlarimiz tomonidan yaratilib, asrlar osha bizgacha yetib kelgan musiqa merosimizning bunday sifat ko'rsatkichi va fazilatlari o'zbek xalqining bitmas-tugammas, bepayon ijodiy salohiyati, yuksak badiiy didi va teran tafakkurlaridan yaqqol dalolat berishi tabiiydir. Zero, moziydan shu kunga qadar mahalliy san'at ahli an'anaviy ijodiyotning shakl va navlarini tobora takomillashtirib, uning badiiy barkamol namunalarini avaylab-asrab, yangidan-yangi ijodkorlik say'-harakatlari ila milliy-ma'naviy boyliklarini doimo ko'paytira borganlar. San'atkorlar xalqning orzu-umidlarini, sevincha va hayratlarini, quvonch va qayg'ularini, jamiki insoniy qalb ehtiyojlarini yuksak musiqiy idrok bilan tasvirlab berib, kishilarga hamisha ruhiy-ma'naviy ozuqa berishgan. Ular mumtoz musiqa orqali nafosat va ezgulik olishga tinglovchini oshno qilish istagida bo'lib, o'lmas qadriyatlar bilan hamisha bahramand etib kelganlar.

Kasbiy musiqa ijrochiligi sohasida san'atkorlar ustoz-shogirdlik an'anasini yuzaga keltirib, uni qadimdan bevosita qo'llagan holda faoliyat ko'rsatib kelishgan. O'zbekiston Markaziy Osiyoning turli vohalaridagi taniqli xonanda, sozanda va bastakorlar bilan o'zaro yaqin aloqalarda bo'lishgan. Ularning o'rta va yaqin sharqqa, qolaversa butun dunyoga mashhur bo'lgan olimlarimiz tomonidan ishlab chiqilgan musiqiy ilm-fan asoslaridan tajribali muallimlar yordamida, ko'plab maxsus nazariy risolalar orqali boxabar bo'lishgani ma'lumdir.

O'zbek xalq musiqasi mahalliy uslublarning o'ziga xos xususiyatlari

Toshkent-Farg'ona mahalliy-musiqiy uslubi o'zining har jihatdan salobatlilik bilan boshqa mahalliy uslublardan ajralib turadi. Ma'lumki, ushbu katta xududning aksariyat yirik shahar va qishloqlarida aholi zich joylashgan. Vohaning an'anaviy musiqa ijodiyoti umummilliy o'ziga xos mahalliy, boshqa uzoq-yaqin qo'shni mintaqalardagidan ayrim farqli xususiyatlari bilan ham tavsiflanadi. Tuzulishi jihatdan oddiy, ixcham hajmli mavzu va mazmun doyrasi bo'yicha xilma-xil kuy, qo'shiq hamda ashulalar bu xudduda juda keng tarqalgan. Jumladan, bu o'lkada bir qancha xalqchil maishiy, marosim, shuningdek, erkin tarzdagi cholg'u va ayrim janrlar qatorida ayollar qo'shiqlari ham nihoyatda mashhurdir. Mazkur mintaqaga xos bo'lgan yana ko'plab terma, bolalar qo'shiqlari, lapar, yalla, ashula, cholg'u kuy, bir qismli va turkumli maqom yo'llari, ko'proq esa katta yoki patnis (yovvoyi) ashulalar asosiy o'rin egallaydi.

Farg'ona voxasi – Toshkentning bastakorlar ijodkorligiga molik misollari esa hajman kattaligi, tuzulishi nisbatan murakkabligi, ba'zida usluban mutloq noyobligi bilan ajralib turadi. Tabiiyki, musiqa ijrochiligining kasbiy mezonlari ham yuqori darajada. Bu o'rinda ayniqsa katta ashula "milliy-mahalliy" jarayonga yorqin namuna bo'la oladi. O'zbek milliy

cholg'ularidan esa dutor, tanbur, sato, g'ijjak, qashqar rubobi, chang, nay, qo'shnay, surnay, karnay, nog'ora, doyra, (childirma), chirmanda kabilar juda ko'p qo'llanib kelingan.

Farg'ona-Toshkent maqomi namunalari o'zlarining xalqchil, shinavandabon xalq ashulalalriga yaqinligidan dalolat beruvchi bir qator xislatlar bilan ta'riflanadi. O'zbek tinglovchilari orasida mashhur bo'lib ketgan surnay maqom yo'llari, "yovvoyi" yoki "patnisaki" ashulalari, mumtoz cholg'u kuy hamda ularning noyob ijrochilik san'ati ham aynan shu xududning salohiyatli musiqa madaniyatiga xosdir.

Buxoro-Samarqand mahalliy-musiqiy uslubi o'rta osiyoning eng qadimiy markazlaridan bo'lgan Samarqand va Buxoroning musiqiy-uslubiy xususiyatlari bir oz o'zgachadir. Jumladan, Zarafshon vodiysi xududida istiqomat qiluvchi aholi musiqa merosida folklor hamda kasbiy ijodiyot qatlamlarining shakl, janr va ichki uslublari bir-birilaridan keskinroq ajralib turishi kuzatildi.

Asl ma'nodagi musiqa san'ati namoyandalari – bastakorlar, hofiz va sozandalar. Musiqa olimlari, ular qatoridan o'z vaqtida saroyda hizmat qilganlari, butun o'lkamizda juda katta obro' va mavqega ega bo'lganlar. Ular mumtoz ashula, kuy, maqom va boshqa rivojlangan shakllaradagi musiqa namunalarining ijodkorlaridir. Xassos ijrochi va bilimdon nazariyotchilaridan bir qanchasi esa nafaqat O'zbekiston balki butun Markaziy Osiyo, islom sharqi bo'lib shuhrat qozonganlar. San'atchi bir guruh ayollardan tashkil topgan "soz" nomli ijodiy guruhlar faoliyati shu voha madaniyatning o'ziga xos jihatlaridan biridir. Guruh ishtirokchilari mahalliy-an'anaviy musiqa hamda jozibali raqslarning mohir ijrochilari sifatida omma orasida keng tanilgan. "sozanda"larning ijro bisoti asosan kichik shakllarda, turfa mazmundagi o'zbek hamda tojik milliy kuy, qo'shiq va raqslardan iborat. Hozirda ham joylarda bunday an'analar yaxshi saqlangan.

Samarqand va Buxoro viloyatlaridagi qadimiy shahar hamda qishloqlarda qo'llanilgan milliy cholg'u turlarining son jihatdan ko'pligi va rang-barangligi bilan ta'riflanadi. Bu yerlarda sof cholg'u musiqasining boyligi, marosim va nomarosim mahalliy kuy-qo'shiqlarining o'ziga xosligi yaqqol kuzatiladi. Ya'ni o'zbek milliy san'ati serqirra ko'rinishlari ega bo'lishi qatorida o'zining tub tamoyillari orqali yaxlitlik va mushtaraklikni nomoyon qiladi. SHunigdek, mazkur viloyatlarga xos o'zbek musiqa folklorining ayrim jihatlarini tojik xalq musiqasi bilan ma'lum darajada umumiylikni ham xosil qilgan. Tarixiy taqdirlari, urf-odatlarini, madaniyati va san'ati o'zaro chambarchas bog'liq bo'lmish ikkala qardosh xalqning ijodiyotidagi mushtarak an'analari mahalliy aholi ma'anviy hayotida muhim o'rinlardan birini egallaydi.

Buxoro aholisi o'rtasida "mavrigi" nomli nodir janr namunalari uchrashi, tojik tilida aytiladigan qadimgi va zamonaviy qo'shiqlarning

tarqalganligini aytish mumkin. SHuningdek, o'zbek hamda fors-tojik xalq va mumtoz she'riy namunalari bilan uzviy bog'liq shashmaqom turkimidagi ustazona ashula yo'llar bunga ega yorqin misol bo'lib xizmat qiladi.

Xorazm mahalliy-musiqiy uslubi. Xorazm musiqa uslubi, avvalo, o'zining o'ta yorqin tusi va alohida jo'shqinligi va jozibadorligi bilan ajralib turadi.

Tarixdan ayonki, Xorazm diyori ham qadimiy va o'rta asr davrlarida butun Markaziy Osiyo xalqlarining katta madaniy-musiqiy o'choqlaridan biri bo'lgan. Ko'hna Xorazmning o'ziga xos mahalliy udum va an'analari barcha turmush jabhalaridan o'z aksini topganligini ham e'tirof etish kerak.

Bunday o'zgacha ximlatlar asosan yerli xalq musiqasining janr tarkibida, suvora, maqom yo'llari, dostonchilik, xalfachilik raqs kuylarida kuzatiladi. SHuningdek, bu musiqaning kuy-ohanglari hamda usullari tabiatida, mavjud musiqiy cholg'ulari va ulardagi ijrochilikda sezilarli darajada o'z aksini topadi.

Xususan, O'zbekistonning boshqa xududlarida doston janri ko'proq she'riy badiqali uslubga moyildir. Xorazmda esa dostonlar musiqiy jihatdan ifodalibroq tabiati, shaklan rivojlangan xalqchil kuy va nomalar bilan farq qiladi. Uzoq o'tmishda qo'biz, keyinchalik do'mbira jo'rligida dostonlar aytilgani ma'lum. Keyingi davrlarda dutor, ba'zida ozarbayjon tori yoki tarkibida asosan g'ijjak, dutor, bulamon va doyradan iborat ixcham an'anaviy ansambl ishtirokida doston aytish bu yerlarda odat tusiga kirgan.

Xorazmda qo'llanilgan milliy musiqa cholg'ulari ham ayrim o'zgacha xususiyatlari bilan farqlanadi. Jumladan, bulamon, respublikamizning faqat ushbu viloyatda hamda yaqin qo'shni xududlarda tarqalgan. Mahalliy surnayning ham o'zgachroq tuzulishi va yangrashi ma'lum. Taxminan XIX asrning ikkincha yarmidan e'tiboran to bugungi kungacha Xorazmda garmon sozi keng qo'llanib kelinmoqda. "Xalifa" nomli ayollar ijodiy guruhlarining noyob ijro bisoti ham xuddi shu o'lka mahalliy uslubining o'ziga xos xususiyatli jihatlaridandir.

Kavkaz xalqlarining "tor" eng mashhur musiqa cholg'usi XX asrning boshlarida o'z imkoniyatlari bo'yicha o'zbek sozandalariga juda maqul keldi. Bu jarangdor cholg'u zamonaviy qo'shiq va ashula ijrochiligi jo'rligida dastavval Xorazmda qo'llanila boshlagan.

Yana bir qator milliy musiqa asboblarning tuzulishida, ularning an'anaviy ijrochilik yo'llarida ham o'zgacha holatga duch kelish mumkin. Masalan, xorazmcha dutor kosaxonasini xajmi nisbatan kichgina, dastasi biroz ingichkaroq va kaltaroqligi bilan Farg'ona vodiysi va Toshkentda rasm bo'lgan an'anaviy dutordan farq qiladi. Mahalliy-an'anaviy dutor ijrochiligining kasbiy, jumladan sof cholg'u yoki maqomga mos chalish uslublari ham muayyan mushtarakligi qatorida o'zaro birmuncha farqlanadi.

SHu bilan birga ta'kidlash jazmki, Xorazm vohasining musiqiy uslubida qoraqalpoq, turkman, ayrim kavkaz xalqlari, jumladan, ozarboyjon xalq musiqasi bilan muayyan darajada yaqinlik bor.

Surxondaryo-Qashqadaryo mahalliy-musiqiy uslubi. O'zbekistonning eng janubida joylashgan ikki viloyat Surxondaryo va Qashqadaryoda istiqomat qiluvchi tub aholining katta qismi, respublikamizning boshqa qadimiy o'lkalaridanfarqli o'laroq, yaqin o'tmishda ham asosan chorvachilik bilan shug'ullanishgan. Turmush sharoitlari ham shunga moslashgan edi. Aholining faqat maolom qismigina dehqonchilik, bog'bonchilik va har xil hunarmandchilik ishi bilan band bo'lishgan. SHu boisdan asl mahalliy musiqa folg'kloridan ko'proq terma (cho'blama) hamda ommoviy, jamoa qo'shiqlari katta o'rin tutgan. Bular qatorida do'mbira kuylari, chorvadorlar hayoti va mehnati bilan bog'liq bo'lgan maishiy mavzulardagi aytim va kuylar yetakchilik qilgan. Qashqadaryo va Surhondaryo xududlarida joylashgan shahar va qishloqlarning. Musiqa madaniyatida kasbiy dostonchilik juda qadimgi davrlardan beri markaziy o'rin tutib ketgan. Ularning ijodkoru-bayonchilari hisoblanish "baxshi" lar hamisha el-yurt ardog'ida bo'lishgan.

O'zbekistonning boshqa viloyatlariga qiyos qilganda o'tmishda mazkur o'lkaning qishloq joylarida amalda qo'llanilgan cholg'u asboblari nisbatan chegaralangan edi. Bu yerlarda asosan do'mbira, cho'pon nay, changqobuz, doyra kabi sozlar kengroq tarqalgan.

Ammo Surxondaryo xududida o'tkazilgan arxeologik qazilmalar natijasida topilgan musiqa madaniyatiga oid bir qator ashyoviy dalillar (masalan, Ayritom toshtaxtasi, devoriy suratlar, terrakota xaykalchalari va boshqalar) bu o'lkada yirik shaharlarga xos san'atchilik an'analari juda qadimga davrlarda shakllanganini isbotlaydi. Ko'hna manbalarda mashhur (ba'zi taxminlarga ko'ra ilohiy) sozandalarning ramziy qiyofalari, mukammal shakllardagi sharqona torli, damli va zarbli cholg'ular yuksak mahorat bilan tasvirlangan.

Alqissa, ajdodlarimiz, tomonidan asrlar davomida yaratilib, zamonlar osha bizgacha yetib kelgan boy musiqa merosimizning turfa, noyob, usluban o'ziga xos va o'ziga mos tabiati – uning juda qadimiyligidan, kuchli va bitmas-tuganmas salohiyat sarchashmalaridan dalolat beradi. SHuningdek, bular xalqimizning har qancha faxrlanishga arzigulik ulkan va bebaho madaniy-ma'naviy xazinasidir.

Farg'ona-Toshkent mahalliy musiqiy uslubi

Farg'ona-Toshkent usulbi farg'ona vodiysi, Toshkent shahri va viloyati xududlarida qaror topgan musiqiy an'analarning majmuidir. Bunda xalq musiqasiga oid kuy, terma, lapar, yalla, qo'shiq, ashula kabi aytim janrlari,

shuningdek, maqom ijrochiligi kabi kasbiy musiqa hamda bastakorlik an'analari o'z aksini topgan.

Farg'ona-Toshkent musiqa uslubida bolalar folklori, xotin qizlarning qo'shiqchilik ijodi, yalla, ashula ijrochiligi hamda cholg'u kuylari munosib o'rin tutadi. Jumladan, mazkur uslubdagi bolalar folklori bo'lgan Boychechak, yomg'ir yog'aloq, laylak keldi, oftob chiqdi, chuchvara, chittigul kabi qo'shiqlar nafaqat shu sarhadda, balki butun diyorumiz bo'ylab mashhurdir. Xotin-qizlar davrasida laparu-yallalar, to'y marosimi qo'shiqlari bo'lgan "yor-yor", "kelin salom" va boshqa qo'shiq namunalari sevib aytiladi. Farg'ona-Toshkent musiqa uslubida "katta ashula" deb nomi bilan mashhur aytim yo'li odatda turli ommaviy yig'in va tantanalarda, bayram marosimlari va gap-gashtalarda hamda an'anaviy choyxona majlislarda hofizlar tomonidan ijro etib kelingan. XX asrning boshlarida Farg'ona-Toshkent musiqa uslubida Toshkent viloyati xududlarida istiqomat qilgan mahalliy aholi orasidan chiqqan Haydar ota Boychiev, Jumaboy baxshi, Razzoq baxshi Qozoqboev, Qobilboy baxshi kabi do'mbira chertib, doston aytuvchi baxshilar ham bo'lib, ularning repertuari asosan "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Rustamxon", "Avazxon", "SHirin va shahar" kabi dostonlardan tashkil topganligini ko'rishimiz mumkin. Xuddi ana shu baxshilar tomonidan Bo'ka dostonchilik maktabiga asos solinganligini va bugungi kunda ham uning bardavomligini ko'rishimiz mumkin.

Farg'ona-Toshkent musiqa amaliyotida deyarli barcha xalq cholg'ularini, jumladan, dutor, tambur, rubob, chang, sato, g'ijjak, nay, qo'shnay, surnay, karnay, doyra, nog'ora va boshqa sozlarni ko'rish mumkin. Bu sozlar vaziyatga qarab yakka yoki ansambil (dasta) shaklida namoyon bo'ladi. Xususan, ommaviy bayram, xalq tantanalari va to'y marosimlarida surnay, karnay, nag'ora va doyralardan iborat ansambil sadolari yangrasa, uyxona sharoitida esa sadolanish nisbatan yumshoq cholg'ular, tanbur, g'ijjak, qo'shnay, rubob va boshqalar qo'llaniladi. Binobarin, xalqimizning madaniy hayotida har bir milliy cholg'uning o'z o'ri, vazifasi va ijro etiladigan maxsus kuylari bor. Misol tariqasida dutorning tavsiflash mumkin. Bu sozda ijro etish maxsus "Qo'shtor", "CHertmak", "Dunyo bayoti" kabi kuylar bo'lmish bilan birga yana undan jo'rnavoz sifatida ham foydalaniladi. Bu o'rinda dutor (doyra kabi) xotin qizlar orasida keng ommalashgan cholg'udir. Ayni chog'da, ashulaga xofizlar ham dutorni tanbur bilan birga o'z ashula aytimlariga jo'rnavoz etadilar. Ammo tanbur, sato, nay, qo'shnay, g'ijjak, chang singari sozlar asosan kasbiy musiqachilar cholg'usi hisoblanadi, ya'ni bu sozlarda ijro etish uchun maxsus tayyorgarlik ko'rgan musiqachilar bo'lishi kerak.

Farg'ona-Toshkent cholg'u musiqasida raqs kuylari ham mashhurdir. Bulardan dilxiroj, Andijon polkasi, Farg'onacha rez, Tanovor, Namangan olmasi, katta o'yin kabi raqs kuylarini aytilish mumkin. Farg'ona-Toshkent

musiqa uslubida xotin-qizlar ijodi unumli bo'lib, ular orasida, jumladan, tarafma-taraf lapar aytishlar, turli qo'shiqlarni kuylash, to'y marosim aytimlari bo'lgan yor-yor, kelin salom va o'lanlarni kuylash ommaviy tus olgan. Bular ichida ayniqsa yallalar sevib ijro etiladi.

Yalla – ko'p xususiyatlari, jumladan, raqsbobligi, o'ynoqiligi, qolaversa, ijrochi o'zi kuylab, raqsga tushishi, shuningdek, ayrim hollarda ijroda ko'pchilikning ijro etishi mumkinligi kabi jihatlar bilan ajralib turuvchi janrdir. Ammo laparda eng avvalo aytishuvlik sifati muhim bo'lgani holda, yallada badiiy so'z (she'riyat), kuy va raqsning mushtarakligi nisbatan barqarordir. SHu boisdan yallaga “raqsbob aytim” (F.Karamatov), ya'ni raqs bilan kuylanadigan aytim iborasi qo'llaniladi. Ushbu holat “yalla” atamasida ham ma'lum aks etgan. CHunoncha, og'zaki ijodda “yalla” so'zi “o'ynab-kulish” va umuman, xushvaqtlik bo'lishlik ma'nolarida qo'llaniladi. SHundan kelib chiqqan holda “yalla” so'zi “o'ynab-kuyla” qisqartma “yalla” birikmasining ifodasidir, deb aytish mumkin. Yalla – bu band naqorat shakliga ega aytim bo'lib, u raqsga tushib kuylanadi. Bunda yakkaxon yalla ijrochisi doyra jo'rligida raqsga tushib bandlarni kuylasa, naqoratlarni davrada hozir bo'lgan ko'pchilik qo'shilib aytadi. Bundan tashqari Buxoro-Samarqand sozandalar va Xorazm xonandalariga yaqin bo'lgan kasbiy yalla ijrochilari ham bo'lib, ular yakka holda yoki ansambl tarzida namoyon bo'ladi. Yakka holdagi yalla ijrochisi, odatda, o'z aytimlariga dutor yoki doyra sozida jo'r bo'ladi. Yalla ansambli esa 2-3 ayoldan iborat bo'lib, faqat doyra jo'rligida kuylaydilar xotin-qizlar davrasida hozir bo'lgan yalla ijrochilarning repertuari asosan qo'shiq, lapar, yalla va to'y marosimi aytimlarida tuzilgan bo'ladi. Hadyaxon Hamdamova, Lutfixonim Sarimsoqova, Tamaraxonim, Rahima Mirzohidova va Oyimqiz To'xtaevalar yalla ijrochiligi san'atining mohir ustozlari edi.

Yalla aytuvchilarning yana bir ko'rinishi ham borki, uning ijrochilarini Namanganda “satang” deb ataydilar. Satang – yalla ijrochilari ko'proq turkum shaklida bo'lgan (ya'ni ikki qism va undan ortiq bo'lgan) katta yallalarni doyra jo'rligida raqsga tushib aytadilar. Xolisxon Qirg'izboeva, Saltanatxon Alieva Namanganda taniqli satang yalla ijrochilar bo'lganlar.

Yallaning o'ynab kuylash xususiyati uning so'z (she'r) va kuy (musiqa) asoslarida o'ziga xos aks etadi. Jumladan barmoq vaznidagi she'rlarni asosan yengil hazil mutoiba bilan yo'g'rilgan sevgi mavzularida bo'lib, uning naqoratlarida o'ynab-kulishga, xushkayfiyat bo'lishga davat etuvchi “Yalla” so'zi hamda uning “yallo”, “yalli” kabi shakllari ishlatiladi.

Yalloma yorim, yallola,

Yallolashaylik, bedodlashaylik (va hokazo)

Ba'zan “yalla” o'rnida “o'yin”, “o'ynasin”, “aylansin”, “o'rgilay”, “tarallo”, “xoralli” kabi so'z – iboralar ishlatiladi. Farg'ona-Toshkent musiqa uslubida xalq ashulalari ham muhim o'rin tutadi. Bu ashulalar terma, lapar,

qo'shiq singari aytimlarga nisbat ovoz doirasining kengligi hamda kuygan, so'lim ohanglari bilan ajralib turadi. Xalq ashulalari barmoq vaznida bo'lgan xalq she'rlari yoki aruz vaznidagi mumtoz she'riyat asosida aytiladi. Ashulalar ijod etilishiga ko'ra ikki xil bo'lishi mumkin:

1. Xalq og'zaki musiqa ijodida yuzaga kelgan ashulalar.

2. Nisbiy musiqaga oid ustoz bastakorlar tomonidan ijod etilgan ashulalar.

“Ey nozanin”, “Tanovor”, “Oydek to'libdur”, “Farzona”, “Ul parivash” singari xalq ashulalari nafaqat hofiz-ashulachilar, balki ziyolilar, hunarmandlar, kabilar va boshqa kasb egalari tomonidan ham ijro etib kelinadi. SHuningdek, bu turdagi ashulalar xotin-qizlar tomonidan ham “uy ichkarisida” kuylangan. Jumladan, “CHaman ichra”, “Tanovor” ning “Qora sochim” kabi ashula yo'llari dutor jo'rligida xotin-qizlar tomonidan sevib ijro etiladi. Ayni vaqtda “Angorim”, “Galdir”, “Nilor”, “Beboqcha”, “Fig'on”, “CHaman yalla” singari ashulalarni asosan kasbiy musiqachilar bo'lgan hofiz-ashulachilar kuylashadi. Bunda tanbur-dutor jo'rnavozligi ko'p qo'llaniladi. Ashullalar, an'anaga ko'ra, turli yig'in va majlislarda, to'y marosimlari va boshqa xalq tantanalarida ijro etilgan. CHoyxonalarda esa ashulachilarning ijodiy musobaqalari ham o'tkazib turiladi. Taniqli ashula ijrochilari qatorida Mamadbobo Sattarov, Boltaboy Rajabov, Erkaqori Karimov, Ortiqxo'ja Imomxo'jaev, Rasulqori Mamadaliev, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov, Mukarrama Azizova, Zaynab Polvonova, Fattoxon Mamadaliev kabi mashhur san'atkorlar nomini xurmat bilan tilga olamiz.

Farg'ona-Toshkent musiqa uslubidagi katta ashula janri – bu yirik hajmli bo'lib, uning kuy-ohanglari keng nafasli hofizlar ijrosi uchun mo'ljallangandir. Katta ashulani odatda ashulachi hofiz yoki 2-4 hamnafas ashulachi-hofizlar aytadilar. Bunda jo'rnavoz cholg'ular qo'llanilmaydi. Katta ashulalarda Lutfiy, Sakkokiy, Navoiy, Muqiyimiy, Furqat kabi mumtoz shoirlarning diniy-falsafiy, pand-nasihati va boshqa mavzulardagi she'riy namunalari qo'llaniladi.

Katta ashulalar ikki, ikki yarim oktava oralig'ida bo'lgan rivojlangan kuylarga ega bo'lib, erkin ritm-o'lchov asosida badihago'ylik (impravizatsiya) bilan kuylanadi. Bu ashulalarning “patnus ashula” yoki “likobchali ashula” singari nomlar bilan ham ataladi. Boltaboy hofiz, Hamroqul qori, Muhammadbobo Sattarov, Akbarqori Haydarov, Erkaqori Karimov, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov kabi hofizlar katta ashulaning mahoratli ijrochilari bo'lganlar. Bu san'atkorlar kuylagan “Ko'p erdi”, “Bir kelsun”, “Ey, dilbari janonim”, “Adashganman”, “Do'stlar”, “Yovvoyi chorgoh” kabi katta ashula namunalari xalqimiz orasida sevimliliigi bilan mashhur va ma'lumdir. Odatda katta ashulani juda qadim zamonlardan to'y va boshqa marosimlarda xalq ko'p to'planadigan joylarda, sayllarda,

ko'proq ochiq havoda ijro qilingan. Oldingi davrlarda kuylangan katta ashulalar ko'proq diniy mavzularga ega bo'lgan. Ollahga murojaatlar, marsiyalar kuylangan. Keyingi davrlarda esa zamonaviy ruhdagi ashulalar aytilgan.

Mustaqillikka erishilgandan so'ng milliy qadriyatlarimiz tiklana boshlaganda musiqa san'atimiz yana rivojlana boshladi. SHu jumladan katta ashula e'tibor kuchaydi. Jumladan, 1996 yil aprely oyida SHahrisabz shahrida respublika miqyosida katta ashula tanlovi o'tkazildi. SHu yili Namangan viloyati bo'yicha o'tkazilgan "O'zbekiston Vatanim manim" qo'shiqlar tanlovida katta ashula alohida janr qilib ko'rsatildi. Ashulaning boshqa turlari odatda o'tirib ijro etilsa, katta ashula ko'pincha tik turib aytiladi. Katta ashula kuyini deklamatsion harakterdaligi diapozonining kengligi (uch oktavaga yaqinligi), asosiy melodik tuzilmaning turli xilligi, qochirimga boyligi, o'z ritm o'lchovining muttasil (ma'lum me'yordagi tartibda) bo'lganligi bilan harakterlidir. Katta ashulani qadimda faqat erkaklar kuylar edilar, endi esa buni ayollar ham ijro etmoqdalar. Har bir davrning o'z san'atkorlari va ijodkorlari bordir. Musiqa sohasida VII asrda Xusrav saroyida yashab ijod etgan Barbad Mariy, XV asrda yashab ijod etgan Xoja Yusuf Andijoniy, shu davrda yashagan ustod nomini olgan ustod SHodiy va boshqalar ko'hna zamin fahridirlar. Barbad 1001 she'r va kuy bastalagan, Xoja Yusuf Andijoniy 360 dan ortiq kuy va qo'shiqlar yaratgan. Ustod SHodiy Iroq maqomi yo'lida 12 naqsh (naqsh-ashula) yaratgan Alisher Navoiy Xoja Yusufning nomini o'zining "Majois ul nafois" asarida katta hurmat bilan tilga olgan. Aytishlaricha Sulton Xusayn ham musiqa ilmini Xoja Yusufdan o'rgangan.

XX asr boshlarida Namanganda Abdulla Taroq, Samarqandda Domla Halim Ibodov, Xo'ja Abdulaziz Niyozov, keyingi davrlarda Buvayda tumanidan Rasul qori Mamadaliev Marg'ilondan Ma'murjon Uzoqov, Jo'raxon Sultonov, Baliqchidan Odiljon hofiz, Namangan viloyati O'n hayot qishlog'idan Mallavoy aka, Ibroyimjon aka va boshqa hofizlar ijod qilganlar. Hozirgi davrda Toshkentdan Eson Lutfillaev, Andijondan Fattohxon Mamadaliev, Marg'ilondan Tursunoy opa Rahimova, To'raqo'rg'ondan Mashrabjon va Tursunboy akalar, uchqo'rg'ondan aka-uka Qozaqovlar, Namangandan Yo'ldoshali Tillaboev, Abdusamad Komilov va boshqalar katta ashula yo'lida samarali ijod qilmoqdalar.

Toshkent va Farg'ona vodiysi bo'ylab keng tarqalgan hamda musiqiy amaliyotiga joriy etilgan maqom yo'llariga nisbatan "Farg'ona-Toshkent maqomi yo'llari" iborasi qo'llaniladi. Bu maqomlar Buxoro shashmaqomi va Xorazm maqomlaridan farq etib, bir turkumni tashkil etmaydi, balki alohida-alohida cholg'u va ashula yo'llaridan tashkil topadi. Xususan, Nasrullo I-IV, munojot I-IV, Ajam va taronalar, segoh I-III, CHo'li iroq, miskin kabi cholg'u kuylari, CHorgoh I-IV, Bayot I-IV, Bayotiy sherozi I-V, ko'cha

bog'i I-II, Gulyor SHahnoz I-V, Segoh, Dugoh- Husayn I-VII, Toshkent Irog'i va yana shularga o'xshash boshqa ashula yo'llari Farg'on-Toshkent maqomi yo'llariga mansubdir. Binobarin, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari tarkibida bir qismli namunalardan tortib, to besh-etti qismdan iborat turkum asarlar namoyon bo'ladi. Ushbu maqomlarning yana bir o'ziga xos tomoni shundaki, ulardan vodiya tarkib topgan ashula, yalla, katta ashula janrlarining ohang-kuy xususiyatlari hamda doyra usullari o'zining yorqin ifodasini topgan. An'anaviy ijroga ko'ra bu turdagi maqomlarning cholg'u kuylari yakka soz-dutorda, tanburda, g'ijjakda yoki tanbur, dutor, nay, g'ijjak, doyra cholg'ularidan iborat ansambl shaklida chalingan.

“Farg'ona-Toshkent maqom cholg'u yo'llari” xalqimizning sevimli kuylari bo'lib, ularni “Nasrullo I-IV”, “Munojot I-V”, “Ajam va uning taronalari”, “Miskin I-V”, “Segoh I-III”, “Mushkuloti segoh”, “Sayqal I-II”, “Mirzadavlat I-II”, “Mushkiloti dugoh”, “Cho'li iroq”, “CHorgoh”, “Surnay irog'i”, “Surnay dugohi”, “Surnay ushshog'i” kabi kuylar tashkil etadi. Turkumdagi tarkibiy qismlar rim raqamlari vositasida (“Miskin I”, “Miskin II”, “Miskin III” va hokazo) ajratiladi. Ba'zi turkumlarda maxsus nomlar ham uchraydi. Masalan, “Miskin I-V” cholg'u turkumining III qismi “Adoiy”, IV qismi “Asiriy” deb atalsa Nasrullo I-V ning II qismi “CHapandoz II qismi “Qashqarcha”, IV qism “Tarona va V qismi “Ufor” deb ataladi va hokazo.

Farg'ona-Toshkent maqom cholg'u turlari turli xil xalq cholg'ularida ijro etish an'anasi ham mavjud. SHuningdek, bu kuylar turli vazifalarda chalinadi. Masalan, surnay yo'llari xalq tomosha va bayramlarida, dorbozlar o'yini va to'y bazmlarida, dutor, tanbur yoki g'ijjak ijrolari “uy sharoitlari” da o'tkaziladigan turli yig'in va majlislarda namoyon bo'ladi.

Farg'ona-Toshkent maqom cholg'u kuylarining ijrochilari, odatda, kasbiy musiqachilar bo'lib, ular bu san'atni ustozlardan o'rganadilar. SHu tarzda bu san'atni bizga yetkazib bergan taniqli sozandalar qatorida Abduqodir Ismoilov (nay), Ahmadjon Umrzoqov (qo'shnay, surnay), Ashurali Yusupov (surnay), SHobarot tanburcha, Abdumutal Abdullaev (tanbur), Muxiddin hoji Najmiddinov (dutor, tanbur), Abdusoat Vahobov (dutor), Komiljon Jabborov (g'ijjak, dutor, tanbur), Maqsudxo'ja Yusupov (tanbur), Saidjon Kalonov (nay), Fahriddin Sodiqov (chang, dutor) G'anijon Toshmatov (g'ijjak), Turg'un Alimatov (Tanbur, dutor, g'ijjak, sato), G'ulomjon Hojiqulov (g'ijjak) kabi mahoratli ijrochilar nomini alohida ta'kidlash kerak.

Farg'ona-Toshkent maqom ashula yo'llari (cholg'u yo'llari kabi) alohida bo'lgan bir qismli namunalardan tortib ko'p qismli ashula turkumlarini namoyon etadi. Ayniqsa, besh qismli ashula turkumlari ko'proq uchraydi. Xususan, “CHorgoh”, “Bayot”, “Bayoti sheroziy”, “Gulyor shahnoz” singari ashula yo'llari aynan besh qismdan iborat turkumli asarlardir.

Farg'ona-Toshkent maqom ashula yo'llari o'z ijrolari bilan yuksaltirilgan maqom hofizlari qatorida SHorahim SHoumarov, Mulla To'ychi Toshmuhammedov, SHojalil hofiz, Ilhom hofiz, Sadirxon hofiz, Yunus Rajabiy, Rasulqori Mamadaliev, Fattohxon Mamadaliev, Orifxon Xatomov kabi ustoz san'atkorlarning xizmatlarini alohida ta'kidlash kerak. Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari Navoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Bobur, Mashrab, Muqimiy va boshqa mumtoz janrlarning she'rlari asosida kuylanadi. Maqom yo'llari xalqimizning madaniy hayoti bilan bog'liq turli vaziyat va sharoitlarda, xususan, surnay yo'llari to'y-bazmlarda, xalq tomoshalari va sayllarda, dorbozlik qiyin va boshqa tantanalarda ashula yo'llari turli yig'in kechalari va kunduzi majlislarda ijro etib kelinmoqda.

Xorazm mahalliy musiqiy uslubi

Xorazm musiqa uslubi-bu shu vohadagi xalq qo'shiq va laparlari, turli marosim, tomosha va o'yin-raqs kuylari hamda dostonchilik, ashulachilik va maqom san'ati kabi nisbiy musiqa an'alaridan tashkil topadi. O'zbek musiqasining tarkibiy qismi bo'lgan Xorazm musiqasi ayni vaqtda o'zgacha tarovatga ega bo'lib, uning ma'lum darajada turkman va ozorboyjon musiqasiga yaqinjihatlar ham bordir.

Professional ijod hisoblangan maqomlar xalq musiqasini ko'pgina jihatlarini o'z ichiga olganligiga hech shubha yo'qdir. Bu murakkab musiqa asarlarining hozirga qadar xalq orasida ijod etib kelayotganligi ham ularni juda mashhur bo'lganligini ko'rsatadi. SHu bilan birga, xalq musiqasi ham maqomlarga, xususan, bir qator taraqqiy etgan shaklda, ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgandir. Xalq musiqasi maqomlarga oila ta'sir etganini e'tirof etar ekanmiz, mehmonlarning ham xalq ijodiga ta'sir ko'rsatganini ham tan olmay bo'lmaydi. Buning uchun quyidagi misollarni keltirish kifoya. Xorazm xalq kuylaridan "Ne qoshu yuz" – "Rost" maqomi tasnifining bir yo'li, "Savti feruz" ham "Rost" maqomining bir yo'li, "Gulandonim bila" – "Navo" maqomi talqinining bir yo'lidir. "E, yor" qo'shig'i talqin uchun xos bo'lgan ritm tuzulishidan iboratdir. Bu Xorazm musiqasining asosi umum o'zbek milliy musiqasidan farq qiladi, degan ma'noni bildirmaydi. Aksincha, bu musiqa milliy musiqaning ajralmas bir qismi bo'lib, ma'lum darajada mahalliy xususiyatga egadir.

Xorazm musiqasining o'ziga xosligi uning an'anaviy cholg'ularida ham namoyon bo'ladi. Masalan, bulamon cholg'usi bu uslubda keng qo'llaniladi. Bu boshqa mahalliy uslublar uchun xos emas (ya'ni bulamon boshqa usulblarda uchramaydi). Bu soz tut daraxtidan ishlangan kichik surnay shaklidagi cholg'u bo'lib, unda yakka holda va ansambillar tarkibida ijro etish mumkin.

Xorazm Kavkazning mashhur tor cholg'usi ham keng tarqalgan. XIX asrdan boshlab esa "garmon" cholg'usi ham qo'llana boshlagan. Uni "soz" deb atashdi. Bundan tashqari Xorazm musiqa amaliyotida deyarli barcha o'zbek xalq cholg'ulari dutor, tanbur, g'ijjak, nay, qo'shnay va boshqalar qo'llangan holda, do'mbira sozi uchramaydi.

Xorazm musiqa uslubida raqs va umuman, o'yin, harakatlari bilan bog'liq cholg'u kuylari salmoqli o'rin tutadi. Raqs-o'yin kuylarni bir necha turlarga bo'lish mumkin.

1. Xalq orasida ommalashgan raqslar. Ularning asosini "Lazgi", "Ganji qorabog'", "Ufori" kabi kuylar tashkil etadi.

2. Dorbozlarning o'yin kuylari. Ularni "Elpazalandi, "Ufori Yelpazalandi" kabi kuylar tashkil etadi.

3. Qiziqchi va masxarabozlarning o'yin-kuylari. Bu kuylarni CHOqalloq, Azaz, Azazning tezi, xorazmcha, yuz bir, ot ya'ni, surnay yo'li kabi namunalar tashkil etadi. Xorazm raqs va o'yin kuylari ommaviy bayram sayllarda ijro etiladi. O'tmishda esa Xiva xonligi madaniyatida o'tkazilgan xalq sayli kunlari "Xatarli o'yin" nomli turkum mazmunida ham namoyish etiladi. "Xatarli o'yin"da parrandalar va uy hayvonlarining xatti-harakatlari (masalan, tustovuq o'yin, ot o'yini, kaptar va boshqalar) hamda "Olma terish", "Kampir", "Ko'knori" kabi maishiy sahnalar musiqa jo'rligida komik harakatlar vositasida aks ettirilgan.

Xorazm xalq laparlari haqida gapiradigan bo'lsak, ikki va undan ortiq ijrochilarning tarafma-taraf bo'lib kuylashlari, musiqiy aytishuvlari voha ijodiyotining yana bir o'ziga xos go'zal namunalaridan biri hisoblanadi. Laparlar aytilayotganda raqsga ham tushish mumkin, chunki ularda raqsbop usullar, ayniqsa ufor usuli keng qo'llaniladi. Laparlar boshqa qo'shiqlardan voqeabandligi, diolog shaklda ijro etilishi bilan ajralib turadi. Xatto ularning bir turi bo'lgan o'yin laparlarini ham ikki kishi o'yinga tushib ijro etadi. Yoki o'yinchi aytgan bandning naqorati cholg'uchilar tomonidan takrorlanib turadi. Odatda uylanish to'ylarida qiz uzutar kechasi yor-yor aytilsa, lapar, bayt-g'azal, lirik termalar, o'yinlar "qiz oqshomi", "Qizlar majlisi", "Qiz oshi", "Lapar kechasi" deb ataladigan, ya'ni nikohdan bir-ikki kun oldin uzatiladigan qizning uyida dugonalari yig'ilib o'yin-kulgu qilishganda aytiladi. Ba'zan hashar, tikar, charh yigirar, pilla terdi kabi qizlar ishtirok etadigan mehnat yig'inlarida aytiladi. Odatda laparlarda naqoratlar bo'lmaydi, ularda savol-javob shakliga asoslangan she'riy bandlar ko'p qo'llaniladi. SHuni ham aytish kerakki, Xorazm musiqa uslubida laparlar nafaqat ikki kishi tomonidan, balki yakkaxon (asosan ayollar) tomonidan raqsga tushib aytilishi ham mumkin. Quyida misollar sifatida keltirilgan "Par devol" va "Oxtaraman" kabi aytimlar yakkaxon tomonidan kuylanadigan laparlarni keltirib o'tamiz:

"Oxtaramandan" Do'stlar ayb aylamang,

Birjonajon oxtaraman.
CHo'li maydonlar kezib,
Vafoli yor axtaraman.
“Par devoldan” Par devola, pardevol,
Pardevolning gardi bor.
Yaxshi ko'rgan yorimning,
Yuragida dardi bor.

An'anaga ko'ra laparlar xalq bayrami va sayllarda, to'y marosimlarda va boshqa ommaviy tantanalarda ijro etilgan.

Xorazmda ashulachilik san'ati haqida quyidagilarni keltirib o'tish joizdir. Vohada ashula ijrochilik san'ati ravnaq topgan bo'lib, ashulachilarni xalq orasida ko'proq “go'yanda” deb ataydilar. Ashula janrining muhim jihatlari shundan iboratki, u asosan mumtoz she'riyat namunalariga asoslanadi. Kuy ohanglari esa qo'shiq va laparlarga nisbatan keng rivojlangan bo'lib, ovoz ko'lami (diapozon) bir oktava va undan ortiq bo'ladi. Xorazmda “Suvora” nomi bilan ma'lum va mashhur ashula turkumlari mavjuddir. So'zi fors-tojikcha bo'lib, “otliq” ma'nosini bildiradi. Ustozlar “Suvora” ashula yo'llarini ot tuyog'idan xosil bo'ladigan turli ritmik tuzilmadagi usullar va ularning asoslangan kuylarni ifodalaydi, deb ta'kidlaydilar.

Xorazm suvorolari Navoiy, Mashrab, Nodira, Zalimiy, Ogahiy, Munis, Avaz O'tar, Bedil kabi shoirlarning she'rlari asosida aytiladi. Xorazmda Suvora ijrochilarining didalishma yoki diydalishma deb ham yuritiladigan o'ziga xos musobaqalari o'tkazib turiladi. Bunday musobaqalarda qatnashayotgan ashulachilarning har bir dastlabki (birinchi) ashulachi taklif etgan ashula kuyi asosiga yangi she'rlar bog'lab, navbatma-navbat kuylaydilar. Bu ijodiy vazifani yuqori mahorat bilan bajargan ashulachi didalashma musobaqasida g'olib chiqadi.

Suvoralarning mashhur ijrochilari qatorida Hojixon Boltaev, Komiljon Otaniyozov, Madrahim Yoqubov (SHeroziy) kabi ijrochilarning nomlari alohida hurmat bilan tilga olinadi. Xorazmda suvora ashula yo'llarining ikki turkumi mashhur bo'lib, ular quyidagicha nomlar bilan aytildi:

1.O'n ikki Suvoradan iborat Savta suvoralar turkumi. Bu turkumdagi har bir Suvora rim raqami bilan belgilanadi. Masalan, Savti Suvora I, Savti Suvora II, Savti Suvora III, va hakazo. Mazkur turkumdaga barcha suvoralar 6/8 o'lchov vaznidagi doyra usullari bilan ijro etiladi.

2.Suvoralarning yana bir turkumining yirik shakli suvoralar majmuasi tashkil etadi. Bu suvoralar turkumidagi har bir Suvoraning mahsus nomi bo'lib, ular Suvora, CHapandozi Suvora, Yakparda Suvora, Hushparda Suvora, Kajhang Suvora kabi ataladi. Bu Suvoralarda 6/8, 3/4, 3/8, ritm -

o'lchovlar va ularga muvofiq doyra usullari qo'llaniladi. SHuningdek, Xorazmda Suvoralardan tashqari yana alohida ashula yo'llari ham mavjuddir.

Epik asarlarni kuylovchi ijodkorlar - dostonchilarni xalq orasida turli-tuman atamalar bilan nomlab kelganlar. Dostonchini Xorazmda baxshi deb ataydilar. Xorazmda uztoz baxshi rahbarlarligida uch-besh kishidan iborat ijrochilar jamoasi tuziladi. Xorazm baxshilarining bunday ansambli ustoz baxshi, bir bulamonchi, biri g'ijjakchi yoki ikki bulamonchi, ikki g'ijjakchi yoki faqat bulamonchi va bulamonchilar hamda faqat g'ijjakchi va g'ijjakchilardan iborat bo'ladi. SHogirdlar bular sirasiga kirmaydi. Ta'limning keyigi bosqichlarida shogirdlar dutorda ustoz baxshiga jo'r bo'lishlari mumkin. Bunda ansambli a'zolarining soni shogirdlarning soniga qarab ko'p yo oz bo'ladi. SHuni ham aytish kerakki, asrimizning 30 - yillaridan boshlab, bir necha Xorazm baxshilari dostonlarni tor va rubobda kuylay boshladilar. SHu munasabat bilan ayrim baxshilar ansambilida g'ijjak o'rniga skripkadan foydalanish, ansambлга doyrachi, hatto o'yinchi olib kirish hollari bo'ladi. Bola baxshi va uning ansambli bunga yaqqol misol bo'la oladi. Lekin bu hol epik traditsiya uchun tipik hodisa emas.

Xorazm dostonchilik maktabi o'z an'alariga ega bo'lib, u boshqa mahalliy dostonchilik maktablaridan farqli jihatlariga ega. Bu farqlar asosan quyidagilar iborat:

a) Xorazm dostonlari "Ochiq ovoz" uslubida kuylash xususiyatlari bilan izohlanadi.

b) Xorazm dostonchiligida cholg'u ijrochilar ansambli qatnashadi. Bunda ustoz baxshi dutor, tor yoki rubobda, qolganlar esa g'ijjak, bulamon va ba'zan doyra sozlarida jo'r bo'lishadi.

v) Xorazm dostonlari repertuarini asosan "Oshiq G'arib va SHohsanam", "Go'ro'g'li", "Kuntug'mish", "Bozirgon", "Oshiq Oydin" kabi dostonlar tashkil etadi. Biroq, Xorazm dostonchiligida qahramonlik dostoniga mansub "Alpomish" namunasi uchramaydi. Xorazm dostonchiligining yirik vakllari qatorida Ahmad baxshi, Bola baxshi Ro'zimbek Murodov, Qalandar baxshilar nomini aytish kerak.

Xorazm musiqa uslubi doyrasida dostonlarni garmonda (sozda) ijro etish an'anasi ham mavjud bo'lib, bunda dostonlar bir butun yaxlit shaklda emas, balki undan olingan parchalar va termalar aytiladi. Bunday ijodkorlar baxshi emas, balki sozchi deb yuritiladi. Masalan, Qurbon sozchi, Qodir sozchi va boshqalar.

Yuqorida bayon qilinganlardan ko'rinadiki, epik asarlarni kuylash, avlodlardan-avlodga saqlab qolish va elga yetkazishda O'zbekistonning deyarli barcha yerlarida yakka ijrochilik hukmron bo'lsa, Xorazmda asosan jamoa ijrochilik (ansamblli baxshilar ijrochiligi) yetakchilik qiladi. Ijro davomida dostonlarning she'riy qismlari kuylansa, nasriy o'rinlari baxshilarning o'zlariga xos yoqimli ovozda so'zlanadi.

Xorazmda epik asarlarni, ulardan olingan parchalar va ayrim termalarni kuylovchi va aytuvchi ijodkorlarning yana bir turini xalfalar deb yuritiladi. Xalfachilik ayollar o'rtasida keng tarqalgan. Xalfachilik san'ati ikki xil:

a) ansambilli xalfalar:

b) yakka xalfalar.

Xorazm xolfalari Buxoro-Samarqand sozandalari singari asosan xotin-qizlar ishtiroki bilan bog'liq turli yig'in, marosim va bayramlarda qatnashadilar.

Ansambilli xalfalar uch kishidan iborat, ya'ni ular ustoz xalfa boshchiligida (xalfaning o'zi garmon chaladi va ashula aytadi), doyrachi (ashulaga jo'r bo'ladi va va ba'zan raqsga tushadi), o'yinchi (raqsga tushadi, qayroq bilan o'ynaydi, yalla va lapar aytadi, ba'zan doyra chaladi) birlashib to'p, ansambil tashkil etadilar. Bu tip xalfalar xalq dostonlarini, ulardan olingan parchalarni, to'y qo'shiqlarini, lapar va yallalarni, o'zlari yaratgan yoki boshqa ijodkorlar asarlarini garmon va doyra jo'rligida kuylaydilar. Bibi SHoira, Xonimjon xalfa, Ojiza, Anash xalfa, Nazira Sobirova, Onajon Safarova kabilar shunday xalfalardandir.

Yakka xalfalar doston va qo'shiqlarni sozsiz ijro etadilar. Ular dostonlarni yodaki yoki qo'lyozma va kitobdan qiroat bilan badiiy (yoqimli ohangda) o'qish, "Yor-yor", "Kelin salom", "Muborak" kabi to'y qo'shiqlarining chiroyli ijro etish bilan shuhrat qozonganlar. Bu jihatdan ular o'tmishda xotin-qizlar orasida kitobxonlik (qissaxonlik) qilgan otin oyilarga o'xshab ketadilar. Roziya Matniyoz qizi, Saodat Hudoyberganova, Poshsha Sayidmamat qizi, Anbarjon Ro'zimatova, Anorjon Razzoqova kabilar shunday xalfalardandir. Ansambilli xalfalar to'y va tantanalarga ishtirok etsalar, yakka xalfalar to'yu tantanalardan tashqari motam marosimida ham ishtirok etadilar. Motam kunlarida "Ibrohim Adham", "Bobo Ravshan" kabi dostonlar qiroat bilan o'qilgan.

Xalfalar mahalliy xalqning barcha to'y hashamlarida, turli marosimlarda, ayollar yig'inlarida va bayramlarda qatnashadilar, to'y va marosimlarni boshqaradilar. Xalfachilik jozibali va navqiron ayollar san'ati sifatida Xorazm vohasida shu kunlarda ham keng davom etmoqda.

Yuqoridagi qo'shiq namunali Xorazmning mashhur xalfalaridan biri – ojiza ijodiga mansubdir. Xalfaning to'liq ismi aslida Onabibi Otajonova (1901-1952) bo'lib, ko'zi ojizligi sababli xalq orasida "Ona bibi qoriy" nomi bilan tanilgan. Ojiza esa tahallusidir.

Buxoro-Samarqand mahalliy musiqiy uslubi

Buxoro-Samarqand musiqa uslubi deganda Buxoro va Samarqand shaharlari va viloyatlarida qaror topgan musiqiy an'analar tushuniladi. Diyorimizning qadimiy madaniyat maskanlari bo'lmish bu vohalarda xalq

qo'shiqlari, ashulalari, cholg'u kuylari, qarsak o'yin aytimlari hamda kasbiy musiqaga doir dostonchilik, sozanda san'ati va maqom namunalari keng o'rin tutadi.

Buxoro-Samarqand musiqa uslubining o'ziga xos jihatlaridan biri unda ikki tillilik, ya'ni o'zbek va tojik tillari an'anasining namoyon bo'lishidir. Bu holat shu sarhadda yashab, faoliyat ko'rsatgan ko'pgina shoirlar, jumladan, Mujrim Obid, Abdulla Mulham, Fitrati Zardo'zi Samarqandiy, Muznib SHavkatiy Kattaqo'rg'oniy ijodiga o'z aksini topgandir. Ikki tillilik an'anasi xalq musiqasida o'zgacha shakllarda aks etadi. CHunonchi, ayrim xalq qo'shiqlarini ayni vaqtning o'ziga ham o'zbek ham tojik tillarida kuylash mumkin. Odatda qo'shiqning bandlari o'zbek tilida, naqoratlari esa tojik tilida hamda aksincha ham bo'ladi. Bundan tashqari, ayrim xalq qo'shiqlarining o'zbek yoki tojik tillarida kuylash imkoniyati mavjuddir. SHuningdek, faqat bir tilda yo o'zbek, yo tojik tilida kuylash uchun ijod etilgan xalq qo'shiqlari ham uchraydi.

Qarsak janri. Bu o'yin aytimning turi bo'lib, u turli xil tomosha va davralarda ko'pchilik tomonidan ijro etiladi. Bunda davrada xozir bo'lganlar aylana shaklida o'tirishib, yakkaxonning aytimi va raqsiga qarsak bilan jo'r bo'lib turishadi va naqoratlarni kuylashadi.

Besh qarsak. Demak, qarsak janri band-naqorat shaklida bo'lib, bandlarni yakkaxon (aytimchi) aytadi, davrada o'tirganlar esa naqoratlarni kuylashadi. Qarsak o'yin aytimlarining bir necha turlari mavjud. Jumladan, qars, yakka qars, qo'sh qars, uch qars, besh qars kabi nomlar bilan ataluvchi qarsak turlari bor.

Sozandachilik maktabi. Buxoro-Samarqand musiqa uslubida sozandachilik maktabi va san'ati ham shakllangan bo'lib, u ayollar ijodi bilan bog'liqdir. Sozanda bu yakkaxon-aytimchi bo'lib, u qo'lida qayroq yoki zang (qo'ng'iroqcha) bilan raqsga tushib, qo'shiq bandlarini kuylaydi. 2-3 ayoldan iborat doyrachilar dastasi esa naqoratlarni bilan jo'r bo'lib turadi. Demak, sozanda dastasi (ansambil) da jami 3-4 ayol yakkaxon sozanda, doyrachi, naqoratchi, qatnashadi.

An'anaga ko'ra, sozanda dastalari o'z san'atini faqat xotin-qizlar davrasida o'tkaziladigan yig'in, to'y va turli bayramlarda namoyish etadi. Ularning repertuari o'zbek va ko'proq tojik tilida bo'lgan ko'p qismli o'yin-aytim turkumlaridan iborat bo'ladi. SHuningdek, ayrim ayrim qo'shiqlarni ham o'zbek, ham tojik tillarida kuylash an'anasi mavjud. Odatda sozanda o'z aytimini vazn, lekin tantanavorlik ruhi bilan sug'orilgan "To'y muborak" qo'shig'i bilan boshlaydi. So'ngra asta jadallashib boruvchi raqs-o'yin aytimlari birin ketin, to'xtovsiz ijro etila boshlanadi.

Doyrachilar ham naqoratlarni bilan, ham usullar bilan jo'r bo'lib turishadi, ba'zan esa turkum davomida ikki xil tuzilishga ega ritmlarni o'zaro munosib ijro etadilar.

Xozirgi paytda sozanda dostonlarida rubob va hatto akardeon ham qo'llana boshlandi.

Mavrigi janri. Mavrigi – ko'p qismdan iborat o'yin-aytimlar turkumi bo'lib, uning ijrosida uch va undan ortiq kasbiy xonandalar va 1-2 o'yinchi (raqqos) lar ishtirok etadi. Mavrigi asosan erkaklar tomonidan aytiladi va raqs-o'yinga tushiladi. Jo'rsiz sifatida faqat doyradan foydalaniladi. Ammo bu sozni chertish uchun maxsus doyrachilar taklif etilmaydi. Balki uni xonanda-ashulachi chertadi. Demak, honandalar bir vaqtning o'zida ham ashula aytib, ham doyra chertib, o'zlariga jo'rvoz bo'ladilar. Mavrigi aytimlarida ikki tillilik an'anasi namoyon bo'lib turadi, ya'ni turkumdagi ashula qismlari o'zbek va tojik tillarida kuylanadi. Mavrixonlik asosan Buxoro va shu viloyatning ayrim tumanlarida tarqalgan bo'lib, turli davra va bazmlarda ijro etiladi. Bunda “yakkaxon ko'pchilik” (bandchi-naqoratchi singari) bo'lib aytish hamda yalpi jamovaiy (hamma xonandalar birgalikda) tarzda kuylash turlariga keng o'rin beriladi. Mavrigida ikki va undan ortiq qismlar bo'lib, ular birin-ketin ijro etiladi. Dastlabki qism vazminroq ruhda bo'lgan “kirish” vazifasini bajaradi. Keyingi qismlarga o'tilgani sari ritmlar kuchayib, o'yin-aytimlar jadallashib boradi. SHu sababdan ham bunday turkumlarda raqs usullari asosiy o'rin tutadi.

Dostonchilik tabiati va baxshilar shaxsi shu darajada murakkabki, ularga bir tomonlama yondoshish va bir nuqtai nazardagini baho berish mumkin emas. Baxshilar umumiy g'oyaviy yo'nalish, sinfiy mansubiyat, keng ma'nodagi repertuar birligi, ijro va kuylarning o'xshashligi, dostonchilikning asriy an'analari jihatidan umumiylikka, birlikka ega bo'lsalarda, har bir dostonchi yoki dostonchilar guruhiga xos poetik yo'l, uslub, repertuar harakteri, ijro usullari bilan bir-biridan farq ham qiladilar. Boshqacha qilib aytganda, umumlashgan puxta epik an'ana doyrasida ma'lum baxshi yoki baxshilar guruhiga xos individual ijodiy xususiyatlar, yo'llar, uslublar o'zgachaligi, ustoz-shogird munosabatlari, xududiy ayrimliklar mavjud. Bunday farqlarni ko'rsatish uchun Hodi Zarif folklorshunoslikda dostonchilik (baxshilik) maktablari iboralarini qo'llagan hamda Bulung'ur va Qo'rg'on dostonchilik maktablari vakillarining shajarasini tuzib chiqqan edi. Keyingi tekshirishlar va ekspiditsiyalar davomida yana qator dostonchilik maktablari aniqlandi. Yurtimizda bu maktablar Bulung'ur, Qo'rg'on, Xorazm, SHahrisabz, Nurota, Narpay, SHerobod, Qarshi, Pskent kabi yetakchi baxshilar yetishib chiqqan joylar nomlari bilan ataladi.

Bulung'ur dostonchilik maktabida “Alpomish”, “Yodgor”, “Yusuf bilan Ahmad”, “Rustamxon”, “Go'ro'g'lining tug'ilishi”, “Jahongir” kabi qahramonlik dostonlari yetakchi o'rin tutadi. Jo'rnavoz soz sifatida do'mbira sozi qo'laniladi. Amin baxshi, CHinni shoir, tavbuzor shoir, Qurbonbek shoir, Yo'ldosh-bulbul, Yo'ldosh shoir, Qo'ldosh Suyar kabi baxshilar bu

maktabning o'tmishdagi (XIX asr) yirik namoyandalaridir. Fozil Yo'ldoshev o'g'li (1872-1955) bu maktabning so'nggi yirik vakillaridan biri edi. Qo'rg'on dostonchilik maktabida ham "Alpomish" dostoni ijro etilgan bo'lsa-da, biroq unda ishqiy romantik dostonlarga (jumladan, "Gulnor pari, "Qunduz bilan Yulduz", "Oysuluv", "Kuntug'mish" va boshqalar) ga ko'proq e'tibor beriladi. Qo'rg'on dostonchilik maktabining o'tmishidagi yirik vakillari qatorida Yodgor Lafas, Mulla Tosh, Mulla Holmurod, Jumanbulbul kabi baxshilarni aytish kerak. Ergash Jumanbulbul o'g'li (1868-1937) va Pulkan shoirlar (1874-1941) bu maktabning yirik namoyandalari edi.

Baxshilar repertuarining hajmi ham bir xil emas. Odatda oddiy baxshilar besh-o'nta doston bilganlar. SHunda ham bir-ikki dostonni yaxshi kuylaganlar. Eng qobiliyatli, talantli, yuksak hofiza quvvatiga ega bo'lgan ijodkorlar repertuarida o'ttiz-qiriq va hatto undan ortiq dostonlar bilgan. Ergash shoir, Fozil shoir, Islom shoirlar shunday dostonchilardan edilar. Ular bir qator epik asarlarni el orasida kuylab kelishda va bunday namunalar folklorshunoslar tomonidan yozib olingan paytda shu darajada dostonchilik mahoratini namoyin qilganlarki, bunday dostonlarning ko'pchiligi ularning nomi bilan abadiy muhirlanib qoldi. Masalan, "Alpomish" deganda beihtiyor ko'z o'ngimizda Fozil Yo'ldosh o'g'li, "Ravshan" deganda Ergash Jumanbulbul o'g'li, "Orzugul" deganda Islom Nazar o'g'li namoyon bo'ladi. Favqulotda xotira qudratiga ega bo'lgan improvizator kuychilar yetmishtacha xalq dostonini kuylab kelganlar. Davrimizning atoqli dostonchisi Pulkan shoir va uning repertuari bunga yaqqol misol bo'la oladi. U yetmishdan ortiq dostonni yod bilar edi. Har bir doston ikki-uch ming satrdan tortib o'n-o'n besh, hatto yigirma ming misragacha she'rni, qariyb shuncha prozoik qismini ham o'z ichiga olishini hisobga olsak, xalq baxshilarining salohiyati, hayratomuz yodlash va esda saqlash qobiliyati, ijod qilish qudrati o'z-o'zidan ayon bo'ladi.

Endi Buxoroning olti maqomi haqida fikr yuritsak. SHashmaqom bu olti maqom degani bo'lib, u quyidagi olti maqomdan tashkil topadi.

1. Buzruk maqomi.
2. Rost maqomi.
3. Navo maqomi.
4. Dugoh maqomi.
5. Segoh maqomi.
6. Iroq maqomi.

Maqom aslida arabcha so'z bo'lib, "o'yin", "joy" ma'nolarini anglatadi. Musiqada esa "parda" ma'nosini bildiradi, ya'ni torli cholg'ulardagi soz pardalarini bildiradi.

Olti maqomning har biri o'ziga xos tovush-pardalarga ega bo'lib, bu pardalar asosida bastakorlar cholg'u kuy va ashula yo'llarini yaratadilar. Binobarin olti maqomdagi har bir maqom ikki yirik bo'limdan - cholg'u va

ashula yo'llaridan iboratdir. Bunday asarlarni esa. "ustoz-shogird" maktabida tahsil ko'rgan kasbiy cholg'uchi va ashulachi hofizlarga mahorat va malakali ijro eta oladilar.

Kasbiy cholg'ular orasida tanbur torli-chertma sozi keng qo'llaniladi. Bu sozda noksimon o'yma kosa va unga ulangan dasta bo'lib, tut yog'ochidan tayyorlanadi.

Tanburda torlarning soni uchtdan oltitagacha bo'lishi mumkin. Ammo hozirgi davr ijrochilik amaliyotida ko'proq uch simli tanbur qo'llanishi odat tusiga kirdi. Tanburning torlari ko'rsatgich barmoqqa kiyiladigan nohun yoki tabiiy tirnoq vositasida chertib chalinadi. Unda maqom va maqom yo'lidagi boshqa yirik cholg'u kuylari ijro etiladi. Hamma hofizlarga jo'rnavozlik vazifasi bajariladi. SHuningdek, Buxoro musiqa amaliyotida tanbur, nay va doyra sozlaridan iborat cholg'u ansambili an'anaviy tus olgan.

Domla Halim Ibodov, ota Jalol Nosir, Ota G'iyos Abdug'ani Hoji Abdulaziz Rasulov, Levi Boboxonov, Yunus Rajabiy kabi ustozlar olti maqom turkumining mahoratli ijrochilari edilar. CHunki maqomlarning ashula yo'llarini ustoz hofizlar kuylashadi. Ularda qo'llangan mumtoz she'riyat namunalarida esa ikki tillilik an'anasi namoyon bo'lib turadi. Ya'ni maqom ashula yo'llarida aruz vazniga asoslangan o'zbek va tojik she'rlarining qo'llash mumkin. SHu bois ham hozirda shashmaqomning Tojikistonlik hofizlar tojik tilidagi she'riyat namunalari asosida kuylaydilar. Bunda, ayniqsa, Navoiy, Lutfiy, Sakkokiy, Mashrab, Bobur, Muqimiy singari shoirlarning she'rlari keng qo'llaniladi.

Samarqandlik mashhur hofiz va bastakor, o'zbekiston xalq artisti Hoji Abdulaziz Rasulov (1852-1936) tanbur va dutor chertish hamda ashula aytish yo'llarining mukammal egallagan san'atkor edi. Uning ijrochilik bisotida (repertuarida) ikki yuzdan ziyod ashula va cholg'u kuylari bo'lib, bunda hofiz ashula yo'llarining Buxoro-Samarqand an'anasiga oid o'zbek va tojik tillarida kuylagan. SHu bilan birga Hoji Abdulaziz Rasulov nafaqat Buxoro-Samarqand musiqa uslubini, balki o'zbek musiqasiga doir boshqa mahalliy an'analarni ham ijodiy o'zlashtira olgan san'atkordir.

Xususan, Buxoro-Samarqand hofizlari maqom yo'llarini tanburda jo'rnavozlik qilib aysalar, Hoji Abdulaziz Rasulov bu o'rinda dutorni ham qo'llayveradi. Maqom ijrochiligida dutordan foydalanish amaliyoti esa Xorazm va Farg'ona-Toshkent musiqa uslublariga ko'proq xosdir.

Surxondaryo-Qashqadaryo mahalliy musiqiy uslubi

Surhondaryo-Qashqadaryo musiqa Surhondaryo va Qashqadaryo viloyatlari hudidida shakllangan barcha musiqiy badiiy an'analar tushuniladi. Bu an'analar mehnat ayimlari, mavsumiy-marosim qo'shiqlari, cho'ponlar ijodi, baxshilar san'ati va xalq ijodiga oid yana ko'plab qo'shiq va cholg'u kuylaridan tashkil topadi. SHuni aytish kerakki, musiqiy an'analarning kelib

chiqish negizlari qadimiy davrlarga taaluqli bo'lib, ulari turli vaziyatlarda, jumladan, xalqning turmush-tarzi bilan bog'liq turfa ko'rinishlarda, mehnat jarayonlarida, oilaviy sharoitda o'tkaziladigan urf-odat va marosimlarda, ommaviy sayl va tantanalarda yuzaga keladi.

Surhondaryo-Qashqadaryo hududlarida yashovchi mahalliy aholi uzoq davrlardan buyon chorvadorlik va dehqonchilik bilan shug'ullanib keladi. SHu bois ham bu yerlarda mehnat jarayonlari bilan bog'liq aytim va cho'pon kuylari juda ko'plab ijod qilingan. Xalq musiqasi namunalari esa dastlab iste'dodli shaxslar tomonidan yakka yoki jamoa ishtirokida yaratilib, so'ngra el orasida og'izdan-og'izga o'tib ommalashadi. SHu tarzda asrlar davomida kuylanib kelinayotgan mehnat qo'shiqlari bizga qadar xalq xotirasida va mehnat amaliy tajriba faoliyatida saqlanib kelinadi. Bundan tashqari, mavsumiy marosim, ommaviy bayram va xalq sayllari (masalan navro'z bayrami, lola sayli va boshqalar) qo'shiqlari hamda qarsak o'yin aytishlari va yana ko'plab xalq qo'shiq kuylari o'tmishdan bizning davrimizga meros bo'lib qoldi.

“SHalola” folklor-etnografik ansambili Surhondaryo-Qashqadaryo xalq musiqasi an'analarini atroflicha o'rganib, ularni qayta tiklayotgan hamda sahna madaniyati orqali targ'ib qilayotgan ijodiy jamoadir. Ansambily boy repertuarga ega. Xususan, ansambily (dasta) ishtirokchilari mehnat qo'shiqlari (“Mayda-mayda”, “Xo'p hayda”) mavsumiy marosim aytimlari (“Lola sayli” qo'shiqlari, “Navro'z qo'shiqlari”) va turli xil o'yin-aytimlarini katta ishtiyoq va mahorat bilan ijro etadilar. SHunday qo'shiqlardan biri “Arg'amchi” deb ataladi. Bu qo'shiq turnalar uchib kelishi munosabati bilan kuylanadi. Uzoq o'tmishda shunday bo'lganki, odamlar turnalarning qay tarzda uchib kelishiga qarab yilning qanday kilishini bashorat etganlar. Masalan, turnalar barvaqt uchib kelsa, bahor erta keladi, agar ular pastlab uchsa rizq-ro'z unumli bo'ladi, deb umid qilganlar.

Turna desam turumli,

Keng dalaga qo'nimli.

Turnalar uchsa pastlab,

Rizqing kelar unumli.

Turna o'zi qurumli,

Usti qora, bo'yni oq.

Turna uchsa balandlib,

Yil keladi qurumsoq.

Turna tilla tarozi,

Obi-havoga qozi.

Turna multsa yurtinga,

Salqin seladi yozi.

O'zbek xalqining uzoq o'tmishi davomida turli marosim va ommaviy tantanalar shakllangan bo'lib, ularning aksariyati ko'hna hayotga taaluqli.

SHunday marosim bayramlardan biri bahor mavsumida yetkaziladigan “Lola sayli”dir. Surxondaryo-Qashqadaryo musiqa an’anasida “Lola sayli” bilan bog’liq ko’plab qo’shiqlar ijod etilgan bo’lib, ular hozirda ham kuylanib kelinmoqda. Ana shunday qo’shiqlardan biri “Hey lola” dir. Lola sayli navro’z bayramining birinchi kuni o’tkaziladi. Bu bayramning an’anaviy o’tmishi shunday bo’lgan. Mahalliy aholi keng maydonga yig’ilib, yoshlarni lola terimiga kuzatganlar. Terimchilar qir-adirlarga sayr qilishib, quchoq-quchoq lola terishgan, qo’shiqlar kuylashgan. So’ngra terimchilarning belgilangan maydonda qizg’in va tantanavor ravishda kutib olish bayram – marosimi o’tkazilgan. Bunda karnay-surnaylar chalinib, raqslarga tushulgan, yoshlik va go’zallik ramzi lola qo’shiqlarda vasf etilgan. Lola aytimlari o’zining yorqin kuy ohanglari va sho’h-o’ynoqi doyra usullari bilan shodlik tuyg’ularini ifoda etgan. Endi Surxondaryo-Qashqadaryo vohasining an’anaviy musiqa cholg’ulari haqida fikr yuritsak. Ular uzoq o’tmishdan buyon mahalliy aholi orasida ardoqlanib, ijro etib kelinayotgan sozlar bo’lib, ularning asosan qo’biz, cho’pon nay yoki g’ajir nay, sibiziq (sibizg’a), chang qobuz, do’mbira va doyra naylar tashkil etadi.

Qo’biz torli-kamonli cholg’u bo’lib, u o’yma kosa, yog’och dasta va ikki tordan iborat bo’ladi. U kamon vositasida chalinadi. Qo’biz turkiy xalqlar orasida qadimdan qo’llanib kelingan torli-kamonli cholg’u, tovushqatorining hajmi bir yarim oktavaga teng. Munqli qo’biz sozi o’tmishda xalqimizning sevimli cholg’ularidan biri bo’lgan. Uning jo’rligida baxshilar dostonlarini hamda “Botir kuy”, “CHO’poni” singari sof cholg’u kuylarni ijro etishgan.

G’ajir nay uzunasiga ya’ni bo’ylama tarzda ushlab chalinadigan puflama soz bo’lib, uning nomi cho’l burguti-g’ajirdan kelib chiqqan. CHunki bu nay shu nomli burgutning qanot suyagidan tayyorlanadi. Nayning ovoz hajmi seketa oraliq’i bilan cheklangan. Unda cho’ponlar ijodi bo’lgan “CHO’poncha” kuylari hamda podani haydash yoki uni sug’orishga olib borish kabi mehnat faoliyatini anglatuvchi mahsus signal sadolar chalinib kelingan, goho uni “CHO’pon nay” deb ham atashgan.

Sibiziq (sibizg’a) – oddiy qamishdan tayyorlanadi va g’ajir nay kabi uzunasiga ushlab chalinadi. Tovushlar doyrasi oltilik parzalarini qamrab oluvchi bu cholg’udan axborot (signal) uzatish vositasi ham foydalanilgan.

CHangqobuz – maxsus tilchali cholg’u bo’lib, u temir yoki suyakdan tayyorlanadi. Temir changqobuz aylana shaklida bo’lib, o’rtasidan 7-9 sm uzunlikda po’lat til o’tkaziladi. Uni chalish uchun chap qo’l bilan tishlarga bosib turib, ayni vaqtda o’ng qo’lni ko’rsatkich barmog’i bilan tilchasini to’lqinlantirib turish lozim. CHangqobuzdan barqaror bir asosiy ovoz va oktava yuqorilab uning oberton tovushlari hosil etiladi. Ana shu yuqori tovushlar og’iz bo’shlig’idagi havo bosimi orqali “boshqarilib”, kvarta-kvinta hajmida bo’lgan kuylar chalinadi. Bu cholg’uning chalinishi oddiy va

ommabop bo'lganligi uchun uni nafaqat kattalar balki bolalar ham sevib chaladilar.

Do'mbira sozi ikki torli chertma cholg'udir. U kvarta, kvinta yoki oktavaga sozlanadi. Do'mbira dutorga o'xshash bo'lsa-da, undan o'ziga xos "bo'g'iq" tovushi nisbatan qisqa va silliq dastasi, ikki oktavaga qadar tovushqatori va boshqa jihatlar bilan farq etadi. Hozirda asosan Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida keng joriy bo'lib kelayotgan do'mbira ijrochiligi ikki ko'rinishda - jo'rnovoz yakkanavoz shakllarda namoyon bo'lmoqda. Xususan, jo'rnovoz do'mbira baxshilarning doston va boshqa turli aytimlarida qaror topib kelgan bo'lsa, yakkanavoz do'mbira amaliyoti dostonlar bilan bog'liq. "Baxshi kuy" hamda cho'ponlar ijodiga oid maxsus "Quylarni sudrash", "Qo'ylarni yig'ish", "CHO'poncha", "Do'mbira kuy"larni yolg'iz ijro etishda namoyon bo'ladi. U cho'ponning sevimli cholg'usidir.

Surxondaryo-Qashqadaryo musiqa uslubining qo'shiqlari – xalq og'zaki ijodining qadimiy namunalaridan birini tashkil etadi. Bu turdagi aytimlar inson faoliyatining turli jabhalarida ijod etilgan bo'lib, turfa ahamiyat kasb etib kelgan. Xususan, bu aytimlar mehnat jarayonining bir maromda uyushqoqlik bilan bajarishga ko'mak berish qatorida yana mehnatchi qalbiga ko'tarinkilik kayfiyatini jo qilgan, ruhiy dalda bo'lib xizmat qilgan.

Mehnat qo'shiqlari jiddiy ko'zdan kechirilsa, ularning mehnat turiga qarab rang-barang janrlardan tashkil topganliklarining ko'rish mumkin. Mana shu holatdan kelib chiqib biz mehnat qo'shiqlarini muayyan bir janr sifatida emas, balki o'z ichiga poetik shakli, mazmuni, ijro usuli, sharoiti, tarzi, ijrochilar tarkibi, poetik matnning melodik tuzilishi jihatidan bir-biridan keskin farqlanuvchi bir necha mustaqil janrlarni qamrab oluvchi xalq lirikasining mustaqil bir turkumi deb qarashni lozim topdik. Demak, mehnat qo'shiqlari marosim qo'shiqlari, sevgi qo'shiqlaridan keskin farqlanuvchi lirik turga mansub mustaqil janrlar turkumidan iboratdir.

Hozirda bizga ma'lum bo'lgan mehnat qo'shiqlarini ta'riflashga kirishar ekanmiz, ularga xos quyidagi tasnifiy belgilarni alohida ko'rsatib o'tamiz:

Mehnat qo'shiqlarida jo'rsozlik vazifasini bajaruvchi musiqiy cholg'ular qo'llanilmaydi. Ularning kuy-ohanglari kichik ovoz (kvarta, kamroq kvinta) doyrasida bo'lib, mehnat mazmuniga bog'liq she'riy to'rtliklar asosida yakkaxon tomonidan aytiladi. Mehnat qo'shiqlarida she'riy bandlar oldida ulardan so'ng mustaqil naqoratlar deyarli qo'llanilmaydi, ammo band misralariga ulanib keluvchi maxsus takroriy so'z iboralar (masalan "Xush-xush", "Turey-turey", "Mayda-mayda" va hakazo) qo'llanishi pirovardida naqoratsimon ahamiyat kasb etishi mumkin. Ritm vositasi yetakchi omillardan biri bo'lib, "ettilik" bo'g'in-ritm tuzilmasi

yetakchi o'rin tutadi. Aytim kuylarida nutqdan va so'zdan ohanglar birlamchi ahamiyat kasb etishi mumkin.

Bajarilayotgan mehnat turiga ko'ra ta'riflanayotgan aytimlarni uch guruhga bo'lish mumkin:

- I. CHorvadorlik qo'shiqlari.
- II. Dehqonchilik qo'shiqlari.
- III. Hunarmandchilik qo'shiqlari.

CHorvachilik qo'shiqlari aholining chorvachilik bilan bog'liq turmush tarzi va mehnati jarayonida tashkil topgan. Ularning bizgacha yetib kelgan asosan "Sog'im qo'shiqlari"dan iborat, ya'ni bu aytimlar sigir, biya, tuya, echki kabi uy hayvonlarini sog'ish paytida kuylanadi. Sog'im qo'shiqlarining turli xillari va shunga muvofiq nomlari ham mavjud. Masalan, qora molni sog'ishda "Xo'sh-xo'sh" aytimi kuylanadi. "Turey-turey" qo'shiqlari qo'ylarni sog'ish va qo'zilarni emizishda aytiladi. Bu qo'shiqlarda ham ona sovliqni madh etish, uni iydirish uchun aytiladigan erkalash holatlari yetakchilik qiladi. Masalan:

Esli qo'yim-oqilim, turey-turey,

Elkamdagi kokilim, turey-turey.

SHuncha qo'yning ichida, turey-turey

Bog'da ochilgan gulim, turey-turey.

Sog'im qo'shiqlarining yana bir turi "CHirey-chirey" bo'lib, u echkilarni sog'ish yoki uloqlarni emizish paytida aytiladi.

SHohlaring bor bir minora, chirey-chirey,

Minora qushlar qo'naro, chirey-chirey.

Bolang yelib iskasang-a, chirey-chirey

Kuyingan yuraging qonara, chirey-chirey

Sog'im qo'shiqlari bevosita mehnat jarayonida yaratilib, ana shu jarayonda ijro etib kelinadi.

Dehqonchilik qo'shiqlari ham aytimlarning salmoqli qismini tashkil etadi. Ularga oid namunalar esa dehqonchilikning turli faoliyatlari bilan bog'liq holda ijod qilingan. Jumladan, yer haydash paytida "Qo'sh haydash" kuylangan bo'lsa, hosilni o'rib olishda "O'rim" qo'shig'i, xirmon yanchig'ida esa "Ho'p mayda" yoki "Mayda-mayda" qo'shiqlari aytilga.

Mayda desam, xo'p deding, mayda-yo mayda,

Somonini ko'p deding, mayda-yo mayda.

Mayda qilsang yarashar, mayda-yo mayda,

Bari jonivor qarashar, mayda-yo mayda.

Mehnat jarayoniga mansub aytimlarning yana bir turkumini hunarmandchilik qo'shiqlari tashkil etadi. Bu namunalar asosan charx (ip) yigirish to'qish, do'ppi tikish kabi mehnat vaziyatlari bilan bog'liq xotin-qizlar ijodi bo'lib, chorvadorlik va dehqonchilik qo'shiqlariga nisbatan keyinroq shakllangandir.

Hunarmandchilik qo'shiqlarining eng keyingi qatlamlariga mansub ba'zi aytimlarda tanilgan janr miqyosidan chetga chiqish hollari nihoyatga kuchayganligini kuzatish mumkin. Masalan, "CHarx" aytimi yalla xususiyatlari bilan sug'orilganki, natijada u mehnat jarayonidan ko'ra ko'proq raqs o'yini bilan ijro etilishi tabiiyroqdir.

CHarxim tanob tashlaydi, o'ynag yor o'ynang,

Bir baloni boshlayda, o'ynag yor o'ynang.

Odatda shu kabi aytimlar sahnaviy ijro shakli uchun mo'ljallangan bo'lsa, unda doyra va boshqa jo'rsiz cholg'ular qo'llaniladi.

O'zbek dehqoni yer haydaganda, urug' sepganda, hosilni yiqqanda va aravada tashiganda, hirmon yanchganda qisqasi, barcha mehnat jarayonida qo'shiq yaratgan va uni kuylab kelgan.

O'zbek folkloridagi marosimga aloqasiz epik janrlardan biri va eng yirigi doston hisoblanadi. Doston asosida xayoliy uydurma yotadimi, konkret o'tmish voqealari tasvirlanadimi, bundan qat'iy nazar, asar xalqning qahramonona o'tmishi sifatida tashkil qilindi.

Surxondaryo-Qashqadaryo musiqa uslubining muhim qismini dostonchilik an'analari tashkil etadi. Dostonlar tarkibida nasriy va nazmiy qismlar bo'lib, ular mazmunan o'zaro mushtarak bo'ladi. Jumladan "Alpomish", "Yodgor", "Avazxon" kabi dostonlar shunday ko'rinishga egadir.

Vohada doston ijrochilarini yuzboshi, shoir yoki baxshi deb yuritadilar. Baxshilar san'atida so'z ustasi, qo'shiq kuylovchisi va soz (do'mbira) chaluvchisi birlashgan bo'ladi. Baxshilar dostonlarining nasriy qismlarini mahorat bilan vodiy so'zlab, hikoya etsalar, she'riy bo'laklarini qo'shiq shaklida kuylaydilar va bunda do'mbira sozidan jo'rovoqlik sifatida foydalaniladilar.

Surxondaryo-Qashqadaryo musiqa uslubida dostonchilikning ikki yirik markazi vujudga kelgan. Bu SHahrisabz va SHerobod dostonchilik maktablaridir. Abdulla Nurali, Islom Nazar o'g'li kabilar SHahrisabz dostonchilik maktabining yirik namoyandalari bo'lsa, SHernazar Beknazar o'g'li, Mardonqul Avliyoqul o'g'li, Umar Safar o'g'li, Normurod baxshilar esa SHerobod dostonchilik maktabining mashhur vakillaridir. Baxshilar doston ijro etayotgan paytida maxsus "bo'g'iq ovoz" bilan kuylaydilar, hamda do'mbira sozidan o'zlariga jo'rovoqlik qiladilar. Bo'g'iq ovozda kuylash esa dostonlarni ijro etish uchu asos etib olingan an'anaviy uslub bo'lib, bunday kuylash uchun baxshilarda maxsus ijroviy malakalar xosil etiladi. Baxshilarni tarbiyalab yetishtirishda "ustoz-shogird" maktabi qo'llaniladi. Bu shunday maktabki, unda baxshi bo'lish istagida talabgor ustoz-baxshiga o'quvchi shogird tushadi. SHundan so'ng u ko'p yillar (5-10 yil) davomida ovozda kuylash, do'mbira chertish kabi ijrochilik maktablari

bilan birga yana “Alpomish”, “Avazxon”, “Go’ro’g’li” kabi dostonlarni yod oladi, ularni aytib berish uslublarini o’rganadi.

Dostonlarni ijro etish mavsumi asosan kech kuzda, qishloq dehqonchilik bilan bog’liq yig’im terim ishlarini tugatgandan so’ng boshlab, to erta bahorga qadar davom etadi. Odatda baxshilar mahalliy aholi tomonidan maxsus uyushtirilgan dostonchilik kechalarini o’tkazish uchun qishloq xonadonlaridan biri taklif etilgan. Bu xonadonga mahalla ahli, qo’ni-qo’shnilar ham yig’ilib, baxshining doston ijrolarini tinglashgan. Bunday kechalar bir necha kungacha davom etishi mumkin bo’lgan. Bundan tashqari, baxshilarni oilaviy bayrami, to’y marosimlari va boshqa tantanalarni o’tkazishga ham taklif etganlar.

Dostonlarni kuylash qoidalariga ko’ra, avval termalar kuylanadi. Terma biror-bir doston ijrosidan oldin baxshi tomonidan kuylanilgan aytim bo’lib, bunda baxshi o’z bisotidan qisqacha ta’riflaydi va shu tariqa tinglovchilarga qarata “Qay dostondin aytayin” deb murojat etadi. Tinglovchilar tinglovi, xoxish-ixtiyori ham sabab bo’lib, baxshi o’z repertuaridan bir doston kuylay boshlaydi.

3-BOB: O’ZBEK XALQ QO’SHIQCHILIK IJODIYOTINING MUSIQIY-SHE’RIY VA UMUMNAZARIY MASALALARI

Jahon musiqa tarixidan ayonki, qo’shiqlar qadim zamonlarda ma’lum urug’, qabila yoki elatning ijodiy faolligi mahsuli sifatida yuzaga kelgan

hamda asrlar davomida muayyan o'zgarishlar bilan sayqal topgan. Ilmiy ibora bilan aytganda, xalq qo'shiqlari invariant-variant diallektik birligi asosida bizning davrgacha yashab kelgan. Mazkur sifatlar xalq milliy ma'naviy meros qadriyatlarini avlod-dan-avlodga an'anaviy tarzda og'zaki ijod orqali yetkazib berishda muhim o'rin tutib kelgan.

O'zbek milliy musiqasining ajralmas tarkibini tashkil etgan xalq qo'shiqchilik ijodiyotida ko'p asrlik musiqamizga xos parda-ohanglarini hamda ularning barmoq vaznli she'rlar bilan mushtarak kelishini ko'ramiz. Bu ijodiy jarayonda ayniqsa asrlar davomida muqimlashgan ohang tuzilmalari ahamiyatli omil sifatida yuzaga chiqadi. SHu bois musiqaning "jon tomiri" (4.6-54 b.) bo'lgan ohang xususidagi tayanch holatlarni belgilab olamiz:

- ohang bu ikki-uch tovushdan tashkil topgan va xissiy ifodaviylik kasb etuvchi kuy aylanmasi (2.43; 4.6; 3.10 , 96 b.);

- binobarin, ohang musiqada tovush tuzilmalarining eng kichik birligi hamda ilk semantik asosi (2.7; 2.8; 2.9; 2.40; 2.77; 3.6-54 b.);

- ohang-xalq musiqa ijodi uchun "muhim asos bo'lgan kuy manbaidir" (4.6-54b.).

O'zbek musiqashunoslari xalq musiqasida asrlar davomida qo'llanib kelinayotgan bir qator muhim ohang asoslarini aniqlaganlar (2.32; 2.43; 4.6, 58-59 b). Ushbu ohanglarning ayrimlariga hatto obrazli tavsiflar ham berilgan. Masalan, "so'roq ohang" (2.32), "mungli ohang", "dil yozdi ohang" (4.6-96 b.), "yor-yor formulasi" (3.17-165 b.), "yor-yor andozasi", "so'zdosh ohang" (2.43) kabi iboralar shular jumlasini tashkil etadi. Har bir ohang andozasi ma'lum vaziyat yoki sharoit yuzasidan xotiraga olinadi va invariant-variant birligida o'zining jonli ifodasini topadi. Bu jarayonda ohang qurilmalari muayyan so'z bo'g'inlari bilan uyg'unlashuvi asnosida xilma-xil ko'rinishlar kasb etadi. Ushbu holatlarni dissertatsiyaning ikkinchi bobida qayd etilgan tasnifimiz tartibiga muvofiq tavsif etish maqsadga molikdir.

Oilaviy marosim qo'shiqlarining umumnazariy masalalari


O'zbek etnomusiqashunosligida erishilgan natijalardan ma'lumki, asrlar davomida an'anaviy o'tkazib kelinayotgan oilaviy marosim aytimlari o'zgarmas ohang andozalari asosida amalga oshiriladi (2.40:-17-18 b.). Bu o'rinda ayniqsa, kichik tertsiya qobig'idagi ohang invariantining ahamiyati alohida ta'kidlanadi (2.43-17, 4.6-54-57 b., 3.10-96-98 b.). Ushbu andozani mutaxassislar "Yor-yor" formulasi yoki andozasi deb ham atashadi (2.4, 4.16). Sababi, mazkur ohang tuzilmasi nikoh to'yi marosimlarida keng o'rin tutishidir. Quyida mazkur andozaning kuy chizmasini keltiramiz:



O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik ijodiyotida mazkur andozaning xilma-xil nazira ko'rinishlarini yozib olishga muvaffaq bo'ldik. Jumladan, Surxondaryo-Qashqadaryo qo'shiqchilik ijodiga oid namunalarda ushbu andozaning Farg'ona-Toshkent ko'rinishiga yaqin ijrolari bilan bir qatorda o'zgacha zuhurlarini ham ko'ramiz. Masalan, Surxondaryo-Qashqadaryo mahalliy uslubida yozib olingan quyidagi "Yor-yor"da andoza asosi yaqqol ko'zga tashlanadi. Bunda ohang pardasi III-bosqich (re)dan quyi tomon (III-II-I kabi) siljib, I-bosqich (si) tovushda to'xtam hosil qilishi aniq kuzatiladi.



Mazkur andozaga misralari to'rt bo'g'inda kelgan she'r bog'lanishi asosida qo'shiqning o'lchovi va shunga mos ritm harakatlari muayyan ko'rinishga ega bo'ladi.



"Yor-yor" andozasining shu kabi to'rt bo'g'inli she'rlarga bog'langan ko'rinishlarining qariyb barchasida o'lchov-ritm jihatdan shunga o'xshashlik holati qayd etildi. Ayni paytda esa, barmoq vazni o'zgarishiga bog'liq andozaning o'zgacha ko'rinishlari ham aniqlandi. Buni, masalan, mazkur andoza qo'llangan "Kelin salom"larda ko'ramiz. "Kelin salom" aytimlarida ham andozaning asl ko'rinishiga xos alomatlar yaqqol seziladi. Quyida

keltirilgan har ikkala “Kelin salom” namunalarida ohang andozasining dastlab ikkinchi bosqichidan “turtki” olib, so’ngra III-II-I tarzida quyi harakatini ko’ramiz. To’g’ri, nota misollaridagi namunalarning tayanch pardalari o’zaro farq qiladi. Birinchi namunada “do” tovushiga, ikkinchisida esa “mi”ga tayanilgan. Bu hol ko’rilayotgan masalaning mohiyatini o’zgartirmaydi, chunki, xalq og’zaki musiqa ijodiyotida invariant andozalarini har bir xalq vakili o’z qobiliyati va kuylash imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda (variant) ifoda etishi mumkin.

E’tibor berilsa, ohanglar andozasining yuqorida ko’rilgan “Yor-yor”lardan o’lchov va usul-ritm jihatlaridan farq etishi ayon bo’ladi. Buning asosiy omillari qatorida she’r vazni yuzaga chiqadi. Filhol, “Kelin salom”larda asosan yetti bo’g’inli she’rlarning kelishi tayanch andozaga o’zgacha ta’sir ko’rsatgan va shunga muvofiq u 4/4 o’lchovidagi ritmik tuzilmalarini hosil qilgan.

E’tiborli joyi shundaki, tavsif etilayotgan “uchlik” andozasi “Yor-yor”larda umumhajmi kichik seksta qamrovidagi mahzun tovushqatorni yuzaga keltirsa, “Kelin salom”larda esa asosan sof kvinta qamrovidagi tovushqator doirasida rivoj topadi:


“Yor-yor” andozasining boshqa mahalliy uslublaridan anchagina farqli ko’rinishlari Respublikamizning ko’pgina xududlarida yozib olingan nikoh to’yi aytimlarida kuzatildi. Jumladan, Surxondaryo-Qashqadaryo va Buxoro-Samarqand mahalliy uslubiga xos “Yor-yor”da andozaning II-bosqich (mi)

tovushi o'rinda IV-bosqich (solъ) tovushi kelib, natijada kvarta sakramasi yuzaga keladi. SHu bilan birga andozani keyingi rivoji Respublikamiz viloyatlarida uchraydigan "Yor-yor"lar kabi kichik seksta doirasida xos rivojlangan (N-2, N-9, N-33, N-58).

Misol:



Товушқатори



Mazkur "Yor-yor"da yuqoridagi namunadan farqli ravishda andoza harakati I-bosqich tovushi (solъ)dan turib yuqori kvarta sakramasi bilan boshlanadi, ya'ni, "d" – "s", so'ngra asosiy tayanch "solъ"ga nisbatan tertsiya tovushi bo'lgan "si – bemolъ" (v) orqali kelinadi. Andozaning ushbu varianti sof kvarta oralig'idagi tovushqator qobig'i bilan qamralgan.

Ёр – ёр



Шилдир шил – дир қо – шим – га сир – гам туш – ди ёр – ёр



си – қил – ма – ган йи – гит – га синг – лим туш – ди ёр – ёр.

Ўз қизини жойига бодом эксин ёр – ёр
 Бодом шохи қайрилиб болам десун ёр – ёр
 Токчадаги қайчини занг босибди ёр – ёр
 Уйда ётган келинни гам босибди ёр – ёр

SHunga yaqin ko'rinishni nikoh to'yi marosimida o'tkaziladigan qiz va yigit aytishuvida ham ko'ramiz. Lekin bu o'rinda andozaning murakkab rivoji ham bor. Ushbu aytishuvni kelin tomon bo'lgan bir qiz boshlaydi. Bunda ko'rilgan namunalar orasida ilk bor andozaga daxldor bo'lmagan

“tashqi” tovush (solb)ga tayanilib, so’ngra andozaning “c – h – a” ko’rinishiga ulanadi. SHuningdek, ushbu andoza, avvalgi namunalardan farqli bo’lgan kichik septima darajasiga qadar tovushlar uyushmasini yuzaga chiqaradi. Bunga sabab, mazkur namunada “Yor-yor” andozasi xilma-xil parda bosqichlarida kelganligidir. Birinchi bor u “e – h – a” shaklida kelsa, ikkinchi bor quyi pardalarda “f – e - d” ko’rinishda keladi. Turkum ko’rinishga ega ushbu “Yor-yor” aytishuvining ikkinchi va uchinchi qismlari ham andozaning shu kabi qo’llanishi asosida ijro etiladi.

Misol:

An – di – ring dan che – cha – jon man – di – ring dan yor - yor

Andozaning oilaviy marosim aytimlarida tutgan o’rni benihoya katta. SHu jumladan, ma’lum o’zgarishlar bilan kelishini “Kelin salom”, “Yor-yor, yorone” va allalarda kuzatish mumkin (N-10, N-17, N-18, N-48).

Ayollar musiqiy folbklorini ilmiy idrok etishda “Alla”larning o’rni ham ahamiyatlidir. Respublikamiz xududlari bo’ylab, 1980 yillardan boshlab uyushtirilgan musiqiy-folbklor ekspeditsiyalari davomida mahalliy aholi vakillari ijrosida “Alla”larning turli namunalarini tinglab, magnit tasmalariga yozib olishga muvaffaq bo’lingan. Ularning ba’zilar ma’lum bir aniq o’lchovda ijro etilsada, ayrimlari ijrochining ixtiyori va imkoniyatidan kelib chiqqan holda erkin kuylanadi. Ijrochi o’z ta’sirchanligini namoyish etish maqsadida “Alla”ni o’zi xohlaganidek, goh so’zlarni cho’zib, goh qisqartirib ijro etadi.

Xususan, Eshonqulova Muhabbat ijrosidagi “Alla” kvarta oralig’ida kuylangan bo’lib, tovushlar yuqoridan pastga harakatlanganini ko’rish mumkin. Ijrochining asosiy maqsadi bolani uxlatish bo’lsa-da, shu bilan birga o’zining dard-alamlarini “Alla” orqali ifoda etadi:

Алла

Алла десам юра - гим э - зила - ди ал - ла умрим ўтиб бормоқда ей
се - зила - ди ал - ла Ал - ла ай - тай жоним болам қу - лоқ сол - гин
ал - ла - ё бир кун чиқиш тор - ла - ри у - зи - ла - ди ал - ла

Saidmurodova Maryam ijrosidagi keyingi “Alla” past tovushlardan (birinchi oktava re, mi, fa) iborat bo’lib, tertsiya oralig’ida erkin kuylangan. Qorasuv jamoa xo’jaligida yashovchi Ulug’berdieva Irisoyning magnit tasmaga yozib olingan “Alla” qo’shig’i Toshkent-Farg’ona uslubida ijro etiladigan “Alla”lar ohangiga xos bo’lib, 4/4 o’lchovda, doyra jo’rligida ijro etilgan. Ya’ni, bu o’rinda ikkilamchi folklor ta’siri sezilarlidir. “Alla” qo’shig’ini tumanning ko’pgina qishloqlarida ham Surxondaryo-Qashqadaryo mahalliy uslubiga xos ijro ustuvordir.

Hududda terma shakldagi “Alla”lar keng tarqalgan. Ayrimlari ma’lum aniq o’lchovda ijro etilsa-da, ba’zan erkin badiha tarzida ham kuylanadi

АЛЛА

Охиста

Ток - ка чик - дим дў - ла - на - я ал - ла - ё ал - ла
Кўш хўк - ки - зим жу - во - на - ё ал - ла - ё ал - ла.

Bunday ijrolar sirasiga to’y marosimi bilan bog’liq “O’lan”, “Kelin salom”, “Yor-yor”larning ayrim ko’rinishlarini ham kiritish o’rinlidir

Ёр – ёр

Ўай – ўай ў – лан жон – ў – лан ў – лан – чи қиз ёр – ёр

ё – рей ё – рей от – ла – пиб – ди ё – рей.

Oilaviy marosimlarning o'ziga xos aytm shakllari motam marosimlarida ham uchraydi. Bunda og'ir judolik musibat tuyg'ulari "Yig'i", "Yo'qlov", "Sadr" aytimlari orqali o'z ifodasini topadi. Ular asosan ma'lum bir o'lchov asosida emas balki, aytuvchining imkoniyati darajasida erkin aytiladi.

ЙЎҚЛОВ

Жонлирок

Мен ў – лай жу – ма ку – ни, жа – но – зам чиқ синчарх у – ribs ме – ни боқ кан О –

на – жо – ним қол – син со – чи – ни ю – либ мен ў – лар ман

о – хир бир кун о – нам қол – син со – чи – ни ю – либ

Ushbu aytimlar she'riy tarzda ham aytilishi mumkin. Namuna sifatida quyida marhumning marakalarida aytiladigan erkin vaznli aytimlardan birini keltiramiz.

Qa - ri o'l - sa to - voq - to - voq osh bo' - lur =11

Yosh o'l - sa ba - land tog' - lar past bo' - lur =10

Marhum agar yosh bo'lsa, ushbu she'riy aytm parchasi yig'i yuqoridan pastga yo'nalgan ovozda marosimga qatnashayotganlarga baland eshittirilib aytilgan. Ushbu aytm ohangida yuqoridan pastga qarab yo'nalgan "Yor-yor" andozasiga yaqinlik bor. Bu kabi aytimlar asosan yakka "go'yandachi" (forscha-so'zlovchi, rivoyat qiluvchi, aytuvchi, deguvchi) tomonidan aytilgan

bo'lib, har bir jumla oxirida marosimda qatnashayotgan ayollar o'zlarining "mungli" ovozlari bilan aytuvchining so'zlarini "tasdiqlab" turishadi.

Mavsumiy qo'shiqlarning umumnazariy masalalari

Respublikamizda yil fasllarining turli mavsumlariga bog'liq ijod etilgan xalq qo'shiqlaridan ko'plab namunalarni magnit tasma-siga yozib olinishga muvoffaq bo'lingan. Bu qo'shiqlar orasida "Navro'z" kuni, shuningdek, lola guli ochilishi, turna uchib kelishi, sumalak pishirish kabi vaziyatlarga bevosita bog'liq aytimlar salmoqli o'rin tutishi ma'lum bo'ldi. Bulardan tashqari, mahalliy aholi kekxa avlod vakllarining bergan ma'lumotlariga ko'ra, yilning har bir fasliga monand qo'shiqlar ham bo'lib, ular yil davomida turkumiy ko'rinishlar kasb etgan. Lekin bu aytimlarning aksariyati zamonaviy o'zgarishlar ta'sirida asta-sekin iste'moldan chiqib borgan.


Musiqiy folklor ekspeditsiyalari davomida yozib olingan mavsumiy qo'shiqlarning kattagina qismi asosan bahor fasliga to'g'ri keladi. Bu namunalarda o'zbek xalq musiqa ijodi uchun xos parda ohang tuzilmalari qo'llanilgan bo'lib, ularning variant zuhurlarida o'ziga xos betakror jihatlar ham namoyon bo'ladi. Jumladan, musiqashunos olimlarimizning tadqiqotlaridan ma'lumki, mavsumiy qo'shiqlarda sakrama ohanglar keng o'rin tutadi. Ushbu toifa ohanglarni musiqashunos O.Ibrohimov "darkachi ohang" sifatida tavsif etadi (2.40:-29-30). Muallif bu haqda shunday yozadi: "Ma'lum masofa oralig'ida axborot (signal) uzatish vositasi bo'lgan "darakchi ohang"lar o'tmishda turli vaziyatlar bilan bog'liq holda (masalan, harbiy maqsadda, xavf-xatardan ogoh etish, bayram kunlari, tantanalarni daraklash, va hokazo) qaror topib kelgan (2.43:-30). Ushbu ohanglarning aksariyati bayram fasli-bahorni daraklash mazmuni bilan bog'liq yuzaga kelgan edi. . .

Darakchi ohanglarning musiqiy sifati ohang sakramalaridan keng namoyon bo'lishi bilan tavsiflanadi. Bunda sakramalar darajasi asosan to'rt parda (kvarta) oralig'ini tashkil etadi. (2.43:-38-40)

Darakchi ohang andozasi ko'pincha quyidagi ko'rinishda qayd etiladi:



Ekspeditsiya jarayonida yozib olingan mavsumiy aytim namunalarda ushbu andoza kuylovchining ovoz imkoniyati va iste'dod darajasiga qarab turli parda – tonalliklarida ishlatilishini ko'ramiz. Masalan, "Turna keldi" aytimida andozaning yarim tayanchi "solb" tovushida kelgan. Aynan shu tovushdan turib pastga va yuqoriga yo'nalgan kvarta sakramlari yuzaga keladi.



Ushbu andozaning quyi kvarta sakrama qismi xalq she'rining naqarot kabi kelgan "Arg'amchi, gilamchi" so'zlariga bog'liq kelgan bo'lib, uning ritm jihatdan shakllanishi so'z bo'g'inlari (xijolari) asosida yuzaga keladi (2.430: - 30):

Ar – g'am – chi, gi – lam – chi = 3 + 3

Ҳрача
 Ар-ғам-чи, ги-лам-чи. Ар-ғам-чи, ги-лам-чи. Тур-на бўй-ли бо-ла-жон
 кў-ка-лам-га ти-лам-чи. Ар-ғам-чи, ги-лам-чи. Ар-ғам-чи ги-лам-чи


Darakchi ohang andozasining yuqori kvarta sakramasi yetti xijoli she'riy bandlarni kuylashga asos bo'lib qiladi.

Turna desam turumli, = 7
 Keng dalaga qo'nimli, = 7
 Turnalar uchsa pastlab = 7
 Rizqing kelar unumli = 7
 Turna bo'yliq bolajon = 7
 Ko'klamga tilamchi = 7

Ko'rinib turibdiki, "Turna keldi" qo'shig'ining umumiy shakli she'r shakli bilan uzviy bog'liklikda namoyon bo'ladi. Bunda har bir band oldidan naqoratsimon ahamiyatga ega "Arg'amchi, gilamchi" so'z ohanglari takrorlanib turadi.

$a + b + a + c + a + d$

E'tiborli tomoni shundaki, mazkur aytimning pardalar tovushqatorida noto'liq "zinapoya" yuzaga keladi, ya'ni, ikkinchi bosqich (mi) tovushi ishlatilmaydi. Bu hol aynan darakchi ohang qo'llanilganligi bilan izohlab kelanganligini yana bir bor tasdiqlaydi (2.38:-30).



“Sust xotin” marosimida aytilgan maxsus qo’shiqda ham darakchi ohang qo’llanilganligini ko’ramiz. Ushbu namunada kelgan ohang andozasi taniqli olim O.Ibrohimov tomonidan qayd etilgan “Sust xotin” aytimi variantidan ma’lum darajada farq qiladi (2.43-31 b.). Jumladan, Boysun, Qiziriq va Muzrabot tumanlarida yozib olingan “Sust xotin”da andozaning quyi sakramasi xuddi risoladagidek kelgan, ya’ni:



Ushbu tuzilima asosida qo’shiqning naqaroti va uning ta’sirida ritmi ham guruhlanadi:

Sust xotin, suzma xotin = 3 + 4




Ko’lankasi maydon xotin = 8



SHu bilan birga andozaning yuqori sakrama qismida o’zgarishlar ham bor, ya’ni, sakrash nuqtasi markazda joylashgan “solb” tovushidan emas, balki, ohang harakati bir pog’ona siljib “lya” tovushidan yuqoriga intiladi. SHunday qilib andozaga muvofiq “solb – do” kvarta sakramasi o’rnida “lya – do” tertsiya nisbati yuzaga keladi:

namuna



Andozaning bu qismi, naqarotdan farqli o'laroq yetti bo'g'inda muqimlashgan she'riy bandlarga mos ohang – ritmi bilan bog'lanadi:



SHunday qilib, “Sust xotin”da qo'llangan pardalarda ham ikkinchi bosqich (mi) tovushi kelmasligining guvohi bo'ldik. SHu bilan birga, uning pardalarida tuslanuvchi beshinchi bosqich (lya bemol – lya bekor) tovushi hamda shu holat bilan bog'liq beshinchi va oltinchi bosqichlar nisbatida ortirilgan sekunda intervali yuzaga kelishini ham ko'ramiz.



Ma'lum qo'shiqlarning o'ziga xos lug'ati bo'lgan “darakchi ohang” andozasining turlicha variant ko'rinishlari “Lola”, “Hey lola”, “Navro'z”, “Sumalak” qo'shiqlarida ham kuzatiladi. Jumladan, lola haqidagi qo'shiqlarda quyi kvarta sakramasi (o'rta harakat) aksincha keladi, ya'ni, quyi tovushdan turib, o'rtada joylashgan kvarta nisbatidagi tovushga sakrash ro'y beradi. SHu asosda “tayanch parda tovushlari nisbati ham o'zgaradi:


Sxema



Namuna:

“Solb” tovushi tayanch parda sifatida qaror topgach andozaning yuqori kvarta sakramasi amalga oshiriladi

Sxema:



Namuna:




Mazkur “Lola” aytimida darakchi ohang andozasi butkul holda avvalroq ko’rilgan namunalardan farqli ravishda, qo’shiqning naqarot qismida namoyon bo’ladi. SHu o’rinda qo’shiqning o’zgarmas takroriy qismi ham yetti bo’g’inli turoqda kelgan rosmana naqarot ekanligini ham aytish kerak:



Qo’shiqning yettinchi bo’g’inli turoqda kelgan bandlari yuqori parda tovushlari asosida kuylanishi natijasida solb – misoliday tovushqatori yuzaga keladi:

Namuna



“Hey lola” qo’shig’ida ham ohang andozasi quyidan yuqoriga yo’nalgan (solb - do) sakrama shaklida kelgan biroq unda andozaning yakuniy qismida kelgan kvarta sakramasi umuman qo’llanilmaydi. Bunga, ehtimol, qo’shiqning band shaklida kelgani sabab bo’lsa kerak. SHunga ko’ra, she’riy bandning dastlabki ikki misrasi darakchi ohang asosida aytiladi, uchinchi misrasi qo’shiqning kichik avji bo’lgan yuqori $re^2 - mi^2$ tovushlariga qadar rivoj topadi, yakuniy to’rtinchi misrasi esa andozaning teskari aylanmasi asosida “o’qiladi”. Garchand ushbu qo’shiqda naqarot shakli kelmagan bo’lsada, biroq, bu o’rinda har bir misraga ulanib keluvchi “Xey lola” takroriy so’zlari o’ziga xos shakl muqimligin yuzaga keltiradi.




Lolachaga ishim bor, hey lola = 7 + 3
Kisamda kishmishim bor, hey lola = 7 + 3

Xullas, darakchi ohangi va o’n bo’g’inli (7 + 3) so’z birikmalari o’zaro uyg’unligida yuzaga kelgan qo’shiq shakli shartli belgilar vositasida quyidagicha ko’rinishga ega bo’ladi:

$$a + a_1 + v + a_2$$

Darakchi ohang andozasining nisbatan murakkab va rivojlangan holdagi ko’rinishi “Navro’z” qo’shig’ida kuzatiladi. Bu o’rinda ham dastlab

andozaning teskari aylanmasi (ya'ni, quyidan yuqoriga kvarta mi – Iya sakramasi) kelib, shu asosda qo'shiqning birinchi she'r bandi aytiladi:



НАВРЎЗ

Жонлироқ



Бой чечак чиқиб – ди, бугун Нав – рўз э – кан! Ҳам ма



бир бирига жи гар сўз э – кан. О – лам ҳам баро – бар кеча кун – дуз э – кан,



Бой чечак чиқиб – ди, бугун Нав – рўз э – кан! Ян -



Boychachak chiqibdi, bugun Navro'z ekan = 6 + 6

Hamma bir biriga jigar so'z ekan = 6 + 5


Qo'shiqning ikkinchi bandi ham dastlabki andoza asosida bayon etilib, o'rta parda (Iya-si)larni mutashkam o'zlashtiradi. Bu pardalar, keyingi (uchinchi) bandni yuqori parda ($re^2 - mi^2$) tovushlariga qadar rivojlantirishda yarim tayanch xizmatini bajaradi. Xususan darakchi ohang andozasining ikkinchi yuqorilama sakrash qismi "si" tovushidan turib amalga oshiriladi ($si_1 - mi_2$) va shu asnodda qo'shiqning avj nuqtalari "zabt" etiladi, so'ngra andozaning dastlabki ko'rinishi qaytarilish bilan aytim yakunlanadi.

Demak, mazkur aytimda darakchi ohang andozasi shaklan anchagina rivojlangan qo'shiq namunasini yuzaga keltirishda unumli qo'llangan bo'lib, uning uch qismga ega umumiy qiyofasini quyidagiga shartli aks ettirdik:

$$\begin{array}{ccc} A & A_1 & A_2 \\ \hline a + a_1 + a_2 + a_3 & a_4 + a_5 + a_6 + a & a_7 + a_8 + a_9 + a \end{array}$$

“Sumalak” qo'shig'ida andozaning anchagina jo'nlashtirilgan, lekin, o'ziga xos shakli aniqlandi. Jumladan, bu yerda ohang andozasida kuzatiladigan kvarta sakramasi ma'lum masofa oralig'ida amalga oshganligi

sezilib turadi. Bu tovushlar o'rta parda "solb" va quyi parda "re" bo'lib, ular orasidagi kvarta sakramasi yondosh tovushlar qo'langani bois "suvab" ketilgan.



Bu qo'shiqda ham ritm tuzilmalari she'rning so'z bo'g'inlari asosida bevosita bog'liq ekanligi ayon bo'ladi:

Sumalakni ob keling aylanayin, $7 + 4 = 11$
 Tol tovoqqa sob kelin bir totayin. $7 + 4 = 11$
 Sumalagim qaynaydi, sumalagim, $7 + 4 = 11$
 Tong otguncha qaynaydi, sumalagim $7 + 4 = 11$
 Bibi fotma ovqati bu sumalagim, $8 + 4 = 12$
 Momojonim mehnati bu sumalagim $8 + 4 = 12$
 Yesam yana yegim kelar sumalagim $8 + 4 = 12$
 Yuraginga darmon bo'lar sumalagim $8 + 4 = 12$

Mehnat qo'shiqlarining umunazariy masalalari

O'zbek xalq ijodiyotida mehnat qo'shiqlarining qadimiy davrlardan buyon kelayotgan namunalari o'z kuchini saqlab kelmoqda. SHunday aytilar qatorida eng avvalo chorvadorlik va dehqonchilik faoliyatlari bilan bog'liq namunalarni misol keltirish mumkin.

CHorvadorlarning mehnat jarayoniga oid qo'shiqlari xususida musiqashunos va filolog olimlarimiz qimmatli ma'lumotlarni qo'lga kiritganlar. Bu turdagi xalq ijodida "Sog'im qo'shiqlari"ning alohida o'rni to'g'ri ta'kidlangan. Xususan, "Xo'sh-xo'sh", "To'ray-to'ray", "CHirey-chirey" kabi ataluvchi qo'shiqlar tor ovoz doirasi (kvarta - kvinta) oralig'ida aytilishi va ularda turli e'tiqodlar bilan bog'liq raqamlar ham ahamiyatli bo'lganligi qayd qilinadi (2.43,22-25; 2.41,76-77).

Respublikamiz xududlarida, shu jumladan Qoraqalpog'iston Respublikasida ham sog'im qo'shiqlarida mehnat jarayonini "tasvirlash"ga qaratilgan tovushlar uyushmasiga duch kelamiz. Etiborli joyi shundaki, bu aytilarning aksariyati yuqoridan pastga qarab pog'onama-pog'ona quyilib keladigan parda tovushlari asosida namoyon bo'ladi. Bu hol esa sog'ilayotgan jonivorning suti paqir (sut kadi) yoki boshqa idishga go'yo bir maromda oqib tushishining o'ziga xos badiiy ifodasi kabi taassurot uyg'otadi.

Qizig'i shundaki, sog'im qo'shiqlarida ayollar ohang lug'ati asosini tashkil etgan "Yor-yor" andozasi ham o'ziga xos ko'rinishga keladi. Jumladan, "CHirey-chirey" qo'shig'ida naqarotsimon ahamiyatga ega "chirey" so'zi butkul "Yor-yor" andozasi qobig'i o'ralgan holda ifoda etiladi. Biroq, bunda barcha sog'im qo'shiqlari uchun xos bo'lgan ritmik sinkopa holati andozaga o'zgacha xususiyat bag'ishlaydi.



CHi –rey, chi – rey, chi – rey, chi – rey

Aftidan, "Yor-yor" andozasining qo'llanilishi tasodifiy emas shekilli. Chunki, bu andoza asosan oilaviy sharoitda o'tkazilgan marosimlarda ayollar tomonidan qo'llanilishi ma'lum bo'lmoqda. Qora mol, echki, qo'y kabi uy hayvonlarini sog'ish bilan bog'liq mehnat jarayoni ham asosan oilaning uy-hovlisi hududida, aksariyat xotin-qizlar tomonidan amalga oshirilishi bois mazkur andoza xotiraga olinsa kerak. Lekin shuni aytish kerakki, ushbu andoza asosan "Xo'sh-xo'sh", "CHirey-chirey", "Turay-turay" kabi takroriy so'zlarda keladi. Qolgan she'riy bandlarda esa mehnat qo'shiqlariga xos yetti va sakkiz bo'g'inli ritm tuzilmalariga asoslangan so'zdosh ohanglar keng qo'llaniladi. Ushbu vaziyat tavsiflanayotgan "CHirey - chirey" qo'shig'ining davomida yaqqol ko'zga tashlanadi. Natijada, "Yor-yor" andozasiga qurilgan naqarotsimon tuzilma (a) va so'zdosh ohanglarga tayangan 8-bo'g'inli tuzilma (b)ning muntazam almashinib kelishiga asoslangan shakl yuzaga keladi.

$$a = b = a_1 = b_1 = a_2 = b_2$$



O – na mo- lim hay – vo – ni –mey = 8 "Xo'sh-xo'sh" aytimida esa ham naqarotsimon so'z (xo'sh), ham oraliqda kelgan misralarning barchasi "Yor-yor" andozasidan unib chiqishini kuzatdik. Bu o'rinda andozaning chizmasi – fa – mi – re – shaklida bo'lib, uning variant ifodasi aytarli murakkab emac, kvarta hajmiga qadar (ya'ni bir pog'onaga) o'sgan xolos



Ba X.K.

Xo'sh - xo'sh, xo'sh - xo'sh, xo'sh - xo'sh

Dehqonchilik mehnati bilan bog'liq "Qo'sh haydash", "Xo'p mayda", "Yorg'inchoq" aytimlarida alohida urg'ulangan so'zdosh xususiyati ohanglarning o'rni katta. Buning sababi bor albatta. Chunki, bunday qo'shiqlar vositasida dehqon "o'ziga va ho'kiziga dalda berishni maqsad qiladi" hamda mehnat ishtirokchilari harakatini o'zaro mutanosib bo'lishiga ko'mak bergan bo'ladi" (2.43; 25). Xususan, dehqonchilik qo'shiqlarida bir tovushga ba'zan yondosh ikki tovush nisbatiga tayangan ritm yettiligi katta ahamiyat kasb etadi. Shu bois bu qo'shiqlarda 7-bo'g'inli she'rlar keng qo'llaniladi. "Xo'p mayda" qo'shig'ida yetti tuzilmasi "re" tovushi asosida hosil qilinib keyingi misrada kvartagacha, uchinchi misraga kelib esa kvinta doirasiga yetadi hamda to'rtinchi misra davomida tayanch "re"ga qaytib tushadi. Qo'shiqning naqaratida yettilik tuzilmalari ritm jihatdan yanada salabatli tus oladi.



Ha - vo yog' - di ho'l bo'l - di = 7

E - shik och-gan kim bo'l - di = 7

"Qo'sh haydash" qo'shig'ida dastlabki yettilik tuzilmasi (♩ ♪ ♪ ♪ ♪ ♪ ♪) ikki tavush "fa - salb" asosida "yasalib", keyingi misralar davomida kvartagacha rivoj topadi.




Qo'sh - ga il - dam yur - ma - sang = 7



Uch - chan - ga - tur - tib qo' - ya - man = 8

Dehqonchilik qo'shiqlarining tor ovoz hajmida kelishini mehnatkash asosiy kuchini mehnat jarayoniga sarflab, qo'shiqni imkon qadar tejam ovozda kuylashi bilan izohlash mantiqiy ko'rinadi. Shunga misol qilib "O'rmak qurdim", "O'rmak haqida", "Toba toshim", "Urchug'im" haqidagi qo'shiqlarni keltirishimiz ham mumkin. Jumladan, "O'rmak qurdim" kvarta (do-fa) ovoz doirasida "Urchug'im" esa kvinta (mi-si) orolig'ida joylashgan

tovushlar asosida aytiladi. Darvoqe, bu namunalarda ham yettilik va sakkizlik tuzilmalari dastlabki asos sifatida muhim o'rin tutadi.



O'r – mak qur – dim bog' – lar – ga = 7
 O'r - mak yet - sin tog' – lar – ga = 7
 O' - to - vim – tez – roq – bit-sin =7
 Biz-cho – pay – lik – o'r - moq -qa =7

Mehnat jarayoniga bog'liq ayrim qo'shiqlarda, jumladan, “Tegirmon”, “Gupi”, “Tobo toshim”, “Jun taroqni tarayman” kabi qo'shiqlarda bu turdagi qo'shiqlarga xas muqimlashgan o'ziga xos ohanglar paydo bo'lgan. Ushbu ohang tuzilmasi “Yor-yor” andozasi kabi kichik tertsiya qabig'ida bo'lsad-da, biroq, undan farqli o'laroq mazkur tuzilma kechik sekunda emas, balki, tavushlar harakati katta sekunda + kichik sekunda yoki aksincha (kichik 2 + katta 2) nisbatida keladi. Misal. “Tegirmon”, “Gupi” qo'shiqlarning she'riy tuzilmasi 7 bo'g'indan iborat bo'lib, “Toba toshim” qo'shig'ining she'riy tuzilmasi bir oz o'zgargan 8 bo'g'inli shaklini ko'rish mumkin.

SHunisi e'tiborliki, mehnat qo'shiqlarida aniqlangan ohang tuzilmasi o'zbek xalq musiqa ijodidagi mashhur “Yallama yorim” yallasini eslatadi:



Қал- дир-ғоч қо - ра э - кан, ка - но-ти о - ла э-кан, ёш-лик-да бер - ган кўн-гил ай- рил-мас ба-
 ло э - кан. Ял - ла-ма-ё- рим, ял - ло - ла, ял - ло - ла - шай- лик, бе-дод- ла -
 шай - лик, уч - та, тўрт-та бир бў - либ ро - ҳат - ла - шай - лик

Dastlab, bu kabi qo'shiqlarning she'riy tuzilmasi kichik tertsiya qobig'ida kelishi asosini “Yallama yorim” qo'shig'i negizida yaratilgan (variantlashgan shakli) deb qaralgan edi. Biroq, nazarimizda, mehnat qo'shiqlarining she'riy tuzilmasini ritmik jihatdan 7 bo'g'indan iboratligi, kichik tertsiya qobig'ida kelishini hamda bir emas, balki bir necha qo'shiqda shu xususiyatlarni namoyon bo'lishini, shuningdek, “Yallama yorim”ni mehnat qo'shiqlaridan keyin vujudga kelganligini e'tiborga olib, “Yallama yorim” qo'shig'i mehnat qo'shiqlari asosida yaratilgan degan taxminga kelindi.

Turli mavzuli qo'shiqlarning umumnazariy masalalari

Bu turdagi qo'shiqlar ma'lum marosim yoki muayyan vaziyatlarga bevosita bog'liq bo'lmaganligi sababidan ularda bayon etilgan mavzular nisbatan erkinligi bilan ajralib turadi. Mavzu xilma-xilligi, o'z navbatida, parda – ohanglarida boy tasviriy vositalarni yuzaga keltiradi. Inchunin, qo'shiq ohanglarida avvalgi bo'limlarda ko'rilgan andozalar bilan birga yana so'zdosh va turli xususiyatli tuzilmalarning qo'llanilishi ma'lum bo'ladiki, bunda xalq donishmandligi, badiiy topqirligi o'z ifodasini topadi. Quyida tahlillari aks ettirilgan namunalar fikrimizga yorqin dalildir.

“Toqqa chiqaylik” qo'shig'ida, xususan, so'zdosh ohanglar asosida go'yo balandlikka (toqqa) chiqib, ya'ni pastga qaytib tushish harakati badiiy in'ikosini topgan. Qo'shiqning tayanch pardasi –“do”dan turib yuqariga yo'nalgan sakrama yuzaga keladi so'ngra, ortga qaytish holati quyi sekventsiya vositasida amalga oshadi. SHu asnoda qo'shiqning kvinta hajimdagi tovushlar uyushmasi ham yuzaga keladi:

Тоққа чиқайлик



Тоққа чиқайлик чодир тикайлик Чодир ичига – ҳо чўлоб ичайлик



Отам чойжўшқўйдилар Қайнамасин дедилар, отам чойжўш қўйдилар



қайнамасин дедилар Мени қарри – га бериб кун кўрмасин дедилар.

Чўлопни талхи
Рўмолни балхи
Яккама зулфи жон
Бурама қулфи
Отам чойжўш қўйдилар
Қайноқ сувга турсин деб
Мени шофирга бериб
Давру – даврон сурсин деб

Misoldan ko'rinib turibdiki, uning ohang urug'i birinchi takt qamrovida ifodalangan. Uning ixcham shaklda kelishini besh bo'g'inli she'r vazni bilan bog'liq ekanligida ham ko'rish mumkin:

Toq – qa chi – qay – lik =5
 CHo' – lob i – chay – lik =5
 CHo' – lob – ni bal – xi =5
 Ro' – mol – ni tal –xi =5

She'r bo'g'inlari ta'sirida yuzaga kelgan ritm tuzilmasi qo'shiq matnida muhim o'rin tutadi. Jumladan, u ohang urug'ining turli pardalarida rivojlanib yakun topishida ham barqaror asos bo'lib xizmat qiladi. Qo'shiqning oddiy band ($a = a_1 = a_2$) shakli yuqorida qayd etilgan ohang tuzilmalariga yangi va yangi she'riy to'rtliklarni o'zaro qo'shish asosida yuzaga keladi.

“Tom ustidan tosh otdim” qo'shig'ida ham tasviriy ohang holati diqqatni o'ziga tortadi. Band shaklida ifoda etilgan mazkur aytim “Tom ustidan tosh otdimo, piyolani o'xshatdim” kabi misralar bilan bashlanadi. SHu o'rinda kelgan ohang tuzilmasi esa xuddi tom ustidan oshib o'tib, boshqa tomondan qaytib yerga tushayotgan tosh harakatini tasvirlab berayotgandek yo'lni “chizib” o'tadi:

SHunga o'xshash ohanglarni xalq ijod etgan va mazmunida “tom” so'zi

ТОМ УСТИДАН ТОШ ОТДИМ



Том ус-ти-дан тош от-ди-мо пи-ё-ла-ни ўх-шат-дим
 пи-ё-ла-ни гу-ли-ни-ё ас-кар бо-лам-га ўх-шат-дим.

2. Тогдан нори дўлонаё,
 Қўш хўкизни жувона
 Аскар болам ўхшасина,
 Пиёлани гўлига ўхшасин

ishlatilgan qo'shiqlarda uchrashi haqida avvallari ham aytilgan edi (3.10:-98;.

Masalan, “Tom aylanib” qo'shig'ida “Tom ustidan tosh otdim” singari dastlabki ohang tuzilmasi yuksalib keladi va so'ngra harakat ortga qaytadi:

Tom us – ti – dan tosh ot – di – ma = 8
 Pi – yo – la – ni o'x – shat – dim = 7
 Bunda: a + b

“Tom ustidan tosh otdim” qo'shig'ini keyingi misralarida mazmun bo'yicha “tosh” so'zi tashbeh sifatida ishlatilgan – “piyolaning gulini askar bolamga o'xshatdim”. Bu qo'shiqning asl mazmuni ham shunda ayonlashadi – harbiy xizmatga ketgan o'g'lini sog'ingan onaga har bir go'zal shakl,

jumladan, (piyolaning guli) farzandini eslatmoqda. E'tiborli jihati shundaki, qo'shiqning "askar bolamga o'xshatdim" so'zlari yor-yor andozasi asosida aytiladi. Demak, "tosh otish" ohang tasviri bilan boshlangan qo'shiq biroz mungli (dardli) tuyg'u ifodasi bilan xotima topadi.

Mazkur qo'shiq ohangida kuzatilgan holatni ayollar tomanidan kuylanib kelinayotgan ko'pgina aytimlarda ham ko'ramiz. So'zdosh tuzilmasining yor-yor andozasiga ulanib kelishi holatlari musiqashunoslarimiz tomanidan qayd etilgan (2.43, 3.8; 4.10). CHunonchi, quyidagi band shaklida kelgan "terma" da 7+6 she'r misralari so'zdosh ohanglarga payvasta etilgan bo'lib, uning har bir misrasi yakuniga ulanib kelgan besh bo'g'inli qo'shimcha misralarda esa yor-yor andazasi ifadalangan. Mazkur qo'shiqning parda asosi ham "Yor-yor"lar kabi kichik seksta qamrovini tashkil etadi:

Ёр – ёр ёроне

Чойдан чойсу я – сай – ми ёр – ёр ё – ро – не бе – ли тасма ё – рим – га
 ёр – ёр ё – ро – ней Дар – зи тис – ма ё – рим – га ёр – ёр
 ё – ро – ней Арча – дан қо – шиқ я – сай – лик ёр – ёр ё – ро – не.

Катта тогни қориман, ёр ёр ёроне
 Боғли дара нориман, ёр ёр ёроне
 Дара бўйлаб юраман, ёр ёр ёроне
 Писта бодом тераман, ёр ёр ёроне

Хатак тогни устида, ёр ёр ёроне
 Какликлари сайрайди, ёр ёр ёроне
 Арча оралаб юрсам, ёр ёр ёроне
 Кўнглим гуддек яйрайди, ёр ёр ёроне

Тоғларда учрайди ёр ёр ёроне
 Ҳайвонларнинг кўп тури, ёр ёр ёроне
 Менинг оғам қўриқлар, ёр ёр ёроне
 Мерганларнинг энг зўри, ёр ёр ёроне

Umuman shuni alohida qayd etish mumkinki, ayollar musiqiy folkloriga mansub qariyb barcha aytimlarda yor-yor andozasi shu kabi kelishi yoki yana o'zgacha ko'rinishlari bilan tinglovchiga hissiy ta'sir ko'rsatib turadi. Ayniqsa, ushbu andoza she'r matnida "yor" so'zi ishlatilgan aytimlarda shu so'zga bog'liq kelishi qat'iy ko'rinish kasb etishi ayon bo'ladi. Masalan, bunga "Hay yor-yor", "Yor-yor, yorone", "Aylansin yor, aylansin" qo'shiqlari yaqqol misol bo'la oladi.

“Aylansin yor, aylansin” qo’shig’i yor-yor andozasiga asos bo’lgan kichik tertsiya bo’ylab (a-s; g-v) ifodalanishini hamda andoza rivoji uchun tekis xos kichik sekstaga qadar rivojini ko’ramiz: “Yor-yor, yoroney” ham aksariyat nikoh to’yi “Yor-yor”lari kabi 6/8 o’lchovida keladi (7 bo’g’in.)

АЙЛАНСИН ЁР, АЙЛАНСИН

Қувноқ



Айлансин ёр, айлансин, қошлари қора айлансин. Шафтолизор и - чи - да



бо - дом қовоқ айлансин. Я - қу, я - қу, я - қу - я. Девол усти - да девол,



дево-на бўлсин аканг.Бошингда балхи рў-мол, ишқингда ўлсин аканг.Бошингда бал



хи рў - мол, иш - қинг - да ўл - син а - канг. Я - қу, я - қу,



я - қу - я, я - қу, я - қу, я - қу - я.

Erkin mavzuli qo’shiqlardan “Otalar haqida”, “Navo derlar”, “Qo’ng’irot”, “Boysun uforisi”, “Sog’indim”, “Bozordan oldim”, “Navro’zi oy kelibdi” va boshqa shu kabi qo’shiqlar turli gap-gashtaklarda, gururing va mahalliy aholining mayishiy tadbirlarida ijro etilsa-da, har biri o’ziga xos kuy-ohang va musiqiy jozibodorlikka ega. Ushbu qo’shiqlarning she’riy tuzilmasi 7-11 bo’g’inli misralardan iborat bo’lib, kvarta-kvinta oralig’idagi tovush ohanlariga tayanadi. Misol uchun, “Otalar haqida”gi qo’shiq o’zgaruvchan bo’g’inli she’r vaznida keladi. Ushbu holat qo’shiqning she’riy aytimi ma’lum darajada qadimiyligidan dalolat beradi (N-126). Chunki, aholi betartib kelgan barmoq vazni so’zdosh ohanganlar o’z imkoni darajasida qo’llay bilgan. SHu o’rinda qo’shiqning kuy andozasiga asosiy diqqatimizni qaratamiz. Ohangning tayanch pardasi mi-tovushi, unga yarim tayanch pardalar sifatida «fa» va «solъ» tovushlari kelgan. Qo’shiqning uchinchi misrasidan yarim avj pardalaridagi shakl tuzilmasi namoyon bo’ladi.

Оталар ҳақида



Мен куйлайин бошдан ўтган сав-до ни отасиз уй бир умур-га
 гавго-ни Жон йигитлар жононқизлартинглангиз қалбидарё оталар бор
 ота-лар Болалар деб кўкраги-ни қалқон қилган оталар элу юрт деб
 фа-ши-зим-ни талқон қил-ган о-та-лар жон йигитлар
 жонон қизлар тинглангиз қал-би да-рё о-та-лар бор ота-лар.

Мен куйлайман бошдан ўтган савдони
 Отасиз уй бир умрга гавгони
 Дугоналар жонон қизлар тинглангиз
 Юртда поспон оталар бор, оталар

Uning she'riy mazmunida ifoda etilgan pand nasihat tuyg'ulari kuy ohangida ham o'z aksini to'paganligin ko'ramiz:

Men kuy - la - yin bosh - dan o't - gan sav - do - ni = 11
 O - ta - siz uy bir umr - ga g'av - g'o - ni = 10
 Jon yi - git - lar jon - on qiz - lar ting - lan - giz = 11
 Qal - bi - dar - yo ota - lar bor ota - lar = 9

Demak, qo'shiqning so'zdosh ohang va o'zgaruvchan she'r vazni asosida quyidagi shakli yuzaga keladi:

$$a + b + a + s$$

Bunda ijrochi boshidan kechirgan voqea va hodislarda otalarning tutgan o'rni, mavpei haqida "qalbi daryo otalar borligi"ni ko'rsatib o'tadi.

Qo'shiq ohangi bosqichma-bosqich rivojlanib, kvinta oralig'igacha yetkaziladi.

“Boysun uforisi” kuyida ijro etilgan qo'shiqning she'riy vazni 8 bo'g'inli misralardan tuzilgan bo'lib, o'yinbob (6/8) o'lchov ritmlarida kvarta oralig'idagi ohanglar asosida tuzilgan. Qo'shiqning sakkiz bo'g'inli she'riy tuzilmasi so'zdosh ohanglarga ulanib ketadi. O'yinga “tortuvchi” (qo'ng'irot, qo'ng'irot, tush davraga boy qo'ng'irot) ohanglar esa har bir misradan keyin naqarot shaklida keladi.

E - lat e - ding o'ng ming uy - li = 8
 Har har yer - da ming ming qo'y - li = 8
 Al-pon lar - ining os - mon bo'y - li = 8
 Tush dav-ra - ga boy qo'n - g'i - rot = 8

Qo'shiqning kuy-ohang andozasi quyidan yuqoriga qarab «re» tayanch pardadan turib «mi» va «fa» tovushlari qadar siljiydi va uchlik tuzilmasini o'zida namoyon etadi.

Erkin mavzuli qo'shiqlarda ma'lum vaziyatlar bilan bog'liq mehnat mazmundagi erishilgan badiiy natijalardan unumli foydalanilganligi ko'zga tashlanadi. “Otalar haqida”, “Qo'ng'irot”, “Sog'inch”, “Bozordan oldim”, “Boysun uforisi” (ufarisi) kabi xalq ijodidagi namunalarda mehnat qo'shiqlari misolida paydo bo'lgan uchlik ohang tuzilmasi turli variantlarda keladi. Bu tabiiy hol, chunki, erkin mavzuli qo'shiqlar turmush sharoitiga ko'ra keyinroq shakllangan (N-126, N-110, N-132, N-136, N-142). Erkin mavzuli “Checha va qiz” aytishuvi kichik tertsiya qobig'ida lapar shaklida ya'ni, savol-javob tarzida kuylanadi.

Қўнғирот

Богимда гуллар очи — лар чилик ўйнайди болалар Ўтовда ўр — гин
 и — йи — рар сал — ла — си кат — та мо — мо — лар
 ўй — на ўй — на қўн — ги — рот дав — ришг келди қўн — ги — рот.

SHunday qilib, bajarilgan tahlillardan ma'lum bo'ladi-ki, xalq qo'shiqchilik ijodiyotida ham o'zbek musiqasida muhim o'rin tutgan ohang andozalari keng qo'llanilgan. Bunda, masalan, oilaviy marosimlarda yor-yor formulasi (yoki kichik uchlik), mavsumiy qo'shiqlarda darakchi (yoki jarchi) ohanglari, mehnat qo'shiqlarida urg'uli “ettilik” tuzilmasi, turli mavzuli qo'shiqlarda esa so'zdosh va boshqa andozalarning qorishib kelishi

ayonlashdi. Mazkur andozalar har bir aytim namunasida o'ziga xos invariant tarzida qo'llanarkan, turli vazindagi she'r bo'g'inlari, turdoshlari ta'sirida jamlanib, sayqallashib turishini kuzatamiz. Bu bog'lanishlarda qariyb qonun kuchiga ega ayrim tamoyillar ham ma'lum bo'ldi. Masalan, yor-yor andozasiga juft (4+4) bo'g'inli she'r bo'g'inlarining bog'lanishi $\frac{3}{4}$ yoki $\frac{6}{8}$ o'lchov ritmlarini yuzaga keltirsa, toq yetti bo'g'inli misralar aksincha $\frac{4}{4}$ yoki $\frac{2}{4}$ o'lchov ritmlarini hosil qilishiga zamin tayyorlaydi. Bu kabi o'zga andoza va she'r munosabatlarida ham kuzatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.Rasmiy nashrlar

